



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 4-son

VOLUME 5 / ISSUE 4 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas’ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqnom

№ 174625, 29.11.2023.

Jurnal 2025-yil 25-avgustda bosmaxonaga topshirildi.

Qog‘oz bichimi: A4.

Shartli bosma tabog‘i: 26

Adadi: 100. Buyurtma: № 157.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili:

100047. Toshkent shahri,

Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS’UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
25.08.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 26. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 157.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, E. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 25.08.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 26.

Units: 100. Order: № 157.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

11 **AXMEDSHAYEVA MAVLYUDA AXATOVNA**

Ijtimoiy davlat va uning belgilari: ayrim nazariy-huquqiy masalalar

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

21 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**

Davlat-fuqarolik jamiyati muloqoti: nazariy-huquqiy tahlil va zamonaviy tendensiyalar

30 **NURMAMATOVA NOILA DONIYOROVNA**

Konstitutsiyaviy sudlarda raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va xavflar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

38 **YAKUBOV AXTAM NUSRATULLOYEVICH**

Raqamli aktivlar tushunchasining evolyutsiyasi va ularni huquqiy tartibga solishning qiyosiy tahlili

49 **TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**

Universitetlar va ilmiy tadqiqot muassasalariga qarashli intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning huquqiy xususiyatlari

59 **ABDUQODIROV ABDURAUF BAXODIR O'G'LI**

Yuridik shaxs shaxsiy qonuniga nisbatan ekspluatatsiya markazi mezonini qo'llash muammolari

66 **PO'LATOV TEMURBEK G'AYRATJON O'G'LI**

Moliyaviy texnologiyalar sektoridagi avtomatlashtirilgan raqamli shartnomalarda rozilik ifodasini huquqiy talqin etish muammolari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

76 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanishda ekologik me'yorlashning huquqiy jihatlari

84 **KALDARBEKOV ASILJON OSPANOVICH**

O'rmon fondi yerlarini barqaror huquqiy boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba va uning O'zbekiston uchun ahamiyati

95 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**

Xorijiy mamlakatlar va O'zbekistonda ekologik turizmni tartibga solishning huquqiy mexanizmlari: xalqaro tajribaning qiyosiy tahlili va moslashtirish yo'llari

108 **OTAUBAYEVA AYGUL BAXRAMOVNA**

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikning yuridik tabiati va tamoyillari: Qozog'iston Respublikasi misolida qiyosiy-huquqiy tahlil

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

121 **TO'YCHIEVA MALIKA BOTIR QIZI**

Advokatlar kasbiy tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlari va uni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

128 **NODIROV MUZAFFAR AXMADOVICH, TURSUNMURODOV KOMRON TURG'UN O'G'LI**

O'zbekistonda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik subyektining huquqiy tahlili: huquqiy
bo'shliqni bartaraf etish

138 **UTEBAYEV SALAMAT MAKSETBAY ULI**

Kontrabanda jinoyati obyektiv belgilarining yuridik talqini

147 **NURMANOV XOLBEK RAHMATILLA O'G'LI**

Onlayn banklar faoliyati sohasida firibgarlikni kvalifikatsiya qilish masalalari

156 **MA'MUROV SANJARBEK ILXOMOVICH**

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan
jinoiy jazolarning rivojlanish tarixi

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

164 **BAZAROVA DILDORA BAHADIROVNA**

Voyaga yetmaganlarning uy qamog'ida saqlanishi: jamiyat xavfsizligi va bola manfaatlari
o'rtasidagi muvozanat

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

175 **G'AFUROVA NOZIMAXON ELDAROVNA, SAIDOV OLIM CHORIQULOVICH**

Yangi O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlar va muammolari

190 **MUSAYEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**

Dunyoda narkobiznesning rivojlanishi

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

199 **AHMADJONOV MURODULLO NURALI O'G'LI**

Korrupsiya: tahlil va choralar

209 **MIRZAYEVA MOHINA SROJIDDINOVNA**

Yo'l-transport infratuzilmasi loyihalarini amalga oshirishda korrupsiyaviy sxemalar:
tahlil va yechimlar

221 **RUZINAZAROV SHUXRAT NURALIYEVICH**

Sharaflil yo'l sohibi, sudyalarning ustozl, odil va fidoyi rahbar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА.
ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

11 АХМЕДШАЕВА МАВЛЮДА АХАТОВНА

Социальное государство и его признаки: отдельные теоретико-правовые вопросы

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

21 НАЗАРОВ ШАВКАТ НАЗАРОВИЧ

Диалог государства и гражданского общества: теоретико-правовой анализ и современные тенденции

30 НУРМАМАТОВА НОИЛА ДОНИЁРОВНА

Цифровая трансформация в конституционных судах: возможности и риски

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО.
СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

38 ЯКУБОВ АХТАМ НУСРАТУЛЛОЕВИЧ

Эволюция понятия цифровых активов и сравнительный анализ их правового регулирования

49 ТОШКАНОВ НУРБЕК БАХРИДДИНОВИЧ

Правовые особенности коммерциализации объектов интеллектуальной собственности, принадлежащих университетам и научно-исследовательским учреждениям

59 АБДУКОДИРОВ АБДУРАУФ БАХОДИР УГЛИ

Проблемы применения критерия центра эксплуатации в отношении личного закона юридического лица

66 ПУЛАТОВ ТЕМУРБЕК ГАЙРАТЖОН УГЛИ

Проблемы юридической интерпретации выражения согласия в автоматизированных цифровых договорах в секторе финансовых технологий

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

76 РАЖАБОВ НАРИМАН ШАРИФБАЕВИЧ

Правовые аспекты экологического нормирования в охране и использовании растительного мира

84 КАЛДАРБЕКОВ АСЫЛЖАН ОСПАНОВИЧ

Международный опыт устойчивого правового управления землями лесного фонда и его значение для Узбекистана

95 БАЙТУРОВА АИДА НАБИЕВНА

Правовые механизмы регулирования экологического туризма в зарубежных странах и Узбекистане: сравнительный анализ и пути адаптации международного опыта

108 ОТАУБАЕВА АЙГУЛЬ БАХРАМОВНА

Юридическая природа и принципы административной ответственности за экологические правонарушения в законодательстве Республики Узбекистан: сравнительно-правовой анализ на примере Республики Казахстан

12.00.07 – СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ
ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТУРА

121 ТУЙЧИЕВА МАЛИКА БОТИР КИЗИ

Особенности профессиональной подготовки адвокатов и вопросы её совершенствования

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

128 НОДИРОВ МУЗАФФАР АХМАДОВИЧ, ТУРСУНМУРОДОВ КОМРОН ТУРГУН УГЛИ

Юридический анализ субъекта семейного (бытового) насилия в Узбекистане:
преодоление правового пробела

138 УТЕБАЕВ САЛАМАТ МАКСЕТБАЙ УЛЫ

Юридическая интерпретация объективных признаков преступления контрабанды

147 НУРМАНОВ ХОЛБЕК РАХМАТИЛЛА УГЛИ

Вопросы квалификации мошенничества в сфере онлайн-банкинга

156 МАЪМУРОВ САНЖАРБЕК ИЛЬХОМОВИЧ

История развития уголовных наказаний, не связанных с изоляцией от общества,
в уголовном законодательстве Республики Узбекистан

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА,
ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

164 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА

Домашний арест несовершеннолетних: баланс между защитой общества и
интересами ребёнка

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

175 ГАФУРОВА НОЗИМАХОН ЭЛЬДАРОВНА, САИДОВ ОЛИМ ЧОРИКУЛОВИЧ

Правовые аспекты и проблемы обеспечения продовольственной безопасности
в Новом Узбекистане

190 МУСАЕВ ДЖАМАЛИДДИН КАМАЛОВИЧ

Развитие наркобизнеса в мире

12.00.12 – ПРОБЛЕМЫ КОРРУПЦИИ

199 АХМАДЖОНОВ МУРОДУЛЛО НУРАЛИ УГЛИ

Коррупция: анализ и пути противодействия

209 МИРЗАЕВА МОХИНА СРОЖДИНОВНА

Коррупционные схемы при реализации проектов дорожно-транспортной
инфраструктуры: анализ и решения

221 РУЗИНАЗАРОВ ШУХРАТ НУРАЛИЕВИЧ

Почётный проводник и наставник судей, справедливый и преданный своему делу
руководитель

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

11 **AKHMEDSHAEVA MAVLYUDA AKHATOVNA**

Social state and its characteristics: some theoretical and legal issues

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

21 **NAZAROV SHAVKAT NAZAROVICH**

Dialogue between state and civil society: a theoretical-legal analysis and modern trends

30 **NURMATOVA NOILA DONIYOROVNA**

Digital transformation in constitutional courts: opportunities and risks

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

38 **YAKUBOV AKHTAM NUSRATULLOYEVICH**

Comparative analysis of the evolution of the concept of digital assets and their legal regulation

49 **TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**

Legal aspects of the commercialization of intellectual property objects belonging to universities and research institutions

59 **ABDUQODIROV ABDURAUF BAKHODIR UGLI**

Issues of applying the exploitation center criteria to the personal law of a legal entity

66 **PULATOV TEMURBEK GAYRATJON UGLI**

Problems of legal interpretation of agreement in automated digital contracts in the financial technologies sector

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

76 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

Legal aspects of environmental regulation in the protection and use of flora

84 **KALDARBEKOV ASILJAN OSPANOVICH**

International experience in sustainable legal management of forest fund lands and its significance for Uzbekistan

95 **BAYTUROVA AIDA NABIYEVNA**

Legal mechanisms of regulating ecological tourism in foreign countries and Uzbekistan: comparative analysis and ways of adapting international experience

108 **OTABAYEVA AIGUL BAKHRAMOVNA**

The legal nature and principles of administrative liability for environmental offenses in the legislation of the Republic of Uzbekistan: a comparative legal analysis with the Republic of Kazakhstan

12.00.07 – JUDICIAL BRANCH. PROSECUTOR'S CONTROL. ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT. ADVOCACY

121 TUYCHIEVA MALIKA BOTIR KIZI

Features of professional training of advocates and issues of its improvement

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

128 NODIROV MUZAFFAR AKHMADOVICH, TURSUNMURODOV KOMRON TURGUN UGLI

A legal analysis of the subject of the family (domestic) violence in Uzbekistan: bridging the legal gap

138 UTEBAYEV SALAMAT MAKSETBAY ULI

The legal interpretation of the objective elements of the crime of smuggling

147 NURMANOV KHOLBEK RAHMATILLA UGLI

Issues of qualification of fraud in the sphere of online banking

156 MA'MUROV SANJARBEK ILKHOMOVICH

History of the development of criminal punishments not related to separation from society in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

164 BAZAROVA DILDORA BAHADIROVNA

House arrest of minors: a balance between public safety and child's best interests

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

175 GAFUROVA NOZIMAKHON ELDAROVNA, SAIDOV OLIM CHORIQULOVICH

Legal aspects and problems of ensuring food security in New Uzbekistan

190 MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH

Development of the drug business in the world

12.00.12 – CORRUPTION PROBLEMS

199 AHMADJONOV MURODULLO NURALI UGLI

Corruption: analysis and remedies

209 MIRZAEVA MOHINA SROJIDDINOVNA

Corruption schemes in the implementation of road transport infrastructure projects: analysis and solutions

221 RUZINAZAROV SHUKHRAT NURALIYEVICH

Owner of the honorable path, mentor of judges, just and devoted leader

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./UAEL6000

UDC: 342(045)(575.1)

IJTIMOY DAVLAT VA UNING BELGILARI: AYRIM NAZARIY-HUQUQIY MASALALAR

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

ORCID: 0000-0003-3719-6599

e-mail: mavludaahmedshaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar natijasida ijtimoiy davlatchilikning huquqiy asoslari konstitutsiyaviy maqomda mustahkamlab qo'yilgani ijtimoiy davlat, uning belgilari, xususiyatlari hamda amaliyoti masalasiga bo'lgan ilmiy qiziqishni kuchaytirishi ta'kidlanadi. Shu bois bu borada olib boriladigan ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etishi ham alohida qayd etiladi. Maqolada "ijtimoiy davlat" tushunchasining shakllanish evolyutsiyasi, ijtimoiy davlatning mazmuni, uning belgilari, xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya kabi kategoriya va tushunchalar bo'yicha zamonaviy fanda mavjud qarashlarning ayrimlari keltirilib, tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ilgari surilgan modellar va konsepsiyalar ko'rib chiqilib, unda liberalizm hamda sotsial-demokratik qarashlarning o'zaro nisbat va munosabati yoritiladi. Muallif huquqiy davlat va ijtimoiy davlat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tahlil etishga intilib, ular bir-birini istisno etmasligi, aksincha, o'zaro to'ldirishi mumkinligini asoslashga harakat qiladi. Bundan tashqari, maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat hamda ijtimoiy davlatchilikni rivojlantirishga qaratilgan huquqiy va institutsional o'zgarishlar tahlil etilib, mazkur siyosatning mohiyati ochib beriladi. Maqolaning yakunida mavzu doirasida ayrim taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: davlat, konstitutsiya, huquq, huquqiy davlat, ijtimoiy davlat, dunyoviy davlat, liberalizm, sotsial-demokratiya, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya

СОЦИАЛЬНОЕ ГОСУДАРСТВО И ЕГО ПРИЗНАКИ: ОТДЕЛЬНЫЕ ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна,

доктор юридических наук, профессор

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье подчёркивается, что в результате проведённых в нашей стране конституционных реформ правовые основы социального государства получили конституционный статус, что усилило научный интерес к вопросам, связанным с социальным государством, его признаками, особенностями и практикой реализации. Отмечается, что научные исследования в этой области обладают не только теоретическим, но и прикладным значением. В статье рассматривается эволюция формирования понятия «социальное государство», раскрывается его содержание, анализируются признаки и особенности, а также

приводятся и рассматриваются отдельные современные научные подходы по категориям и понятиям социальной политики и социальной защиты. Кроме того, анализируются различные модели и концепции теории и практики социального государства, в том числе соотношение и взаимосвязь либеральных и социал-демократических взглядов. Автор стремится проанализировать взаимную обусловленность правового государства и социального государства, обосновывая мысль о том, что они не исключают, а, напротив, дополняют друг друга. Также исследуются правовые и институциональные изменения, проводимые в Узбекистане с целью развития социальной политики и социального государства, раскрывается сущность этой политики. В заключение статьи формулируются отдельные предложения и рекомендации в рамках рассматриваемой темы.

Ключевые слова: государство, конституция, право, правовое государство, социальное государство, светское государство, либерализм, социал-демократия, социальная политика, социальная защита

SOCIAL STATE AND ITS CHARACTERISTICS: SOME THEORETICAL AND LEGAL ISSUES

Akhmedshaeva Mavlyuda Akhatovna,
Professor of Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law

Abstract. This article emphasizes that as a result of the constitutional reforms implemented in our country, the legal foundations of social statehood have been enshrined in constitutional status, which strengthens scientific interest in the issue of the social state, its characteristics, features, and practice. Therefore, it is especially noted that the scientific research carried out in this area is of not only theoretical, but also practical importance. The article presents and analyzes some of the existing views in modern science on the evolution of the formation of the concept of "social state," the content of the social state, its features, characteristics, as well as categories and concepts such as social policy and social protection. It also examines the models and concepts put forward in the theory and practice of the social state, highlighting the relationship between liberalism and social-democratic views. The author, striving to analyze the interrelationship between the rule of law and the social state, tries to substantiate that they do not exclude each other but, on the contrary, complement each other. In addition, the article analyzes the social policy pursued in Uzbekistan and the legal and institutional changes aimed at developing social statehood, revealing the essence of this policy. At the end of the article, some suggestions and recommendations are put forward within the framework of the topic.

Keywords: state, constitution, law, legal state, social state, secular state, liberalism, social democracy, social policy, social protection

Kirish

O'zbekiston bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida xalqaro maydonda munosib o'ringa ega. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar, yangilanish jarayonlari, inson huquqlarini ta'minlash hamda aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan uzoqni ko'zlagan siyosat o'z samarasini bermoqda va xalqaro hamjamiyat tomonidan

munosib e'tirof etilmoqda. Shu bois bugun yurtimizda inson qadrini ulug'lash, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, aholi daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish yo'lida qat'iy qadamlar qo'yilmoqda [1].

2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan umum-xalq referendum natijasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan tahriri qabul qilindi. Ushbu muhim siyosiy-huquqiy voqea mamlakatimizning iqtisodiy, ij-

timoiy va siyosiy sohalarida erishgan yutuqlari, amalga oshirilgan islohotlar natijalari hamda xalq, jamiyat va davlat oldida turgan ustuvor maqsad va vazifalarni o'zida aks ettiradi.

Ushbu nufuzli siyosiy voqeaning muhim jihatlaridan biri shundaki, Konstitutsiyaga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarning mualliflari sifatida aholining turli qatlamlari vakillari ham faol ishtirok etdi. Ular o'z taklif va tavsiyalarini muhokama jarayonida ham, referendum vaqtida ham ilgari surib, islohotlarning bevosita yaratuvchisiga aylandi.

Konstitutsiyaga kiritilgan qo'shimchalar orasida uning 1-moddasining yangi tahriri alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, Asosiy qonunimiz "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanligini belgilovchi yangi konstitutsiyaviy norma bilan boyitildi.

Mazkur norma davlatimizning boshqaruv shaklini aniq belgilab berish barobarida, O'zbekistonning o'z hududida hamda xalqaro maydonda mutlaq mustaqil, hech kimga qaram emasligini, demokratik taraqqiyot yo'lini qat'iy tanlaganini hamda bu jarayon orqaga qaytmas tusga ega ekanini ifodalaydi. Shuningdek, u mamlakatda nafaqat fuqarolar, balki barcha davlat organlari, turli darajadagi mansabdor shaxslar va boshqa huquq subyektlari faqat huquqqa asoslanib faoliyat yuritishini taqozo etadi.

Bundan tashqari, norma O'zbekistonning mohiyatan ijtimoiy davlat sifatida aholining turmush farovonligini oshirish va kuchli ijtimoiy himoya tizimini ta'minlashni davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etadi. Shu bilan birga, mamlakatning dunyoviy xarakterga egaligi, fuqarolarning din va vijdon erkinligini kafolatlash hamda bu borada zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish majburiyati konstitutsiyaviy maqomda mustahkamlandi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, qator MDH davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyodagi ayrim qo'shni mamlakatlar allaqachon o'z

konstitutsiyalarida "ijtimoiy davlat" g'oyasini mustahkamlab qo'ygan [2; 3]. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasini ishlab chiqishda esa mazkur masalaga o'sha davrdagi iqtisodiy vaziyat, o'tish davrining murakkab sharoitlari hamda jahon konstitutsionalizmi tajribasiga tayangan holda yondashildi. Asosiy qonunda ijtimoiy davlat g'oyasi to'g'ridan to'g'ri mustahkamlanmagan bo'lsa-da, uning ayrim tarkibiy qismlari va elementlari tegishli konstitutsiyaviy normalarda o'z ifodasini topgan edi.

Ayni paytda, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat tushunchalariga e'tibor qaratish mantiqan to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Huquqiy davlat – fuqarolarning huquq va erkinliklari real ravishda ta'minlanadigan, huquq hukmronligi va qonun ustuvorligi qaror topgan, davlat hokimiyati tizimi hokimiyatlar bo'linishi prinsipi asosida shakllantiriladigan, mustaqil sud hokimiyati faoliyat yuritadigan hamda jamiyatning huquqiy madaniyati yuqori bo'lgan demokratik jamiyat.

Dunyoviy davlatda esa dunyoviy hayot diniy ishlardan alohida ravishda tashkil etiladi, davlat organlari va diniy tashkilotlar o'z faoliyatini mustaqil olib boradi, ta'lim tizimi dunyoviy bilimlarni berishga asoslanadi. Bunday davlatda odil sudlov diniy qoidalarga emas, balki amaldagi fuqaroviy qonunlarga asoslanadi. Shu bilan birga, fuqarolarga din va vijdon erkinligi kafolatlanadi, ya'ni ular istalgan diniga e'tiqod qilish yoki qilmaslik huquqiga ega bo'ladi, mamlakatda mavjud barcha konfessiyalarning diniy e'tiqod, ibodat va rasm-rusumlarini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoit yaratiladi.

Aytish joizki, davlatning demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy xarakterlari bir-biriga zid emas, balki oqilona uyg'unlikda bir-birini to'ldiradi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida muallif davlat-huquqiy hodisalarni ilmiy tadqiq etishda umumilmiy metodlardan, jumladan, tizimlilik, tarixiylik, mantiqiylik, tahlil va

sintez, qiyoslash kabi usullardan, shuningdek, maxsus yuridik ilmiy metodlardan – qiyosiy-huquqiy va formal-yuridik usullardan foydalanilgan. Ushbu maqolada asosiy e'tibor ijtimoiy davlat masalasiga qaratiladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda davlatning sinfiy mohiyati va sinflar haqidagi an'anaviy g'oyalar asta-sekin o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Zero, zamonaviy davlatlar biron-bir sinf yoki toifaning manfaatini emas, balki barcha ijtimoiy guruhlarning umumiy manfaatlarini muhofaza qilish, ularni birlashtirish vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy davlatning mohiyati ham aynan shunda namoyon bo'ladiki, bunday davlat ma'lum bir toifa emas, balki butun jamiyat manfaatlarini ifoda etadi va ularni himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida belgilanganidek: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi".

Darhaqiqat, ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni imkon qadar kamaytirish, moddiy boyliklarni qayta taqsimlash orqali adolatni ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini real himoya qilish hamda ijtimoiy taranglikning oldini olish orqali mamlakatda barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir.

Aytish joizki, aholining moddiy ahvolini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash g'oyasi va amaliyoti davlatchilik tarixining turli davrlarida ham mavjud bo'lgan. Xususan, Sharq xalqlarida, jumladan, Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston hududida muhtojlarni, yetim-yesirlarni, nogironligi bor insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga yordam berish, mehr-muruvvat ko'rsatish va xayriya faoliyati qadimdan keng tarqalgan. Mazkur fazilat xalqimiz turmush tarziga chuqur singib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'ana sifatida namoyon bo'ladi.

Bu borada buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy faoliyati alohida e'tiborga loyiqdir. U o'z davrida nafaqat yirik davlat arbobi va adib sifatida, balki xalqparvar xayriyachi sifatida ham keng miqyosda faoliyat yuritgan. Shoirning tashabbusi bilan suvsiz yerlarga suv chiqarilgan, eski ariqlar tozalangan, yangi kanallar qazilgan, mavjud binolar ta'mirlangan va yangilari qurilgan, shuningdek, ko'plab madrasalar va xonaqohlar barpo etilgan.

Alisher Navoiy o'zining mashhur "Vaqfiya" asarida shaxsiy mablag'lari hisobiga qurdirgan xayriya muassasalari, ilmiy-ma'rifiy inshootlar va bog'lar haqida batafsil ma'lumot beradi. Buyuk tarixchi Xondamirning guvohlik berishicha, Navoiy o'z mablag'lari hisobidan faqatgina Hirotda emas, balki mamlakatning boshqa shaharlarida ham bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 ta masjid, 10 ta xonaqoh, 9 ta hammom, 9 ta ko'prik va 20 ga yaqin hovuz qurdirgan yoki ularni ta'mirlatirgan [4].

Alisher Navoiyning ijtimoiy-xayriya faoliyati

Obyekt turlari	masjid	xonaqoh	ham-mom	ko'prik	rabot	hovuz
Soni	17 ta	10 ta	9 ta	9 ta	40 ta	20 ta

Ular orasida Hirotdagi "Ixlosiya" va "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifoia" tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilar uchun qurilgan "Dorul-huffoz" binosi, Marvdagi "Xusraviya" madrasasi, Mashhaddagi "Dorul-huffoz" xayriya binosi hamda boshqa noyob me'morlik yodgorliklari mavjud [5]. Ijtimoiy yordam g'oyasi esa xalqimizning urf-odatlar, an'analari va rasm-rusumlarida ham o'z ifodasini topgan. Masalan, Hayit kunlari muhtoj va nochor ahvoldagi insonlardan, bemorlar yoki yoshi ulug' kishilardan xabar olish, ularga imkon qadar yordam berish qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Shu boisdan ham Asosiy qonunimizda mustahkamlab qo'yilgan ijtimoiy davlat g'oyasi xalqimiz mentalitetiga juda yaqin va mosdir. Shu bilan birga, Konstitutsiyada dav-

latning ijtimoiy xarakteri belgilab qo'yilishi unga ko'plab ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydi. Ijtimoiy davlatning asosiy maqsadi – fuqarolarga munosib hayot kechirish va erkin rivojlanishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berish.

Kishilik jamiyati o'z taraqqiyoti davomida turli tuzumlarni boshdan kechirgan. Masalan, quldorlik va feodalizm davrida insonlarning maqomi teng bo'lmagan, yashash sharoitlari keskin farqlangan. Kapitalistik tuzumdan boshlab, ayniqsa, burjua inqiloblaridan keyin fuqarolarning tengligi huquqiy jihatdan e'tirof etila boshlandi. Bugungi kunda davlat, qonunlar va sud hokimiyati fuqarolarning formal tengligini so'zsiz tan oladi. Biroq bu ularning real hayotda ham tengligini anglatmaydi. Chunki formal tenglik bilan real tenglik orasida muayyan masofa mavjud. Bir xil huquq va imkoniyatlar yaratilgan taqdirda ham ularni amalga oshirish jarayoni turli shaxslarda turlicha kechadi. Sababi insonlar o'zlarining jismoniy, ruhiy va irodaviy jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Oqibatda bir xil huquqlar va imkoniyatlar mavjud sharoitda ham insonlarning ahvoli, xususan, moddiy holati turlicha shakllanishi mumkin. Bu esa jamiyatda ijtimoiy notenglik, ya'ni moddiy tabaqalanishning vujudga kelishini tabiiy jarayon sifatida ko'rsatadi. Shu boisdan ham ijtimoiy davlatchilik g'oyasining zamirida mulkiy tabaqalanishning oldini olish yoki uning oqibatlarini yumshatadigan ijtimoiy tuzumni barpo etish maqsadi mujassam, deyish mumkin.

Shu munosabat bilan ijtimoiy davlatchilikning mazmun-mohiyati, tarixiy shakllanish jarayoni, uning asosiy belgilari hamda zamonaviy amaliyoti masalalariga e'tibor qaratish mantiqan zarurdir. Biroq bugungi kunda "ijtimoiy davlat" tushunchasi bo'yicha, xususan, uning huquqiy davlat bilan o'zaro aloqasi, asosiy belgilari va uni qurish nazariyasi hamda amaliyoti borasida yagona umume'tirof etilgan yondashuv mavjud, deb aytish qiyin.

Davlatning ijtimoiy faoliyati haqidagi qarashlar qadimgi davrlardan shakllanib kelgan bo'lib, uning ildizlari Aflotun va Arastu ta'limotlariga borib taqaladi. Keyinchalik bu g'oyalar J.J. Russo, J. Lokk, Sh. Monteskye kabi mutafakkirlar tomonidan yanada sayqallandi. Zamonaviy bosqichda esa J. Gelbreyt, D.M. Keyns, F. Xayyek singari mashhur iqtisodchilar tomonidan davom ettirildi.

J.J. Russoning fikricha, davlatning asosiy vazifalaridan biri jamiyat uchun adolatsiz va chidab bo'lmas darajada og'ir oqibatlarga olib keladigan boy va kambag'allarga bo'linishni bartaraf etishdir. Shu bilan birga, mutafakkir jamiyatda boylikni butunlay yo'qotish zarurligi haqida fikr bildirmagan [6].

Ko'pchilik tadqiqotchilar ham G'arbda, ham MDH ilmiy makonida ijtimoiy davlatchilik g'oyalarining paydo bo'lishini Tomas Gobbs va Jon Lokk ta'limotlari bilan bog'lashadi. Gobbsning shaxs va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil etishi jamiyatda xususiy raqobat va bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan shaxs erkinligiga zamin yaratgan.

Ayrim mualliflar fikricha, "ijtimoiy davlat" terminining muallifi Lorens fon Shteyn hisoblanadi. Unga ko'ra, ijtimoiy davlat – jamiyatdagi turli ijtimoiy sinflar hamda o'z hokimiyatiga ega bo'lgan alohida o'zini o'zi boshqaruvchi shaxslar uchun mutlaq tenglikni ta'minlovchi davlat [7]. Shu bilan birga, 1832-yilda Robert fon Molning "Yuridik davlat asoslari bo'yicha politsiya ilmi" asarida muallif "politsiya" tushunchasini har bir shaxs foydalanishi mumkin bo'lgan muassasalarni yaratish va umumiy choralarni qabul qilish orqali ularning huquqlarini himoya etish hamda fuqarolarning oqilona va qonuniy maqsadlariga erishishiga ko'maklashadigan davlat faoliyati sifatida talqin qilgan [8].

Ijtimoiy davlat g'oyasi murakkab rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirgan. Uning kelib chiqishi sabablari borasida ham turlicha qarashlar mavjud. Ba'zi yondashuv-

larda ijtimoiy davlat klassik liberalizmning amaliy choralarini marksizm talablari bilan bog'lovchi oraliq holat sifatida izohlanadi. Shu bilan birga, liberalizmning asosiy tayan-chlari – xususiy mulkchilik, individualizm, raqobat, bozor, demokratiya va erkinlik – zamonaviy rivojlangan demokratik ijtimoiy davlatlarning ham asosiy belgilari sifatida namoyon bo'ladi.

Natijada, ijtimoiy-huquqiy davlat har bir mamlakat intiladigan, erishishga harakat qilinadigan “ideal maqsad” (ideal marra) sifatida qaraladi.

Nazarimizda, ijtimoiy davlat liberalizmning “davlat iqtisodiyotga imkon qadar kam aralashishi, asosan “tungi qorovul” vazifasini bajarishi lozim” degan talabi bilan sotsial demokratiya g'oyalari o'rtasidagi “oltin o'rtalikni” ifodalaydi [9]. Shu bilan birga, ijtimoiy davlat jamiyatda mavjud iqtisodiy notenglikni kamaytirish maqsadida davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuv darajasi masalasini ham kun tartibiga olib chiqadi.

Davlat fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash uchun faqat imtiyozlar berish va ijtimoiy himoya choralarini amalga oshirish bilan cheklansa, bu holatda tartibga solish obyekti shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi. Bu yondashuv konservativ va liberal qarashlar uchun xosdir. Biroq agar davlat nafaqat munosib hayot darajasini ta'minlash, balki jamiyatning tuzilishini, jumladan, iqtisodiyotni ham ma'lum darajada isloh qilishni o'z zimmasiga olsa, tartibga olish obyekti sifatida ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi, ayniqsa, moddiy boyliklarni taqsimlash bilan bog'liq munosabatlar maydonga chiqadi. Shu nuqtada huquqiy davlat va ijtimoiy davlat o'rtasidagi ma'lum tafovut namoyon bo'ladi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, milliy yuridik fanda ijtimoiy davlat va ijtimoiy siyosat masalalari, ijtimoiy davlatni qurishning nazariy asoslari va uning rivojlanish qonuniyatlarini davlat va huquq nazariyasi

nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilgan ilmiy tadqiqotlar hanuzgacha yetarli emas.

Ijtimoiy davlatda markaziy davlat organlariga, jumladan, vakillik organlariga saylovlarda imkon qadar jamiyatning barcha toifalari vakillari jalb etilishi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, Konstitutsiyamizda O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilanganidan kelib chiqib, shahar va qishloqlarni obod qilish, yangi uy-joylar, tibbiyot, ta'lim, madaniyat, san'at va sport maskanlarini barpo etish, yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralmoqda.

Raqamlar ham bu yo'nalishdagi amaliy ishlarning ko'lamini yaqqol ifodalaydi: sog'liqni saqlash sohasiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ikki barobar oshirilmoqda. Bu jarayonda tibbiy sug'urta tizimiga bosqichma-bosqich o'tish va aholining kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan to'liq ta'minlanishi ustuvor vazifa etib belgilanmoqda. Ta'lim sohasida esa yaqin yillar ichida oliy ta'lim muassasalarida qamrov 50 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan. Masalan, birgina 2025-yilda maktabgacha ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarini ta'mirlash hamda yangilarini qurish uchun davlat budjetidan 4 trillion so'm mablag' yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun jami 46,5 trillion so'm mablag' ajratilib, 1 million fuqaroni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish, ularning ijtimoiylashuvini oshirish va jamiyatda inklyuzivlikni ta'minlash masalalari ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Pensiya tizimini isloh etish bo'yicha zaruriy choralar ko'rish ham davlat siyosatining dolzarb vazifalari qatorida turibdi [10].

2025-yilda ijtimoiy sohaning ayrim yo'nalishlariga ajratiladigan mablag'lar

Yil	bog'cha va maktablarni ta'mirlash va yangilarini qurish uchun	aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash uchun
2025-yil	4 trillion so'm	46,5 trillion so'm

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ijtimoiy sohaga oid mustahkam huquqiy baza shakllangan va keng qamrovli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda. 2025-yil uchun Davlat budjeti xarajatlari (344,8 trln so'm) doirasida ham "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan konstitutsiyaviy tamoyilga mos ravishda ijtimoiy yondashuv ustuvorligi saqlab qoling. Xususan, umumiy xarajatlarning 52 foizi yoki 177,7 trillion so'mi ijtimoiy sohaga yo'naltirilmoqda. Shundan ta'lim sohasiga 84,0 trillion so'm, sog'liqni saqlash sohasiga esa 41,3 trillion so'm mablag' ajratilishi belgilangan bo'lib, bu jami budjet xarajatlarining 36,4 foizini tashkil etadi [11].

Binobarin, ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Zero, qayerda barqarorlik bo'lsa, o'sha yerda iqtisodiy o'sish va taraqqiyot kuchayadi, ichki va tashqi xavfsizlik kafolatlanadi.

Iqtisodiy, falsafiy hamda yuridik adabiyotlarda ijtimoiy davlat va uning vazifalari yuzasidan turli fikrlar bildirilgan. Umuman olganda, ijtimoiy davlat – davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida ijtimoiy funksiyalarning ijrosiga ustuvorlik berilishi bilan ajralib turadigan davlat. Ijtimoiy davlatning mavjudligi va samarali faoliyat yuritishi uchun quyidagilar ta'minlanishi zarur:

- insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasi va ular hayotining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini o'z ichiga oladigan turmush farovonligi oshirish;

- garchi mutlaq tenglikni anglatmasa-da, ijtimoiy adolat prinsipini amalga oshirish;

- turli sohalarni (bandlik va ishsizlik, oila va yoshlar siyosati, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash va shu kabilar) o'z ichiga

oladigan aholini ijtimoiy himoya qilishning shartligi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalarda ijtimoiy davlatning qator belgilari ko'rsatiladi [12]:

- keng qamrovli ijtimoiy siyosat – ijtimoiy davlat mavjudligining belgisi;

- asosiy tarkibiy elementlarga ega bo'lgan rivojlangan fuqarolik jamiyatining mavjudligi;

- huquq hukmronligi mexanizmlarining rivojlanganligi;

- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari shakllanganligi va fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini samarali amalga oshirilishi.

Ta'kidlash joizki, ilmiy manbalarda ijtimoiy davlatlarning tasnifi ham berilgan. Masalan, V.P. Miletskiy tasnifiga ko'ra, ijtimoiy davlatlarning uch turi mavjud: liberal sotsial davlatlar, konservativ sotsial davlatlar va sotsial-demokratik sotsial davlatlar [13].

Liberal modelda asosiy e'tibor ijtimoiy imkoniyatlar tengligiga qaratiladi. Konservativ modelda ijtimoiy sharoit va imkoniyatlarning muvozanati ta'minlanadi. Sotsial-demokratik modelda esa barcha fuqarolarga ijtimoiy sharoitlarning tengligi kafolatlanadi.

Shu o'rinda Lorens fon Shteynning ijtimoiy davlat konsepsiyasining ahamiyatini eslatib o'tish o'rinli. Aslida "ijtimoiy davlat" atamasining muallifi ham aynan u hisoblanadi. Uning konsepsiyasida davlatning funksiyalari qatoriga "turli ijtimoiy sinflar, shu jumladan, alohida shaxs uchun ham huquqlarning mutlaq tengligini qo'llab-quvvatlash" g'oyasi kiritilgan.

Ijtimoiy davlat g'oyasining konstitutsiyaviy va huquqiy jihatdan mustahkamlanishi tarixiga nazar tashlasak, u birinchi marta Germaniya Federativ Respublikasining 1949-yil 23-mayda qabul qilingan Konstitutsiyasining 20- va 28-moddalarida o'z aksini topgan [14].

Biroq ijtimoiy davlat g'oyasining Konstitutsiyada mustahkamlanishini haddan ziyod bo'rttirib ko'rsatish ham to'g'ri emas. Chunki

garchi O'zbekistonda mazkur g'oya faqat 2023-yilda Asosiy qonunda mustahkamlangan bo'lsa-da, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, eng og'ir iqtisodiy sharoitlarda ham aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishga ustuvor ahamiyat berib kelingi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab ijtimoiy huquq va erkinliklar kafolatlangani ijtimoiy davlatchilik tizimi va tuzilmasining mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Xususan [15]:

- har kim eng kam oylik maoshidan past bo'lmagan miqdorda adolatli haq olish huquqi ega;

- har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega;

- pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy yordamning miqdorlari eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas;

- soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak;

- har kim uy-joyli bo'lish huquqi ega;

- davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi;

- fuqarolarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi bepul ko'rsatiladi;

- aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanadi;

- yollanib ishlovchilarga har yilgi haq to'lanadigan mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi kafolatlanadi;

- davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi;

- ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi;

- fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli.

Bundan tashqari, Konstitutsiyada ijtimoiy davlat tamoyilining mustahkamlanishi mazkur g'oyaning darhol va to'liq hayotga tatbiq etilishini anglatmaydi. Bu vazifa murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy omillarni ham, jumladan, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning muayyan darajada rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shu maqsadda, 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Mazkur agentlik aholining ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan maxsus davlat organi hisoblanadi [16].

Xulosa

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda ham, qonunchilikda ham ijtimoiy davlatning yagona konsepsiyasi yoki umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Umuman olganda, ijtimoiy davlat deganda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan, aholining muayyan tarixiy davrdagi hayot darajasini ta'minlovchi, aniq hamda qonunan rasmiylashtirilgan davlat funksiyasi tushuniladi [17].

Prezidentimiz ushbu tushunchani sharhlar ekan, "Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar yaratish, odamlarning munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish demakdir", deya ta'rif bergan edi [18].

Yuqoridagilarga asosan, ijtimoiy davlatni jamiyatda moddiy tengsizlikni kamaytirish orqali ijtimoiy adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan, shu maqsadda iqtisodiy jarayonlarga hamda moddiy boyliklarni taqsimlashga oqilona darajada aralashuvchi, bunday jarayonga befarq bo'lmagan demokratik huquqiy davlat sifatida ta'riflash mumkin.

Maqola yakunida ijtimoiy davlat, uning belgilari va shakllanish amaliyotini tadqiq etish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Milliy yuridik fan va doktrinada ijtimoiy davlat tushunchasi, uning mazmuni, mohiyati, belgilari hamda shakllanishining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslari yetarlicha tadqiq etilmagan. Shu bois ushbu masalalar bo'yicha ilmiy izlanishlarni kuchaytirish zarur.

2. Ta'limning barcha bo'g'inlarida o'quvchilarda muayyan tasavvur shakllantirish maqsadida ijtimoiy fanlar, jumladan, yuridik fanlar dasturlariga "Ijtimoiy davlat va uning mohiyati, belgilari" kabi mavzularni kiritish lozim.

3. Ijtimoiy davlat kategoriyasini huquqiy davlat, dunyoviylik va fuqarolik jamiyati

rivoji bilan bog'liq holda o'rganish va ta'lim tizimida o'qitish maqsadga muvofiqdir. Konstitutsiyamizning 1-moddasi mazmuni ham aynan shuni talab etadi.

4. Ijtimoiy davlatchilik g'oyalari xalqimizning qadimiy tarixiga, dunyoqarashiga va qadriyatlariga yaqin bo'lib, ongimizga singib ketgan. Shu jihatdan ilmiy tadqiqotlarda Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimizning xayriya, mehr-muruvvatga asoslangan faoliyatini ijtimoiy davlatchilik nuqtayi nazaridan tahlil etish orqali milliy davlatchiligimiz tarixida ijtimoiy davlat g'oyalarning ifodalanişini ko'rsatish mumkin.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi [Speech by the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the solemn ceremony dedicated to the national holiday of Navruz]. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/7963>
2. Konstitutsiya Respubliki Kazakhstan [Constitution of the Republic of Kazakhstan]. Available at: https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution
3. Konstitutsiya Respubliki Tadzhikistan [Constitution of the Republic of Tajikistan]. Available at: <https://mfa.tj/ru/main/tadzhikistan/konstitutsiya>
4. Alisher Navoi: neissyakayemiy istochnik vdokhnoveniya [Alisher Navoi: an inexhaustible source of inspiration]. Available at: <https://uzbekistan.org.ua/ru/news/2329-alisher-navoi-neissyakaemyj-istochnik-vdokhnoveniya.html>
5. Alisher Navoiy hayot yo'li va ijodi [Alisher Navoi's life and work]. Available at: <https://sputniknews.uz/20190208/alisher-navoiy-hayoti-va-ijod-yoli-22240204.html>
6. Yegoyants Zh.A., Yershova M.V. Kontseptsiya prav i svobod v trudakh Zhan-Zhaka Russo [The concept of rights and freedoms in the works of Jean-Jacques Rousseau]. *Young Scientist*, 2019, vol. 21 (259), pp. 331–333. Available at: <https://moluch.ru/archive/259/59452/>
7. Miletskiy V.P. Institutsional'nyye aspekty stanovleniya sotsial'nogo gosudarstva [Institutional aspects of the formation of the welfare state]. Available at: <https://discourse.etu.ru/assets/files/mileckij-v.p.pdf>
8. Mol R. Nauka politsii po nachalam yuridicheskogo gosudarstva [Police Science on the Principles of the Legal State]. St. Petersburg. Available at: <https://dspace.spbu.ru/items/3dc4b44d-33a1-414c-b901-47ccbd01edbd>
9. Kozhokin Ye.M. Ipostasi "gosudarstva – nochnogo storozha" [Hypostases of the "Night Watchman State"]. Available at: cyberleninka.ru/article/n/ipostasi-gosudarstva-nochnogo-storozha-frantsiya-pervoy-pолоviny-xix-veka
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Konstitutsiya kuni munosabati bilan bayram tabrigi [Greetings from the President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev on the occasion of Constitution Day]. 2024. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/7751>

11. 2025-yil Davlat budjeti – Ijtimoiy tamoyilga asoslangan [2025 State Budget – Based on Social Principles]. Available at: https://uza.uz/ru/posts/2025-yil-davlat-byudzheti-izhtimoiy-tamoyilga-asoslangan-byudzhethet_675824?q=%2Fposts%2F2025-yil-davlat-byudzheti-izhtimoiy-tamoyilga-asoslangan-byudzhethet_675824
12. Starshova U.A. Ponyatiye, priznaki i perspektivy razvitiya sovremennogo sotsial'nogo gosudarstva [The concept, characteristics and development prospects of a modern social state]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-priznaki-i-perspektivy-razvitiya-sovremennogo-sotsialnogo-gosudarstva-rossiyskiy-i-zarubezhnyy-opyt>
13. Miletskiy V.P. Institutsional'nyye aspekty stanovleniya sotsial'nogo gosudarstva [Institutional aspects of the formation of the welfare state]. Available at: <https://discourse.etu.ru/assets/files/mileckij-v.p.pdf>
14. Osnovnoy Zakon FRG [Basic Law of the Federal Republic of Germany]. 1949. Available at: <https://www.deutschland.de/ru/topic/politika/mir-i-bezopasnost/70-let-osnovnomu-zakonu>
15. O'zbekiston – ijtimoiy davlat [Uzbekistan is a social state]. Available at: https://constitution.uz/uz/pages/broshura_ijtimoiy_davlat
16. Ijtimoiy himoya milliy agentligi [National Agency for Social Protection]. Available at: https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/prezident_huzurida_ijtimoiy_himoya_milliy_agentligi_tashkil_etildi
17. Postnikov V.G. Stanovleniye sotsial'nogo gosudarstva, yego konstitutsionno-pravovyye i politicheskiye kharakteristiki [Formation of the social state, its constitutional, legal and political characteristics]. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/stanovlenie-sotsialnogo-gosudarstva-ego-konstitutsionno-pravovyye>
18. Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta'minlashga xizmat qiladi [The new social protection system serves to ensure human dignity]. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/7041>

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./LVUX4115

UDC: 342(045)(575.1)

DAVLAT-FUQAROLIK JAMIYATI MULOQOTI: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Nazarov Shavkat Nazarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi kafedrası mudiri,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent
ORCID: 0000-0001-8546-774X
e-mail: sh.nazarov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning nazariy-huquqiy tabiati va konseptual asoslari tahlil qilinadi. Maqolada mazkur munosabatlarning tarixiy rivojlanish jarayoni, G'arb va postsovet makonidagi nazariy yondashuvlar, jumladan, Gramshi, Pulantzas va Burdye nazariyalariga asoslangan tahlillar keltirilgan. Shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqot mexanizmlari, PR-texnologiyalar va jamoatchilik maslahatchilar institutining muhim ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Muallif ushbu munosabatlarni binar oppozitsiya sifatida emas, balki dialektik o'zaro to'ldiruvchi tizim sifatida talqin qilish zarurligini ilmiy asoslaydi. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar faqat huquqiy yoki siyosiy jihatlar bilan cheklanmaydi. Bu munosabatlarning madaniy, kommunikativ, simbolik va diskursiv jihatlar ham muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy nazariyalar davlat va fuqarolik jamiyatini qat'iy ajratish emas, balki ularni o'zaro ta'sir qiluvchi, chegaralari doimo o'zgarib turuvchi tizimlar sifatida ko'rsatadi. Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning qarashlari solishtirma tahlil qilingan va fuqarolik jamiyati subyektlarining davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish uchun institutsional mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Shu bilan birga, maqolada raqamlashtirish va globallashtirish sharoitida davlat-fuqarolik jamiyati munosabatlarining yangi konfiguratsiyalari va transmilliy xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: davlat, fuqarolik jamiyati, muloqot, institutlar, gegemoniya, kommunikatsiya, demokratiya, nazariya, huquq

ДИАЛОГ ГОСУДАРСТВА И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ

Назаров Шавкат Назарович,
кандидат юридических наук, доцент,
заведующий кафедрой «Государственное управление»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматривается теоретико-правовая природа и концептуальные основы взаимоотношений между государством и гражданским обществом. Проанализированы

историческая динамика формирования данных отношений, а также различные теоретические подходы, сложившиеся в западной и постсоветской научной традиции, включая концепции Антонио Грамши, Никоса Пуланцаса и Пьера Бурдьё. Особое внимание уделено анализу механизмов диалога между государством и гражданским обществом, включая роль PR-технологий, института общественных советников и других коммуникационных инструментов. Автор научно обосновывает необходимость интерпретировать эти отношения не как бинарную оппозицию, а как диалектическую, взаимодополняющую систему. Отмечается, что взаимодействие государства и гражданского общества выходит за рамки исключительно правовых и политических аспектов, включая культурные, коммуникативные, символические и дискурсивные измерения. Современные теории предлагают рассматривать государство и гражданское общество как динамичные, взаимовлияющие системы с постоянно изменяющимися границами. В статье проведён сравнительный анализ взглядов зарубежных и отечественных учёных, предложены практические рекомендации по совершенствованию институциональных механизмов для повышения участия субъектов гражданского общества в государственном управлении. Кроме того, рассматриваются новые конфигурации и транснациональные особенности взаимодействия государства и гражданского общества в условиях цифровизации и глобализации.

Ключевые слова: государство, гражданское общество, диалог, институты, гегемония, коммуникация, демократия, теория, право

DIALOGUE BETWEEN STATE AND CIVIL SOCIETY: A THEORETICAL-LEGAL ANALYSIS AND MODERN TRENDS

Nazarov Shavkat Nazarovich,

Head of the Department of Public Administration,
Tashkent State University of Law,
Candidate of Legal Sciences, Associate professor

Abstract. This article analyzes the theoretical and legal nature and conceptual foundations of the relationship between the state and civil society. The article presents an analysis of the historical development of these relations and theoretical approaches in the West and the post-Soviet space, including those based on the theories of Gramsci, Pulanzas, and Bourdieu. It also highlights the importance of communication mechanisms between the state and civil society, PR technologies, and the institution of public consultants. The author scientifically substantiates the need to interpret these relations not as a binary opposition, but as a dialectical complementary system. The relationship between the state and civil society is not limited to legal or political aspects. Cultural, communicative, symbolic, and discursive aspects of these relations also play an important role. Modern theories do not strictly separate the state and civil society, but show them as interacting systems with constantly changing boundaries. The article comparatively analyzes the views of foreign and domestic scientists and puts forward practical recommendations for improving institutional mechanisms to strengthen the participation of civil society entities in public administration. At the same time, the article analyzes new configurations and transnational features of state-civil society relations in the context of digitalization and globalization.

Keywords: state, civil society, dialogue, institutions, hegemony, communication, democracy, theory, law

Kirish

Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi siyosiy-huquqiy va ijtimoiy tafakkur tarixida fundamental

ahamiyat kasb etuvchi murakkab nazariy konstruksiyadir. Ushbu munosabatlarning konseptual mohiyati va transformatsion xususiyatlarini teran anglash bugun nafaqat

nazariy-metodologik, balki amaliy-pragmatik jihatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqot mexanizmlarining nazariy-huquqiy tabiatini aniqlash va tegishli institutsional tuzilmalarni takomillashtirish zamonaviy demokratik davlatchilik konsepsiyasining markaziy masalalaridan biriga aylangan.

Tarixiy-falsafiy istiqboldan qaraganda, ushbu mavzu qadimgi davrlardan boshlab ijtimoiy-siyosiy diskursning diqqat markazida bo'lib kelgan. Antik davr mutafakkirlaridan tortib to postmodern faylasuflargacha bo'lgan keng doiradagi olimlar davlat va fuqarolik jamiyati dialektikasini turli konseptual prizmalar orqali tahlil qilishgan. Ushbu mavzuning doktrinal asoslari alohida ijtimoiy hodisa sifatida fuqarolik jamiyatini dastlab konseptualizatsiya qilgan XVIII-XIX asrlardagi Yevropa Ma'rifatchilik davri an'alariga borib taqaladi.

Asosiy qism

Zamonaviy olimlar tadqiqotlarida davlat-fuqarolik jamiyati munosabatlarini turli nazariy-metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayniqsa, poststrukturalistik va neoinstitutsional paradigmalar doirasida ushbu munosabatlarning transformatsion dinamikasi, shuningdek, globallashuv va raqamli texnologiyalar ta'siri ostida shakllanayotgan yangi konfiguratsiyalar chuqur o'rganilmoqda. Davlat va fuqarolik jamiyatini binar oppozitsiya sifatida emas, balki dialektik o'zaro to'ldiruvchi tizim sifatida talqin qilish tendensiyasi kuchaymoqda.

Ushbu nazariy masala qadimgi davrlardan boshlab falsafa, huquqshunoslik va siyosatshunoslik fanlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Aristotel [1], T. Gobbs [2], G. Grotsiy [3] singari qadimgi va o'rta asr mutafakkirlaridan tortib G.V.F. Hegel [4], A. Gramshi [5], M. Veber [6], J. Bodriyyar [7] kabi klassik davrga mansub olimlarga o'z asarlarida davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarining turli jihatlarini yoritib berishgan.

Ularning asarlarida fuqarolik jamiyatining mohiyati, tuzilishi, funksiyalari kabi masalalar o'rganilgan.

Fransuz faylasufi Maykl Fukoning fikricha, hokimiyat faqat davlat tomonidan amalga oshiriladigan kuch emas, balki jamiyatning turli darajalarida mavjud bo'lgan munosabatlar tizimidir. Fuko "biohokimiyat" va "hukmronlik" (governmentality) tushunchalarini kiritib, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni nazorat va boshqaruv texnologiyalari orqali tahlil qilgan. Uning nazariyasiga ko'ra, zamonaviy davlatlar fuqarolarni bevosita majburlash emas, balki o'zini o'zi boshqarish (self-governance) mexanizmlari orqali boshqaradi [8]. Fukoning yondashuvi ushbu maqolada keltirilgan davlat-fuqarolik jamiyati munosabatlarini an'anaviy tushunishdan tubdan farq qiladi, chunki u davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi aniq chegaralarni inkor etadi. Bu nazariya zamonaviy "yumshoq kuch" va raqamli nazorat texnologiyalari sharoitida davlat-jamiyat munosabatlarini tahlil qilishda muhim.

Zamonaviy davrda esa davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar nazariyasi rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan N.N. Alekseyev davlat nazariyasining G'arbiy Yevropa tajribasiga asoslanganligini tanqidiy tahlil qilgan [9]. M.N. Marchenko fuqarolik jamiyati tushunchasi hali to'liq aniqlanmagani ta'kidlab o'tgan [10]. A.G. Golovin davlat va fuqarolik jamiyatini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish lozimligini asoslab bergan [11]. A.Y. Mamichev va M.V. Vronskayalar davlat hokimiyatini kompleks ijtimoiy-madaniy va siyosiy-huquqiy hodisa sifatida o'rganish zarurligini ta'kidlaganlar [12]. M.I. Suxodolov esa mahalliy boshqaruv organlarining innovatsion rivojlanishdagi rolini tadqiq etgan [13].

Zamonaviy sharoitlarda davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etgan yirik tadqiqotlar orasida M. Kochning "State-civil society rela-

tions in Gramsci, Poulantzas and Bourdieu: Strategic implications for the degrowth movement” [14] (2022) asari alohida ajralib turadi. M. Koch ushbu tadqiqotida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida Gramshi, Pulantzas va Burde nazariyalarining solishtirma tahlilini keltirgan. Muallif ushbu nazariyalarning asosiy g'oyalarini umumlashtirib, post-o'sish harakati uchun strategik ahamiyatga ega xulosalarni shakllantiradi. Xususan, davlat va fuqarolik jamiyati o'zaro bog'liq ekanligi, ularning ichki tuzilishi murakkab va ziddiyatli ekanligi ta'kidlanadi” [14].

Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni tushuntirishda Gramshi, Pulantzas va Burde nazariyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariyalarning har biri o'ziga xos yondashuvni taklif etsa-da, ular zamonaviy davlatlarning boshqaruv amaliyotida turli darajada namoyon bo'lmoqda. Qayd etish zarurki, zamonaviy sharoitlarda davlatlar mazkur nazariyalarning turli jihatlarini o'z huquqiy tizimi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirib qo'llamoqda.

Gramshi nazariyasining asosiy g'oyasi “integral davlat” tushunchasi bo'lib, unga ko'ra, fuqarolik jamiyati siyosiy jamiyat tomonidan o'rab olingan [5]. Bu nazariya gegemoniya tushunchasiga tayanadi, ya'ni hukmron sinf ko'proq rozilik orqali boshqaradi. Zamonaviy davlatlarda bu g'oyaning namoyon bo'lishini bir qancha misollarda ko'rish mumkin. Jumladan, AQShda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, analitik markazlar (think tanks) va nodavlat tashkilotlari (NGO) orqali siyosiy qarorlarga ta'sir o'tkazish amaliyoti keng tarqalgan [15]. Fransiyada intellektuallar va madaniyat arboblarning siyosiy hayotdagi faol ishtiroki Gramshi nazariyasining amaldagi ifodasi sifatida qaralishi mumkin [16]. Yaponiyada korporativ madaniyat orqali ijtimoiy konsensusni shakllantirish usullari ham Gramshi g'oyalariga mos keladi [17].

Pulantzas nazariyasi davlatni ijtimoiy kuchlar “kondensatsiyasi” sifatida ko'radi va

uning “ichki” va “tashqi” tomonlari mavjudligini ta'kidlaydi [18]. Bu nazariya davlat va fuqarolik jamiyatining o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratadi. Zamonaviy davlatlarda bu nazariyaning qo'llanishi quyidagi misollarda aniqroq namoyon bo'ladi. AQShda federal, shtat va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi murakkab munosabatlar, shuningdek, lobbizm tizimi orqali turli ijtimoiy kuchlarning davlat siyosatiga ta'siri Pulantzas nazariyasiga mos keladi [19]. Fransiyada esa markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasidagi muvozanat hamda ijtimoiy harakatlarning davlat siyosatiga ta'siri (masalan, “sariq nimchalilar” harakati) Pulantzas g'oyalarining amaldagi ifodasidir [20]. Yaponiyada byurokratiya, siyosiy partiyalar va yirik biznes o'rtasidagi murakkab munosabatlar (“temir uchburchak”) hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'ziga xos roli Pulantzas nazariyasiga mos keladi [21].

Burde nazariyasi esa “fuqarolik jamiyati” tushunchasini rad etib, uning o'rniga “maydonlar” tushunchasini taklif etadi. U davlatni “metamaydon” sifatida talqin qiladi va simvolik kapital hamda hukmronlik g'oyalariga tayanadi [22]. Zamonaviy davlatlarda bu nazariyaning elementlarini ayrim davlatlar tajribasida uchratish mumkin. AQShda siyosiy maydonda simvolik kapitalning ahamiyati (masalan, nufuzli universitetlar diplomi) va ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy ramzlarni yaratish hamda tarqatish amaliyoti Burde nazariyasiga mos keladi [23]. Fransiyada elita maktablari (Grandes Écoles) tizimi orqali davlat apparatini shakllantirish va milliy ramzlarda an'analarga katta e'tibor qaratish Burde nazariyasining amaldagi ifodasidir [24]. Yaponiyada ijtimoiy kapitalning ahamiyati (shaxsiy aloqalar tarmog'i – “keyretsu”) va an'anaviy qadriyatlar hamda zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali davlat imijini shakllantirish usullari Burde g'oyalariga mos keladi [25].

Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlari tomonidan 2004-yil 29-oktabrda imzolangan yangi Yevropa Konstitutsiyasining [26] kelajakdagi Yevropa Ittifoqi boshqaruvining muhim elementi sifatida I-47-moddasida ishtirokchi demokratiya (participatory democracy) tushunchasi kiritildi [27]. Unga ko'ra, davlat institutlari fuqarolar va jamoat tashkilotlari bilan muntazam muloqot olib borishi, ularning fikrlarini eshitishi va maslahatlashishi lozim. Bu yondashuv Yevropa Ittifoqi boshqaruvida fuqarolik jamiyatining ishtirokini kengaytirishga qaratilgan. Maqsad qarorlar qabul qilish jarayonini yanada shaffof va demokratik qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini oshirishdir [28].

Ayrim mualliflar tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarini shaharni strategik boshqarishga ham jalb qilish zarurligi ta'kidlangan. Xususan, jamoatchilik maslahatchilari institutidan foydalanish, doimiy ishchi guruhlar tuzish va "jamoatchilik loyihalashtirish" kabi yangi usullarni joriy etish taklif etilgan. "Shahar va tumanlarni strategik boshqarish jarayoniga fuqarolik jamiyatini jalb etishning asosiy vositasi jamoatchilik maslahatchilari instituti bo'lishi mumkin, u o'zining moslashuvchanligi tufayli ijro hokimiyati va fuqarolik jamiyati o'rtasida o'zaro hamkorlikning turli shakllarini yaratish va joriy etish imkoniyatiga ega" [29]. Haqiqatan, shaharlarni boshqarish jarayoniga ushbu yondashuvlarni qo'llash orqali aholining qaror qabul qilish jarayonida ishtirokini ta'minlash, ijtimoiy keskinlikni pasaytirish va fuqarolik jamiyatining ijro funksiyalarini qisman bajarishga imkon yaratilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy davlatlar boshqaruvida Gramshi, Pulantzas va Burde nazariyalarining turli elementlari uyg'unlashgan holda namoyon bo'lmoqda. Bu esa davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, neolib-

ral yondashuvlarning ustunligi sababli ushbu nazariyalarning to'liq amalga oshishi hali ham cheklangan.

O'zbekiston tajribasi va xalqaro kontekstda ushbu masalaning metodologik asoslariga e'tibor qaratsak, O'zbekiston sharoitida davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishda D.Z. Ernazarovning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ta'kidlashicha, "xalqaro nodavlat tashkilotlarning O'zbekistondagi faoliyati asosan demokratik institutlarni shakllantirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish kabi yo'nalishlarga qaratilgan" [30]. Shu bilan birga, "ba'zi tashkilotlar mam-lakat ichki ishlariga aralashishi, vaziyatni be-qarorlashtirishga urinishlari sababli ularning faoliyati to'xtatilgani" [30] ham ko'rsatilgan. Bu ma'lumotlar O'zbekistonda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat bilan munosabatlardagi funksiyalarini tahlil qilishda T. Paffenholz va C. Spurr tadqiqotlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning ta'kidlashicha, "fuqarolik jamiyati tinchlikni qurishda muhim rol o'ynaydi, ammo uning samaradorligi bir qator omillarga bog'liq" [31]. Jumladan, "fuqarolik jamiyatining turli funksiyalari turli bosqichlarda turlicha samara berishi, davlat bilan hamkorlik zarurligi, fuqarolik jamiyati tashkilotlari tarkibi va vakillik darajasi muhimligi" [31] qayd etilgan.

Merk va Laut tadqiqotlarida fuqarolik jamiyatining beshta asosiy funksiyasi ajratib ko'rsatilgan: "himoya, vositachilik, ijtimoiylashuv, jamoat qurilishi va kommunikatsiya" [32]. Edvards esa fuqarolik jamiyatining uchta asosiy rolini ta'kidlagan: "uyushma hayoti, yaxshi jamiyat va jamoat sohasi" [33]. Bu nazariy yondashuvlar davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning funksional jihatlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokining ahamiyati to'g'risida N.G. Lomova va O.I. Milodanovlar muhim fikrlarni ilgari surganlar. Ularning ta'kidlashicha, "Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari faoliyatida ishtirok etishi jamiyatdagi kayfiyatlar haqida muhim ma'lumot manbayi bo'lib, davlat uchun qo'llab-quvvatlash vazifasini bajarishga xizmat qiladi" [34]. Bu fikrlar fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvidagi monitoring va axborot taqdim etish funksiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Hokimiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasida bevosita muloqot shakllarini rivojlantirish haqida fikr bildirar ekan, A.A. Xomenok: "Hokimiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasida bevosita muloqot shakllarini rivojlantirish ham muhimdir, bular professional muloqot uchun ishbilarmonlik tadbirlari, ijodiy uchrashuvlar, fuqarolarni jalb qilgan holda dolzarb muammolar bo'yicha ochiq munozaralar bo'lishi mumkin" [35], – deb ko'rsatib o'tadi. "Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida muvozanat va o'zaro nazorat zarur. Fuqarolik jamiyati davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, davlat esa fuqarolik jamiyatining destruktiv harakatlarini cheklashi kerak" [36].

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqotlar asosida xulosa qilish mumkinki, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning nazariy-huquqiy tabiati va konseptual asoslarini o'rganishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular ushbu munosabatlarning huquqiy, institutsional, funksional va kontekstual jihatlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan nazariyalar davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning nazariy-huquqiy tabiatini tushunishda muhim qo'shimcha istiqbollarni taklif etadi. Yuqoridagi ilmiy qarashlar va nazariyalar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar faqat huquqiy yoki siyosiy jihatlar bilan cheklanmaydi. Bu munosabatlarning madaniy, kommunikativ, simvolik va diskursiv jihatlar ham muhim rol o'ynaydi.

2. Zamonaviy nazariyalar davlat va fuqarolik jamiyatini qat'iy ajratish emas, balki ularni o'zaro ta'sir qiluvchi, chegaralari doimo o'zgarib turuvchi tizimlar sifatida ko'rsatadi.

3. Fuqarolik jamiyatining davlat bilan munosabatlardagi funksiyalari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: davlat hokimiyatini cheklash, jamoatchilik muhokamasini tashkil etish, ijtimoiy kapitalni shakllantirish, xavflarni boshqarishda ishtirok etish.

4. Globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarning transmilliy jihatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

5. Demokratik jamiyatlarda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar ziddiyatlar mavjudligini inkor etmaydi, ammo bu ziddiyatlarni demokratik tartibda hal qilish mexanizmlarini taklif etadi.

Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarning zamonaviy kontekstda rivojlanish xususiyatlarini o'rganishda O.N. Miroshnichenko va M.S. Mixaylovalarning tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o'rtasidagi samarali hamkorlikning ahamiyati to'g'risida: "Fuqarolik jamiyati bugungi kunda tashkiliy va notashkiliy guruhlarining keng va dinamik spektrini o'z ichiga oladi, yangi fuqarolik jamiyati subyektlari sektorlar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qilmoqda va yangi tashkiliy shakllarni sinovdan o'tkazmoqda" [37], – deb ta'kidlaydilar. Bu fikr zamonaviy fuqarolik jamiyatining transformatsion xususiyatlarini va uning davlat bilan munosabatlarda yangi konfiguratsiyalarni shakllantirayotganini ko'rsatadi.

Tahlil qilish joizki, mazkur yondashuv "davlat va fuqarolik jamiyatini binar oppo-

zitsiya sifatida emas, balki dialektik o'zaro to'ldiruvchi tizim sifatida talqin qilish" konsepsiyasiga to'la mos keladi. Binobarin, fuqarolik jamiyati subyektlarining "sektorlar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qilish" tendensiyasi davlat-fuqarolik jamiyati dioxotomiya-sining an'anaviy tushunishidan uzoqlashish va ularning o'zaro to'ldiruvchi tabiatini tan olishni ko'rsatadi.

Bu qarashlarni "davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqot mexanizmlarining nazariy-huquqiy tabiatini aniqlash va tegishli institutsional tuzilmalarni takomillashtirish" kontekstida tahlil qilish muhim. PR-texnologiyalar bu munosabatlarning zamonaviy konfiguratsiyalarini shakllantiruvchi muhim vositalardan biri sifatida qaralishi mumkin. Ayniqsa, raqamli kommunikatsiyalar davrida bu texnologiyalar davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqotning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, PR-texnologiyalarning samaradorligi – faqat davlat tomonidan emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ham faol qo'llashga bog'liq. Zamonaviy sharoitlarda davlat organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi konstruktiv muloqotni ta'minlashda PR-texnologiyalar va raqamli kommunikatsiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda.

Davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarining nazariy-huquqiy tabiati va uni tushunish bo'yicha olimlarning tadqiqotlarini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirildi:

Birinchisi, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi tarixiy evolyutsiya jarayonida turli konseptual yondashuvlar asosida takomillashib borgan. Bu yondashuvlar antik davr mutafakkirlaridan tortib postmodern nazariyotchilargacha bo'lgan keng ko'lamdagi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Zamonaviy davrda bu munosabatlar binar oppozitsiya sifatida emas, bal-

ki dialektik o'zaro to'ldiruvchi tizim sifatida talqin qilinishi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchisi, qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Gramshi, Pulantzas va Burde konsepsiyalarining turli elementlari zamonaviy davlatlar boshqaruv amaliyotida uyg'unlashgan holda namoyon bo'lmoqda. Bu esa davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarining murakkab va ko'p qirrali tabiatidan dalolat beradi.

Uchinchisi, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqot mexanizmlarining samaradorligi – faqat huquqiy-siyosiy emas, balki kommunikativ va ramziy jihatlariga ham bog'liq. PR-texnologiyalari raqamli kommunikatsiyalar va maslahat institutlari bu munosabatlarning zamonaviy vositalari sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

To'rtinchisi, demokratik jamiyatlarda davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlarida ziddiyatlar muqarrar, biroq bu ziddiyatlarni demokratik tartibda hal qilish mexanizmlarini rivojlantirish zamonaviy konstitutsiyaviy davlatchilikning muhim shartidir.

Beshinchisi, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikning yangi integratsion modellarini ishlab chiqish zarur. Bu model ishtirokchi demokratiya prinsiplariga asoslanib, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash, qarorlar qabul qilish jarayonining shaffofligini oshirish va davlat-fuqaro muloqotining institutsional mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar dialektikasi zamonaviy demokratik davlatchilik rivojlanishining muhim omili bo'lib, ushbu munosabatlarning nazariy-huquqiy tabiatini chuqur anglash va tegishli institutsional tuzilmalarni takomillashtirish orqali jamiyat boshqaruvining samarali modelini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

REFERENCES

1. Dovatura A.I. Politika Aristotelya [Aristotle Politics]. Moscow, Thought Publ., 1983, p. 830.
2. Gobbs T. Leviatan, ili Materiya, forma i vlast' gosudarstva tserkovnogo i grazhdanskogo [Leviathan, or Matter, Form and Power of the Ecclesiastical and Civil State]. V.V. Sokolov (Ed.). Moscow, Thought Publ., 1991, p. 731.
3. Grotsiy G. O prave voyny i mira: Tri knigi, v kotorykh ob"yasnyayutsya yestestvennoye pravo i pravo narodov, a takzhe printsipy publichnogo prava [On the Law of War and Peace: Three Books in Which the Law of Nature and the Law of Nations, and the Principles of Public Law, are Explained]. Moscow, Ladomyr Publ., 1994, p. 868.
4. Gegel' G.V.F. Filosofiya prava [Philosophy of Law]. Moscow, Thought Publ., 1990, p. 524.
5. Gramshi A. Tyuremnyye tetradi [Prison notebooks]. Moscow, Politizdat Publ., 1991, p. 560.
6. Veber M. Khozyaystvo i obshchestvo: ocherki ponimayushchey sotsiologii [Economy and Society: Essays on Understanding Sociology]. Moscow, Higher School of Economics Publ., 2016, p. 445.
7. Bodriyyar Zh. Obshchestvo potrebleniya. Yego mify i struktury [Consumer society. Its myths and structures]. Moscow, Republic; Cultural Revolution Publ., 2006, p. 269.
8. Fuko M. Nadzirat' i nakazyvat': Rozhdeniye tyur'my [Discipline and Punish: The Birth of Prison]. Moscow, Ad Marginem Publ., 1999, p. 480.
9. Alekseyev N.N. Sovremennoye polozheniye nauki o gosudarstve i yeye blizhayshiye zadachi [The current state of the science of state and its immediate tasks]. Moscow, Agraf Publ., 1998, pp. 386–624.
10. Marchenko M.N. Sootnosheniye grazhdanskogo obshchestva i gosudarstva: voprosy teorii [The Relationship between Civil Society and the State: Theoretical Issues]. *Journal of Russian Law*, 2008, vol. 10, pp. 52–64.
11. Golovin A.G. O vzaimosvyazi grazhdanskogo obshchestva i publichnoy vlasti v kontekste kontseptsii delegirovaniya vlasti narodom [On the relationship between civil society and public authority in the context of the concept of delegation of power by the people]. *Lex Russica*, 2022, vol. 5, pp. 71–88.
12. Mamychev A.Yu., Vronskaya M.V. Sotsiokul'turnyye traditsii i sovremennyye napravleniya issledovaniy publichnoy vlasti [Sociocultural traditions and modern directions of public authority research]. *Economy and Management*, 2016, vol. 4(17), pp. 440–443.
13. Sukhodolov M.I. Vzaimodeystviye organov mestnogo samoupravleniya i sub"yektov innovatsionnoy deyatel'nosti v naukogradakh [Interaction between local governments and innovation entities in science cities]. *Bulletin of St. Petersburg State University*, ser. 14: Law, 2016, vol. 1, pp. 53–62.
14. Koch M. State-civil society relations in Gramsci, Poulantzas and Bourdieu: Strategic implications for the degrowth movement. *Ecological Economics*, 2022, vol. 193, p. 107275. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0921800921003347>
15. Domhoff G.W. Who Rules America? Power and Politics in the Year 2006. McGraw-Hill, 2005.
16. Drake D. Intellectuals and Politics in Post-War France. Palgrave Macmillan, 2002.
17. Pharr S.J., Krauss E.S. Media and Politics in Japan. University of Hawaii Press, 1996.
18. Poulantzas N. State, Power, Socialism. London, NLB, 1978.
19. Grossmann M. The Not-So-Special Interests: Interest Groups, Public Representation, and American Governance. Stanford University Press, 2012.
20. Nez H. Podemos: The Political Upstart Taking Spain by Force. Pluto Press, 2020.
21. Krauss E.S., Pekkanen R. The Rise and Fall of Japan's LDP: Political Party Organizations as Historical Institutions. Cornell University Press, 2011.
22. Burd'ye P. O gosudarstve: kurs lektsiy v Kollezhe de Frans (1989–1992) [On the State: Lecture Course at the Collège de France (1989–1992)]. Moscow, Case Publ., 2016.
23. Kreiss D. Taking Our Country Back: The Crafting of Networked Politics from Howard Dean to Barack Obama. Oxford University Press, 2012.

24. Bourdieu P. *The State Nobility: Elite Schools in the Field of Power*. Stanford University Press, 1996.
25. Ogasawara Y. *Office Ladies and Salaried Men: Power, Gender, and Work in Japanese Companies*. University of California Press, 1998.
26. Treaty establishing a constitution for Europe, OJ C 310, 2004.
27. Commission of the European Communities (2002) 'Report from the Commission on European Governance', COM(2002) 705, Brussels, 2002, note 1, p. 8.
28. Obradovic D. Civil Society and the Social Dialogue in European Governance. In P. Eeckhout (Ed.). *Law of the European Union*. Oxford, Oxford University Press, 2006, p. 261.
29. Popov A.V., Zavalin V.G., Lonshakov O.D. Rol' grazhdanskogo obshchestva v strategicheskoy upravlenii gorodom [The Role of Civil Society in Strategic Urban Management]. *Meridian*, 2021, vol. 2(55), pp. 1–11.
30. Ernazarov D.Z. Analysis of the Policy of the Republic of Uzbekistan Regarding International Non-governmental Organization. *Journal of Political Science and International Relations*, 2020, vol. 3, no. 1, pp. 9–15.
31. Paffenholz T., Spurk C. Civil Society, Civic Engagement, and Peacebuilding. *Social Development Papers: Conflict Prevention and Reconstruction*, Paper No. 36. Washington, DC: World Bank 2006.
32. Merkel W., Lauth H. System Change and Civil Society. What kind of civil society does democracy need? *Politics and Contemporary History*, 1998, vol. 6 (7), pp. 3–12.
33. Edwards M. *Civil Society*. Cambridge, Polity Publ., 2004.
34. Lomova N.G., Milodanova O.I. Dialog grazhdanskogo obshchestva i vlasti: problemy vzaimodeystviya [Dialogue between civil society and government: problems of interaction]. *Altai Bulletin of State and Municipal Service*, 2021, vol. 19, pp. 27–29.
35. Khomenok A.A. Sovershenstvovaniye vzaimodeystviya organov vlasti s institutami grazhdanskogo obshchestva [Improving the interaction of government bodies with civil society institutions]. *Alley of Science*, 2020, vol. 6(45), p. 10.
36. Bochkareva D.S., Lukin A.N. Vzaimosvyaz' gosudarstva, grazhdanskogo obshchestva i prava [The relationship between the state, civil society and law]. *History, Theory and Practice of State and Municipal Administration*, 2024, pp. 36–39.
37. Miroshnichenko O.N., Mikhaylova M.S. Vzaimodeystviye institutov grazhdanskogo obshchestva i sredstv massovoy informatsii s organami vlasti [Interaction of civil society institutions and mass media with government bodies]. *Bulletin of the Cheboksary branch of the Russian Presidential Academy of National Economy and Public Administration*, 2020, vol. 2(21), pp. 18–28.

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./MFEU4662

UDC: 347.9(045)(575.1)

KONSTITUTSIYAVIY SUDLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: IMKONIYATLAR VA XAVFLAR

Nurmamatova Noila Doniyorovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0000-0001-5093-0300

e-mail: nurmamatovanoila@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konstitutsiyaviy sud ish yurituvida raqamlashtirish jarayonining nazariy asoslari, xalqaro tajribasi va milliy huquqiy amaliyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif raqamli texnologiyalar, xususan, "e-Court", "smart court" tizimlari va chatbot xizmatlari orqali sudlov faoliyatining tezkorligi, shaffofligi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy shikoyat qilish huquqini samarali ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini ochib beradi. Tadqiqotda raqamli transformatsiyaning sudlovdagi shaffoflik, tezkorlik va kirishuvchanlikni ta'minlashdagi o'rni baholanadi. Xorijiy olimlarning qarashlari asosida raqamlashtirishning ijobiy va salbiy jihatlari – sudlovga kirishishdagi soddalik, lekin ayni paytda raqamli tafovut va protsessual noaniqlik kabi xavflar tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada raqamli tafovut, protsessual tenglikka tahdid, inson omilining zaiflashuvi, texnologik ishonchsizlik, shaxsiy hayot daxlsizligining buzilishi kabi xavf va cheklovlar ham atroflicha yoritilgan. Turli davlatlar, jumladan, Indoneziya, Janubiy Koreya, Fransiya va Niderlandiya tajribasi asosida raqamli transformatsiya inson huquqlarini mustahkamlashi yoki, aksincha, ularni cheklab qo'yishi mumkinligi ko'rsatilgan. Muallifning asosiy xulosasiga ko'ra, konstitutsiyaviy sudlarda raqamlashtirish inson markazida tashkil etilishi va demokratik huquqiy davlat tamoyillariga mos keladigan ijtimoiy inklyuziv yondashuv asosida olib borilishi zarur.

Kalit so'zlar: "e-Court", chatbot, "smart court", ijtimoiy inklyuzivlik, videokonferensiya, inson omili, protsessual tenglik

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНСТИТУЦИОННЫХ СУДАХ: ВОЗМОЖНОСТИ И РИСКИ

Нурмаматова Ноила Дониёровна,

базовый докторант

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы процесса цифровизации конституционного судопроизводства, анализируется международный опыт и оценивается роль цифровых технологий в национальной правоприменительной практике. Автор раскрывает возможности использования цифровых решений, таких как системы e-Court, smart court и чат-боты, для повышения оперативности, прозрачности и эффективности рассмотрения дел, а также обеспечения реализации права граждан на подачу конституционной жалобы. В исследовании оценивается значение цифровой трансформации для обеспечения прозрачности, оперативности и доступности конституционного правосудия. На основе анализа зарубежных

научных работ выявлены как позитивные, так и негативные стороны цифровизации: упрощение доступа к правосудию, с одной стороны, и угрозы цифрового неравенства и процессуальной неопределённости – с другой. Отдельное внимание уделено анализу рисков и ограничений, связанных с внедрением цифровых технологий: угрозы процессуальному равенству, ослабление человеческого фактора, технологическая ненадёжность, нарушение неприкосновенности частной жизни и проблемы доверия к цифровым платформам. Рассмотрены примеры практики Индонезии, Южной Кореи, Франции и Нидерландов, демонстрирующие, что цифровая трансформация может как способствовать укреплению прав человека, так и создавать угрозу их ограничения. Согласно основному выводу автора, цифровизация деятельности конституционных судов должна быть ориентирована на человека и реализовываться на основе социально инклюзивного подхода, соответствующего принципам демократического правового государства.

Ключевые слова: e-Court, чат-бот, smart court, социальная инклюзивность, видеоконференция, человеческий фактор, процессуальное равенство

DIGITAL TRANSFORMATION IN CONSTITUTIONAL COURTS: OPPORTUNITIES AND RISKS

Nurmamatova Noila Doniyorovna,

Basic doctoral student at Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the digitalization process in constitutional court proceedings, international experience, and its role in national legal practice. The author reveals the possibilities for the efficiency and transparency of judicial activity, as well as the effective implementation of citizens' constitutional right to appeal through digital technologies, in particular, "e-Court," "smart court" systems, and chatbot services. The study assesses the role of digital transformation in ensuring transparency, efficiency, and accessibility in court proceedings. Based on the views of foreign scientists, the positive and negative aspects of digitalization are analyzed—ease of access to justice, but at the same time such risks as digital difference and procedural uncertainty. At the same time, the article comprehensively covers such risks and limitations as the digital divide, threats to procedural equality, weakening of the human factor, technological insecurity, and violation of privacy. Based on the experience of various countries, including Indonesia, South Korea, France, and the Netherlands, it has been shown that digital transformation can strengthen human rights or, conversely, limit them. According to the author's main conclusion, digitalization in constitutional courts should be organized at the center of the individual and carried out on the basis of a socially inclusive approach that corresponds to the principles of a democratic legal state.

Keywords: e-Court, chatbot, smart court, social inclusion, videoconference, human factor, procedural equality

Kirish

So'nggi yillarda raqamlashtirish davlat boshqaruvi va sud tizimlarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ushbu jarayon demokratik jamiyatlarda shaffoflikni ta'minlash, fuqarolarning davlat organlari bilan muloqotini kuchaytirish, sudlov faoliyatini tezkor va ishonchli amalga oshirish kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Ayniqsa, konstitutsiyaviy nazorat

organlari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy shikoyat qilish huquqini amalga oshirishda samaradorlik ortmoqda.

Raqamlashtirish konstitutsiyaviy sud ish yuritishida huquqiy muhitni soddalashtirish, fuqarolarning huquqiy yordamga tezkor murojaatini ta'minlash va adolatga erkin kirishni kuchaytirish imkonini beradi. Dastlab Yev-

ropa Ittifoqi va Osiyo davlatlarida sinovdan o'tkazilgan "e-Court" va "smart court" modelarining samarali natijalari O'zbekiston Respublikasida ham mazkur yo'nalishda islohotlar zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-moddasida axborot izlash va olish huquqi, 55-moddasida esa buzilgan huquqlarni sud orqali tiklash kafolatlangani raqamli sud xizmatlari orqali bu konstitutsiyaviy kafolatlarni ro'yobga chiqarish zaruratini oshiradi.

Ushbu maqolani tayyorlashda huquqiy-tahliliy, solishtirma-huquqiy, empirik va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Birinchidan, huquqiy-tahliliy metod orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining amaldagi normalari, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ikkinchidan, solishtirma-huquqiy yondashuv yordamida Indoneziya, Janubiy Koreya va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari konstitutsiyaviy sud tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribalari o'rganildi.

Shuningdek, empirik metod asosida xalqaro manbalarda e'lon qilingan faktik ma'lumotlar – sudlarga murojaat qilish tezligi, chatbotlar orqali xizmat ko'rsatish samaradorligi, onlayn ariza topshirish statistikasi – asosida tahlil qilindi. Nihoyat, tizimli yondashuv yordamida raqamlashtirishning konstitutsiyaviy sud ish yuritishidagi o'рни kontekstda – demokratik tamoyillar, sud adolati va fuqarolik ishtirokchilik bilan uyg'unlikda baholandi.

Asosiy qism

Konstitutsiyaviy sud ish yuritishida raqamlashtirish va masofaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy hamjamiyatda turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi olimlar bu jarayonni demokratik institutlarning qulayligi va shaffofligi bilan bog'liq holda olqishlasa, boshqalar uni protsessual xavflar nuqtayi nazaridan ehtiyotkorlik bilan baholaydi.

Masalan, A. Sanders Yevropa davlatlaridagi videokonferensaloqa amaliyotlarini tahlil

qilar ekan, bu texnologiya pandemiya davrida adolatga erishishda muhim vosita bo'lganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, virtual ishtirok shakli sudlov adolatini pasaytirmaydi, aksincha uni qulaylashtiradi va tezlashtiradi [1, 4-b.]. Bunga qarshi nuqtayi nazar sifatida, E.Schulz konstitutsiyaviy sud jarayonlarida raqamlashtirish ortidan yuzaga keladigan protsessual tenglik muammolariga e'tibor qaratadi. U ayrim qatlamlar, xususan, texnologik jihatdan qamrab olinmagan fuqarolar bu jarayondan chetda qolishi mumkinligini ta'kidlaydi [2, 309-b.].

A. Fauzan esa Indoneziya Konstitutsiyaviy sudida "e-Court" tizimi va raqamli islohotlar joriy etilishi natijasida fuqarolar murojaatlarining soni ortgani, sudga murojaat qilish jarayonining soddalashtirish hamda onlayn tizimlar orqali qulayliklar yaratilgani kabi amaliy faktlarga tayangan holda xulosalar bergan [3, 7-b.]. Yana bir olim Jongmun Park o'z tadqiqotida Koreya, Malayziya va boshqa Osiyo konstitutsiyaviy sudlari tajribasini o'rganib, raqamlashtirish inson huquqlarining zamonaviy kafolati sifatida namoyon bo'layotgani haqida so'z yuritgan [4, 4–5-b.].

Yevropalik huquqshunoslar Bronzini, Gori va Pahladsingh esa konstitutsiyaviy adolat sohasida raqamlashtirish yurisdiksiyaviy soddalikni yaratgani, biroq sud muhokamalarida bevosita ishtirokning o'rnini to'liq bosa olmasligini tan olishadi. Ayniqsa, inson shaxsi va ifoda erkinligi bilan bog'liq masalalarda bu noziklik alohida ahamiyat kasb etadi [5, 7-b.].

Demak, konstitutsiyaviy sudda ish yuritish jarayonini raqamlashtirish va soddalashtirish bo'yicha yuqoridagi olimlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, bu borada fikrlar xilma-xil va o'zining asoslariga ega. Shunday bo'lsa-da, raqamlashtirish asrida texnologiyalarning konstitutsiyaviy sud ish yurituvini osonlashtirishi va murojaat qiluvchilar uchun qulaylashishi zamon talabi hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy sud ish yuritishida raqamlashtirish faqat jarayonni tezlashtirish yoki qulaylashtirish vositasi emas, balki ijti-

moiy tenglik tamoyilini amalda ta'minlovchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Texnologik qulayliklar barcha ijtimoiy guruhlar – shahar va qishloq aholisi, imkoniyati cheklangan shaxslar, ayollar va yoshlar uchun sud tizimiga kirishish imkoniyatlarini tenglashtiradi. Ammo bu imkoniyatlar bilan birga, raqamli tafovut (digital divide) muammolari ham mavjud bo'lib, ular ijtimoiy adolatni buzishi mumkin.

Jongmun Park Janubiy Koreya Konstitutsiyaviy sudida 2021-yildan boshlab joriy etilgan chatbot xizmatlari orqali fuqarolar sud jarayonlari, ariza berish tartibi, muddatlar va protsessual huquqlar haqida 24/7 rejimda ma'lumot olishi mumkinligini aytib o'tadi. Bu esa fuqarolarga nafaqat axborot olish, balki sud jarayonlarida xabardor va faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi [4, 3-b.]. Boshqa tomondan, Heru Okta raqamli texnologiyalarni demokratik adolatning amaliy asosi deb qarar ekan, ular "ijtimoiy inklyuzivlik"ni ta'minlashi lozimligini urg'ulaydi. Uning fikricha, agar raqamli texnologiyalar faqat texnik jihatdan rivojlangan guruhlar uchun moslashtirilsa, bu holda jamiyatda ijtimoiy ajralish (segregatsiya) kuchayadi. Shu bois raqamlashtirish siyosati barcha ijtimoiy qatlamlarni qamrab oluvchi va imkoniyatlar tengligini ta'minlovchi tarzda amalga oshirishi lozim [6, 268-b.].

Ushbu nuqtayi nazar boshqa xalqaro tadqiqotlar bilan ham uyg'unlashadi. Masalan, Yevropa sud tizimlari tajribasida texnologik imkoniyatlardan foydalanish aynan zaif ijtimoiy guruhlar uchun sudlovga kirishishni osonlashtirish vositasi sifatida qaralmoqda. Ya'ni nogironligi bor fuqarolar, chekka hududdagilar va sud zaliga kelishi murakkab bo'lgan shaxslar uchun videokonferensiya va onlayn xizmatlar adolatni real hayotda ta'minlashda muhim rol o'ynaydi [1, 6-b.].

Biroq raqamlashtirishning bu qulayliklari faqat zarur texnologiyaga ega bo'lgan fuqarolar uchun amaliy qiymatga ega. Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti

(OECD) ham sud tizimida raqamli tafovutlarni ijtimoiy adolatga tahdid sifatida ko'radi. Ularning fikricha, texnologik islohotlar jamiyatdagi mavjud tengsizliklarni chuqurlashtirmasligi, aksincha, ularga qarshi yo'naltirilishi kerak [7].

Shuning uchun davlat tomonidan "raqamli inklyuzivlik" siyosatini yuritish, bepul internet punktlari, texnik yordam xizmatlari va huquqiy ma'lumotni tushunarli tilda taqdim etish kabi choralarni ko'rish zarur. Aks holda, texnologik qulayliklar konstitutsiyaviy tenglik emas, balki tengsizlikni chuqurlashtirishi mumkin. BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashi ham raqamli sudlov xizmatlarini inson huquqlariga kirishishda samarali vosita sifatida baholab, ularning inklyuzivlik asosida tashkil etilishini zarur deb hisoblaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, demokratik huquqiy davlatda fuqarolarning teng huquqli ishtirokini ta'minlash uchun muhim [8].

Demak, texnologik qulayliklar va raqamlashtirish konstitutsiyaviy sud faoliyatini zamonaviylashtirishda hal qiluvchi vosita bo'lish bilan birga, ijtimoiy tenglik mezonlariga moslashgan holda joriy etilishi shart. Sudga kirishishdagi ijtimoiy to'siqlarni kamaytirish, barcha guruhlariga teng sharoit yaratish – demokratik jamiyatning konstitutsiyaviy qadriyatlariga mos keladigan yondashuv bo'ladi.

Raqamlashtirish konstitutsiyaviy sud ish yuritishiga samaradorlik, ochiqlik va kirishuvchanlik olib kirgani holda, u bilan bog'liq xavf va muammolar ham mavjud. Bu muammolar texnik, ijtimoiy va huquqiy xarakterga ega bo'lib, agar ular tegishli tarzda boshqarilmasa, sudlov adolatiga putur yetkazishi mumkin. Ayniqsa, texnologik ajratilganlik, protsessual noaniqlik, shaxsiy hayot daxlsizligi va inson omilining cheklanishi kabi jihatlar konstitutsiyaviy tamoyillar bilan ziddiyatga kirishi mumkin.

Birinchi, raqamli notenglik masalasi dolzarb muammo hisoblanadi. Ya'ni raqamlashtirish ijtimoiy tenglikni kuchaytirishdan

ko'ra, mavjud tafovutlarni chuqurlashtirishi mumkin. Masalan, internetga doimiy kirish imkoniyati yo'q shaxslar, texnik vositalar va raqamli savodxonlik yetishmovchiligi tufayli sudlov tizimidan chetda qolish xavfiga duch kelishi mumkin [2, 311-b.].

Ikkinchidan, videokonferensiya orqali o'tkazilayotgan eshituvlarda shaxsiy aloqaning yetishmasligi, emotsional ifodaning cheklanishi va texnik uzilishlar kabi holatlar protsessual tenglikni buzishi mumkin. Bunday sharoitda taraflar sudga ta'sir o'tkaza olmay qoladi, sudya esa taraflarning holatini to'liq anglab yetmaydi. Bu esa sud qarorining adolatililigiga va taraflarning sud tizimiga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [5, 1575–1577-b.].

Uchinchidan, texnologik vositalardan foydalanganda shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligiga tahdid mavjud. Sud jarayonlarida ishlatiladigan videoyozuvlar, elektron dalillar va onlayn aloqalar noto'g'ri boshqarilsa, bu konstitutsiyaviy huquq – shaxsiy hayot daxlsizligini buzish ehtimolini oshiradi. Shu sababdan cheklovlar adolatli, proporsional va konstitutsiyaviy me'yorlarga mos bo'lishi kerak [9, 57–60-b.].

To'rtinchidan, inson omilining kamayishi – sudya va taraflar o'rtasidagi bevosita aloqaning zaiflashuvi – muhim konstitutsiyaviy muammoga aylanishi mumkin. Sud zali nafaqat qaror qabul qilinadigan joy, balki protsessual ishonch va adolat muhitining timsolidir. Texnologik vositalar bu muhitni to'liq qayta yaratolmasligi mumkin. Shu sababli raqamli sud xizmatlarini joriy etishda faqat texnik vositalar bilan cheklanmasdan, madaniy, til va jamoaviy inklyuzivlikni ta'minlash zarur. Aks holda, sudlov adolati yuzaki raqamlashtirish darajasida qolib ketadi [10]. Raqamlashtirishni konstitutsiyaviy sud ish yuritishiga joriy etishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, inson omilini inkor qilmaslik, texnologik vositalarni muqobil emas, balki qo'shimcha vosita sifatida ishlatish muhim hisoblanadi. Shuningdek, bu muammolarga qarshi insti-

tutlararo nazorat, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlovchi texnik choralar va fuqarolar uchun raqamli savodxonlik dasturlarini ke-ngaytirish zarur.

Konstitutsiyaviy sudlarda adolatli sudlov-ga erishishning asosi bo'lgan tamoyillardan biri – protsessual tenglik. Ya'ni barcha taraf-lar teng huquq va imkoniyatlarga ega holda, sud jarayonida o'z pozitsiyasini himoya qi-lish, dalillar keltirish, sudyaga ta'sir o'tkazish va o'z fikrini ifoda etish huquqiga ega bo'lishi lozim. Raqamli texnologiyalarning sud ish yuritishiga joriy etilishi bu tenglik tamoyiliga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, noto'g'ri yoki nomutanosib qo'llanganda, u texnologik ajratilganlik holatini yuzaga kelti-radi.

A. Schulz raqamli ajratilganlikni “za-monaviy ijtimoiy tengsizlikning yangi ko'rinishi” deb ataydi. Uning fikricha, internet tarmog'iga kirish imkoniyati, texnik vositalar mavjudligi, raqamli savodxonlik darajasi va axborot texnologiyalariga bo'lgan ishonch – bularning barchasi fuqarolarning sud tizimi-da teng ishtirok etishlariga bevosita ta'sir qi-ladi. Agar taraflardan biri bu vositalarga ega bo'lmasa yoki foydalanishda qiynalsa, uning sud oldidagi imkoniyatlari cheklanishi mum-kin [2, 11–12-b.]. Masalan, onlayn sud majli-siga kirish uchun yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy qurilma va muqobil aloqa vosita-lari kerak bo'ladi. Aholining barcha qatlam-lari, ayniqsa, yoshi katta, kam ta'minlangan yoki chekka hududda yashovchi fuqarolar bunday imkoniyatlarga ega bo'lmasligi mum-kin. Bu esa ularni konstitutsiyaviy huquq-lardan foydalanish imkoniyatidan mahrum qilishi xavfini tug'diradi.

Shuningdek, Bronzini va boshqalar tomo-nidan olib borilgan tadqiqotda, raqamli sud-lov tizimida protsessual tenglikka ta'sir qiluv-chi omillar sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- texnik uzilishlar (signalning uzilishi, tovush sifatsizligi);
- taraflar orasidagi texnologik savodxon-lik tafovuti;

– sud muhokamasida emotsional ifoda va tana tilining yo'qolishi.

Ularning fikricha, bunday omillar sud jarayonining xolisligini susaytiradi va taraflardan biri nomutanosib holatga tushib qoladi. Shu bois raqamli vositalarni faqat jarayonni qulaylashtiruvchi texnika deb emas, balki protsessual muvozanatga bevosita ta'sir qiluvchi faktor sifatida baholash zarur [5, 1576–1578-b.].

Shu bilan birga, zamonaviy sud tizimlarida raqamli tengsizlikning oldini olish na faqat texnik ta'minot, balki ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash bilan ham chambarchas bog'liq. Xususan, Yevropa Kengashining adliya samaradorligi komissiyasi tomonidan tayyorlangan 2022-yilgi hisobotda ta'kidlanishicha, sudlov tizimida raqamli vositalarni joriy etishda fuqarolarning turli ijtimoiy qatlamlari, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar, til to'siqlari bo'lgan guruhlar, raqamli savodxonlik darajasi past aholining ehtiyojlari inobatga olinishi shart. Aks holda, bu guruhlar uchun sudga teng kirish imkoniyati buziladi, bu esa protsessual tenglik prinsipining buzilishiga olib keladi. Shu sababli ko'plab davlatlar sud majlislarining raqamli formatini an'anaviy shakllar bilan uyg'unlashtirishni tanlamoqda. Masalan, Fransiya va Niderlandiya tajribasida onlayn tinglovlarga parallel ravishda sud binosida texnik yordam nuqtalari tashkil etilgan bo'lib, ular fuqarolarga texnik xizmatlar, tarjima yoki maxsus ko'mak taklif etadi. Bu kabi yondashuvlar raqamli transformatsiyaning ijtimoiy adolatga mos yo'l bilan olib borilishini ta'minlaydi [8, 23–26-b.].

Demak, protsessual tenglikni ta'minlash uchun raqamlashtirish jarayonlari ijtimoiy adolat mezonlari asosida qurilishi shart. Davlat tomonidan texnologik infratuzilma rivojlantirilib, fuqarolarni raqamli savodxonlikka o'rgatish, shuningdek, sud jarayonlarini har ikki shaklda – raqamli va an'anaviy usulda qo'llash imkoniyati saqlab qolinishi lozim.

Konstitutsiyaviy sud ish yuritishida adolatning ta'minlanishi faqat sud qarori chiqarilishi bilan emas, balki mazkur qarorning taraflar tomonidan tushunilishi, qabul qilinishi va sud tizimiga bo'lgan ishonchning shakllanishi bilan bog'liq murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda inson omili, ya'ni sudya, advokat va taraflarning bevosita mulqoti, tana tili (body language) emotsional muhit va muomala madaniyati kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar bu omillarni qisman yo'qotib, sudlov adolatini mexanizatsiyalash xavfini tug'diradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, sud jarayonida inson omilining kamayishi natijasida yuzaga keladigan muammolar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- videokonferensiya orqali o'tkazilgan sud majlislarida sudyalarning taraflarga bo'lgan insoniy munosabatida sovuqlik sezilishi;
- taraflar o'z fikrini erkin va tabiiy ifoda etishda qiynalishi;
- sud muhokamasining norasmiy, biroq muhim jihatlari (emotsional tushunish, mulohaza almashinuvi, ishonch hosil qilish) yo'qolishi.

Olimlar buni “digital procedural detachment” (ya'ni raqamli protsessual ajralish) deb atab, bu holat adolat hissi va sud qarorining ijtimoiy maqbulligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashgan [5, 1577–1578-b.].

Bundan tashqari, A. Sanders ham sudlovda bevosita ishtirokning psixologik va madaniy ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, taraflar sud zalida hozir bo'lib, sudyaning yuzini ko'rish, uning ohangidan xulosa qilishi yoki o'zini eshitilgan deb his qilishi sudlov adolatining psixologik jihatlaridir. Raqamli vositalar bu elementlarni faqat texnik jihatdan aks ettiradi, ammo ularning ma'naviy-ijtimoiy ta'siri pasayadi [1, 7-b.].

Inson omilining yo'qolishi, ayniqsa, konstitutsiyaviy sudlarda keng qamrovli va muhim masalalarni ko'rib chiqishda keskin seziladi. Bu sudlar fuqarolarning asosiy

huquqlari, siyosiy ishtirok, qonunlarning konstitutsiyaviyligi kabi masalalarni hal qiladi. Shunday masalalarda taraflarning sudya bilan bevosita muloqot qilishi, holatini tushuntirishi va hissiy nuqtayi nazardan eshitilganini his qilishi ularning konstitutsiyaviy qanoatlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Shu sababli inson omilini inkor etuvchi har qanday raqamli mexanizm konstitutsiyaviy tamoyillar, ayniqsa, inson qadr-qimmat, eshitalish huquqi va sudlovga ishonch prinsiplariga ziddir. Raqamlashtirish jarayonlari insoniy aloqani to'ldiruvchi, uni kuchaytiruvchi va yordamchi vosita sifatida shakllanishi lozim. Jahon bankining "eJustice" dasturi ham shu yondashuvni ilgari suradi – sud tizimida gi raqamlashtirish faqat texnologik yangilik emas, balki fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshiruvchi madaniy o'zgarishlar bilan hamohang bo'lishi kerak [12].

Xulosa

Konstitutsiyaviy sud ish yuritishiga raqamli texnologiyalarni joriy etish demokratik jamiyatlar uchun zamonaviy talab va zaruratdir. U fuqarolarning sudga murojaat qilish huquqini amalga oshirishda qulaylik, tezlik va shaffoflikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon protsessual tenglik, shaxsiy daxlsizlik va inson omili kabi fundamental konstitutsiyaviy tamoyillar bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi zarur.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirish ijobiy imkoniyatlar bilan birga muayyan xavflarni ham olib keladi. Texnologik vositalarning noto'g'ri joriy etilishi yoki ijtimoiy guruhlar o'rtasida mavjud tafovutlarni inobatga olmaslik adolatga bo'lgan ishonchni zaiflash-

tiradi. Shu sababli konstitutsiyaviy sudlarda raqamli transformatsiyaning markazida inson bo'lishi, texnologiya esa bu markazni quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

Shu munosabat bilan, G. Katsifis raqamli adliya tizimiga sun'iy intellekt va algoritmik vositalarning kirib kelishi konstitutsiyaviy shaffoflik va javobgarlik standartlarini yangidan belgilash zarurligini urg'ulaydi [13, 115-b.]. T. Sourdin esa sud tizimida raqamli samaradorlikni oshirish insoniy omilni inkor qilmasdan amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi [14, 15-b.]. Bundan tashqari, M. Velicogna va F. Contini Yevropa tajribasiga tayangan holda, raqamli transformatsiya ijtimoiy adolatga xizmat qilishi uchun infratuzilma va raqamli yordam xizmatlari bilan uzviy integratsiya qilinishi kerakligini qayd etgan [15, 30-b.].

Konstitutsiyaviy tamoyillarni raqamli asrda saqlab qolish uchun davlatlar quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur: texnologik infratuzilmani kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish, fuqarolar ehtiyojini inobatga olgan moslashtirilgan xizmatlar yaratish va insoniy aloqani muqobil shakllarda tiklash.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish – faqat texnik taraqqiyot emas, balki konstitutsiyaviy adolatga bo'lgan yondashuvning yangilanishi. U fuqarolar ishonchini mustahkamlovchi, adolatli sudlovni ta'minlovchi va demokratik tamoyillarni amalda aks ettiruvchi vosita bo'lishi kerak. Shu maqsadga erishish uchun esa raqamli vositalar ehtiyotkorlik bilan, huquqiy me'yorlarga asoslangan holda va fuqarolar manfaatlari ustuvor bo'lgan holda joriy etilishi lozim.

REFERENCES

1. Sanders A. Video-Hearings in Europe Before, During and After the COVID-19 Pandemic. *International Journal for Court Administration*, 2021, vol. 12(2), pp. 3–10. DOI: 10.36745/ijca.379
2. Schulz E. Fundamental rights under Covid 19: a European perspective. *European Constitutional Review*, 2020, vol. 16(3), pp. 301–320. Available at: <https://link.springer.com/article/10.1007/s12027-020-00643-5>

3. Fauzan A.R. Digitalization of Evidence in the Constitutional Court: Opportunities and Requisite. *Velrev: Vocational Law Review*, 2023, vol. 4(2), pp. 1–11. Available at: <https://ejournal.upnvj.ac.id/Velrev/article/view/4791>
4. Park J. International Short Course of AACC 2023. Makalah presentation, AACC. 2023. Available at: https://en.mkri.id/icjf/public/upload/papers/International%20Short%20Course%20of%20AACC%202023_JONGMUN%20PARK
5. Bronzini G., Gori E., Pahladsingh R. Constitutional Adjudication and Digital Justice: Challenges in Europe. 2021. Available at: <http://www.europeanrights.eu/public/commenti/BRONZINI3-Gori-Pahladsingh>
6. Okta H. Digitalization of Legal Transformation on Judicial Review in the Constitutional Court. *Journal of Human Rights, Culture and Legal System*, 2024, vol. 4(2), p. 268.
7. Bridging the Digital Divide: Include All in the Digital Age. Paris, OECD Publishing. 2022. Available at: <https://www.oecd.org/digital/bridging-the-digital-divide.htm>
8. United Nations Human Rights Council. Digital Justice and Human Rights: Report of the Special Rapporteur. Geneva, UNHRC. 2023. Available at: <https://www.ohchr.org>
9. Mochalov A.N. Digital Transformation of Society in the Mirror of Constitutional Justice in the EAEU Countries. *European and Asian Law Review*, 2024, vol. 7(1), pp. 57–60.
10. United Nations Development Programme (UNDP). Digital Access to Justice for All: Towards Inclusive e-Justice Systems. New York: UNDP. 2021. Available at: <https://www.undp.org>
11. European Commission for the Efficiency of Justice (CEPEJ). Digitalisation of Justice and its impact on access to justice and fair trial. Strasbourg: Council of Europe. 2022. Available at: <https://rm.coe.int/digitalisation-justice-impact-access-fair-trial-cepej-2022/1680a7dd77>
12. World Bank. eJustice: Modernizing Court Services for Citizens. Washington D.C.: World Bank Group. 2022. Available at: <https://www.worldbank.org/en/topic/digitaldevelopment/publication/ejustice>
13. Katsifis G., Digital justice in the age of AI: Constitutional challenges and prospects. *Journal of Law and Technology*, 2021, vol. 19(2), pp. 112–135. DOI: 10.1093/jlt/etab021
14. Sourdin T., Judicial efficiency and the new technology: The challenge for judicial administration. *Law, Technology and Humans*, 2019, vol. 1(1), pp. 8–22. DOI:10.5204/lthj.v1i1.1092
15. Velicogna M., Contini F., Electronic justice: Perspectives from the European experience. *Information and Communication Technology Law*, 2020, vol. 29(1), pp. 15–33. DOI: 10.1080/13600834.2019.1573264

Kelib tushgan / Получено / Received: 15.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./IWAP9633

UDC: 347.211:004(045)(575.1)

RAQAMLI AKTIVLAR TUSHUNCHASINING EVOLYUTSIYASI VA ULARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING QIYOSIY TAHLILI

Yakubov Axtam Nusratulloevich,
Toshkent davlat yuridik
universiteti prorektori,
yuridik fanlar doktori, dotsent
ORCID: 0000-0002-5138-5700
e-mail: akhtam.yakubov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va global iqtisodiyotga integratsiyasining kuchayishi natijasida “raqamli aktivlar” tushunchasi xalqaro huquqiy munosabatlar tizimida markaziy o’rinni egallab borayotgani, ayni paytda raqamli aktivlarning dolzarbligi, raqamli huquqlar tushunchasining xilma-xilligi va raqamli aktivlarni samarali tartibga solishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi, shuningdek, ularni faqat moliyaviy vositalarga bog’lash mumkin emasligi haqidagi nuqtayi nazarlar chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga, muallif maqolada O’zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida raqamli aktivlarni huquqiy tartibga solishda bartaraf etish zarur bo’lgan bo’shliqlar mavjudligi, xususan, O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga “raqamli aktivlar” atamasini aniqlashtirish va kengaytirish, ularning virtual mulk (mulkiy huquqlar) va mulkiy huquqlarga bog’liq virtual shaxsiy nomulkiy ne’matlar va huquqlarga ajratadigan yangi tasnifini joriy etish va ularni huquqiy tartibga solishga doir tegishli o’zgartirishlar kiritish zarurligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada “raqamli huquqlar (raqamli aktiv)”, “raqamli obyekt”, “virtual mulk”, “virtual o’yin mulki” tushunchalarining bir-biridan farqi, raqamli aktivlarni tartibga solish uchun fuqarolik qonunchiligidan foydalanish, shuningdek, blokcheyn texnologiyasi, uning asosida raqamli moliyaviy aktivlarni yaratish, joriy etish va ulardan foydalanish amaliyotini qayd etganda, raqamli moliyaviy aktivlar bajarishi mumkin bo’lgan barcha funksiyalarni hisobga olmasligi tadqiq qilingan. Xulosa qismida muallif tomonidan milliy va xalqaro huquqiy doktrina va tajriba O’zbekiston qonunchiligida raqamli aktivning huquqiy maqomini aniqlashga qaratilgan tahlillar o’tkazilib, milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so’zlar: raqamli aktivlar, kriptoaktiv, blokcheyn, virtual mulk, virtual valyuta, kriptovalyuta, tokenlar

ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ ЦИФРОВЫХ АКТИВОВ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИХ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ

Якубов Ахтам Нусратуллоевич,
доктор юридических наук, доцент,
проректор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В статье рассматривается эволюция понятия «цифровые активы» в контексте стремительного развития современных цифровых технологий и усиления их интеграции в глобальную экономику. Отмечается, что данное понятие постепенно занимает центральное место в системе международных правовых отношений. Проведён глубокий анализ актуальности цифровых активов, многообразия трактовок категории «цифровые права», а также опыта развитых стран по эффективному правовому регулированию данной сферы. Подчёркивается, что цифровые активы не следует рассматривать исключительно как финансовые инструменты, поскольку их правовая природа значительно шире. Автор указывает на наличие правовых пробелов в действующем законодательстве Республики Узбекистан в части регулирования цифровых активов. В частности, подчёркивается необходимость уточнения и расширения содержания термина «цифровые активы», а также введения новой классификации, разделяющей их на виртуальное имущество (имущественные права) и виртуальные личные неимущественные блага и права, связанные с имущественными интересами. В связи с этим предлагается внести соответствующие изменения и дополнения в национальное законодательство для обеспечения комплексного правового регулирования цифровых активов. В статье также проводится анализ различий между такими понятиями, как «цифровые права (цифровой актив)», «цифровой объект», «виртуальное имущество», «виртуальное игровое имущество». Особое внимание уделяется применению норм гражданского законодательства для регулирования цифровых активов и исследованию возможностей и ограничений использования технологии блокчейн. Автор рассматривает вопросы создания, внедрения и использования цифровых финансовых активов на основе блокчейна, отмечая, что существующая правоприменительная практика не учитывает все потенциальные функции данных активов. В заключительной части статьи представлены результаты анализа национальной и международной правовой доктрины и практики, направленного на определение правового статуса цифровых активов в законодательстве Узбекистана. На основе проведённого исследования сформулированы предложения по совершенствованию национальной системы правового регулирования цифровых активов и интеграции её с международными подходами.

Ключевые слова: цифровые активы, криптоактив, блокчейн, виртуальное имущество, виртуальная валюта, криптовалюта, токены

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE EVOLUTION OF THE CONCEPT OF DIGITAL ASSETS AND THEIR LEGAL REGULATION

Yakubov Akhtam Nusratulloevich,
Vice-Rector of Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law, Associate Professor

Abstract. In this article, as a result of the rapid development of modern digital technologies and the strengthening of their integration into the global economy, the concept of “digital assets” occupies a central place in the system of international legal relations. At the same time, the relevance of digital assets, the diversity of the concept of digital rights, and the experience of developed countries in the effective regulation of digital assets, as well as views on the impossibility of linking them exclusively to financial instruments, are deeply analyzed. At the same time, the author notes in the article that there are gaps in the current legislation of the Republic of Uzbekistan that need to be eliminated in the legal regulation of digital assets, in particular, the need to clarify and expand the term “digital assets” in the legislation of the Republic of Uzbekistan, introduce a new classification that divides them into virtual property (property rights) and virtual personal non-property benefits and rights related to property rights, and make appropriate changes to their legal regulation. In addition, the article examines the differences between the concepts of “digital

rights (digital asset),” “digital object,” “virtual property,” and “virtual game property,” the use of civil legislation to regulate digital assets, as well as the fact that blockchain technology does not take into account all the functions that digital financial assets can perform when recording the practice of creating, implementing, and using digital financial assets based on it. In the concluding part, the author conducted an analysis of national and international legal doctrine and experience aimed at determining the legal status of digital assets in the legislation of Uzbekistan and put forward proposals aimed at improving national legislation.

Keywords: digital assets, crypto assets, blockchain, virtual property, virtual currency, cryptocurrency, tokens

Kirish

Zamonaviy raqamli texnologiyalar jadal rivojlanishi va global iqtisodiyot integratsiyasining kuchayishi natijasida “raqamli aktivlar” tushunchasi xalqaro huquqiy munosabatlar tizimida markaziy o‘rinni egallab bormoqda. Blokcheyn texnologiyasi, kriptovalyutalar, NFT (Non-Fungible Tokens), raqamli moliyaviy aktivlar va virtual mulk shakllari inson hayotining barcha sohalariga kirib kelishi munosabati bilan ularning huquqiy maqomini belgilash zarurati tobora oshib bormoqda. Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilga kelib raqamli aktivlar bozori 3 trln dollarga yetgan va bu ko‘rsatkich yiliga 35–40 foiz o‘sinh sur’atlari bilan rivojlanmoqda.

Raqamli aktivlarning dolzarbligi nafaqat ularning iqtisodiy qiymatida, balki zamonaviy jamiyatda fuqarolarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda muhim vositaga aylanganligida namoyon bo‘lmoqda. COVID-19 pandemiyasi davrida raqamli texnologiyalarga o‘tish jarayoni tezlashdi va bugungi kunda odamlarning intellektual mulki, shaxsiy ma’lumotlari, moliyaviy resurslari ko‘p hollarda raqamli shaklda saqlanmoqda. Yevropa Ittifoqi Komissiyasining “Raqamli strategiya – 2030” dasturidan ma’lum bo‘lishicha, Yevropa aholisining 75 foizi raqamli xizmatlardan foydalanadi va ularning virtual mulki hajmi 2025-yilga kelib 500 mlrd yevroga yetishi prognoz qilinmoqda.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida raqamli aktivlarni tartibga solish sohasida sezilarli yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. AQSh davlati

2022-yilda “Raqamli aktivlar bo‘yicha Prezident Farmoni”ni qabul qilib, raqamli dollarni joriy etish masalalarini ko‘rib chiqishni boshladi. Yevropa Ittifoqi esa 2023-yilda “Kripto-aktivlar bozorini tartibga solish to‘g‘risida”gi (MiCA) reglamentni qabul qildi. Singapur, Yaponiya, Shveysariya kabi davlatlar o‘zlarining raqamli aktivlar bo‘yicha kompleks qonunchilik bazasini shakllantirgan va “raqamli aktivlar xavfsizligi” sohasida ilg‘or tajribaga ega.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli aktivlarni samarali tartibga solish nafaqat innovatsion texnologiyalar rivojiga xizmat qiladi, balki fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, soliq tizimini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Estoniya “e-Residency” dasturi orqali raqamli fuqarolik institutini joriy etgan va bu tajriba dunyo miqyosida keng targ‘ib qilinmoqda. Xitoy esa CBDC (markaziy bank raqamli valyutasi) joriy etishda peshqadam bo‘lib, 2022-yilga kelib 260 mln foydalanuvchiga ega bo‘lgan.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida raqamli transformatsiyasini jadallashtirayotgan sharoitda raqamli aktivlarni huquqiy tartibga solish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda kriptovalyutalar va blokcheyn texnologiyalarining huquqiy maqomi to‘liq belgilanmagan, “raqamli aktiv” tushunchasining qonuniy ta’rifi mavjud emas va bu sohada xalqaro standartlarga mos

keluvchi kompleks yondashuvni ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu munosabat bilan, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va milliy qonunchilikni takomillashtirish yo'llarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy masala sanaladi.

Internet shunday makonga aylanib bormoqdaki, uning doirasida ko'plab huquq subyektlari o'z huquqlarini amalga oshirmoqda va o'z majburiyatlarini bajarmoqda. Bu sharoitlarda virtual mulk – raqamli aktivlar miqdorining oshishi Internet olami uchun umumiy tendensiyaga aylanmoqda. Biroq hozirgi vaqtda fuqarolik huquqi doktrinasida "raqamli aktiv (kriptoaktiv)", "raqamli moliyaviy aktiv" kabi yangi raqamli mulk shaklining toifasi aniq belgilanmagan. Shu munosabat bilan, "raqamli aktiv"lar kabi hodisaning huquqiy tabiatini o'rganish dolzarb ko'rinadi. Bizningcha, "raqamli aktiv", "raqamli moliyaviy aktiv", "kriptoaktiv" bir ma'noni anglatib, ushbu maqola doirasida bir mazmunli raqamli mulk shakllari sifatida tushuniladi.

"Raqamli aktiv" atamasi ilmiy ishlarda deyarli kuzatilmagan. Fuqarolik huquqi fanida raqamli huquqlar va raqamli valyuta tabiatining o'zi olimlarda qiziqish uyg'otgan [1, 75–77-b.]. Shu bois, raqamli huquqni raqamli texnologiyalardan foydalanish va (yoki) raqamli ma'lumotlardan foydalanish holatlarida shakllanadigan munosabatlarni tartibga soluvchi alohida huquq sohasiga ajratish mumkinligi to'g'risida fikrlar bildirilgan edi [2, 450-b.]. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, "raqamli huquq" tushunchasi faqat raqamli valyutalar va moliyaviy aktivlarga nisbatan qo'llanishiga nisbatan kengroq tushuncha va uning tarkibiy qismlari hamda mazmuni ko'p qirralidir [3, 28–31-b.]. M. A. Rojkovaning fikricha, raqamli huquq bilan tartibga solinadigan munosabatlarning xilma-xilligi tartibga solish metodini aniqlash muammosini taqozo etadi, bu esa raqamli huquqni huquqning kichik tarmog'iga ajratish imkoniyati yo'qligini keltirib chiqaradi [4, 7–10-b.].

Raqamli aktivlarni moliyaviy qo'llash kesimida sivilist olimlar qiziqishi avvaldan

raqamli valyuta va uning tabiatiga qaratilgan edi. Ba'zi tadqiqotchilar raqamli valyuta xususiyatlarining pul bilan o'xshashligi haqida fikr yuritgan [5, 136–140-b.]. Biroq aksariyat tadqiqotchilar raqamli valyutani mulk toifasiga kiritishgan [6, 24–26-b.].

Raqamli aktivning turli ta'riflariga asosanib, quyidagilarni qayd etish mumkin. Birinchidan, raqamli huquqlar tushunchasi xilma-xilligi va ularni faqat moliyaviy vositalarga bog'lash mumkin emasligi haqidagi nuqtayi nazarlar ko'pchilik olimlar tomonidan tasdiqlandi. Qonun raqamli huquqlarning faqat ma'lum axborot tizimidagi pullik talablari yoki emissiya qog'ozlari aylanishi bilan bog'liq bir qismini ko'rishi bahsli masaladir. Ikkinchidan, raqamli aktiv ko'zda tutgan raqamli huquqlar predmeti pul, aniqrog'i, pullik talablar bo'lishi mumkin. Lekin adabiyotlarda pullik talabning mohiyatiga yagona yondashuv mavjud emas [7, 28–31-b.].

Keng ma'noda u ma'lum miqdorda pul mablag'ini topshirish majburiyatidan iborat. Tor ma'noda pullik talab qarz tushunchasi bilan bog'liq. E'tiborlisi, taqsimlangan reyestrda raqamli moliyaviy aktivlar ularning egasiga tegishli ekanligi to'g'risidagi yozuvlar amalda titul funksiyasini o'tashi va o'z-o'zidan subyektda istalgan vaqtda qayd etilgan raqamli aktiv bilan shartlangan moddiy pullarga nisbatan raqamli huquqlar mavjudligini anglatmaydi. Raqamli aktivni moddiylashtirish uchun pullik talabni taqdim etish kerak. Raqamli aktiv egasini axborot tizimi doirasida tuzilgan bitim ishtirokchisiga nisbatan kreditor yoki qarzdor deb taxmin qilish mumkin.

Yana bir jihatga e'tibor qaratish zarur. Raqamli aktiv qimmatli qog'ozlar emissiyasi, nodavlat aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitalida ishtirok etish bilan bog'liq huquqlarning ifodasi ham bo'lishi mumkin. Ushbu holat korporativ huquq fani uchun yangilik sanaladi. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitaliga kiritish mumkin bo'lgan badalning avvalroq mustahkamlangan ro'yxatini

to'ldiradi. Ta'kidlash kerakki, amaliyotda jamiyatning ustav kapitaliga raqamli valyutani kiritish holatlari bugungi kunda xorijiy davlatlarda keng tarqalmoqda.

N.S.Aleksandrovaning quyidagi fikrlariga to'liq qo'shilish mumkin: "Raqamli valyuta – bu to'lov vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan va uning mulkdorlari oldida javobgar bo'lgan shaxs mavjud bo'lmagan elektron ma'lumotlardan iborat" [7, 28–31-b.]. Biz bu tushunchaning noaniqligini qayd etishga majburiy. Qonunchilikda undan to'lov vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini tan olish raqamli valyutani pul tushunchasiga yaqinlashtirishi tabiiy. Qayd etish zarurki, qonuniy to'lov vositalari doirasini belgilash davlatning mutlaq vakolati hisoblanadi. Bu masalalar ommaviy-huquqiy tartib doirasida ko'rib chiqiladigan muammo sanalib, davlatning pulkredit tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois ham, tarixda pul tizimi ustidan davlat nazorati faqat tanga zarb qilish monopoliyasi va fuqarolarning ulardan qonuniy to'lov vositasi sifatida foydalanish majburiyati o'rnatilishi natijasida yuzaga kelgan [8, 16-b.].

Bundan tashqari, "raqamli valyuta" ta'rifining o'zi, aniqrog'i, unda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 95-moddasida "Valyuta qimmatliklari deb hisoblanadigan mol-mulk turlari va ular xususida bitimlar tuzish tartibi qonun bilan belgilab qo'yiladi. Valyuta qimmatliklariga mulk huquqi umumiy asoslarda himoya qilinadi", deb belgilangan "raqamli valyuta"ni valyuta qimmatliklari sifatida baholashga fundamental asos sanaladi.

Ko'rib turganimizdek, raqamli aktiv tushunchasi pullik talablar va emissiya qog'ozlari bilan bog'liq bo'lib, raqamli aktivning o'zi ham axborot tizimi ishtirokchilari o'rtasida ayirboshlash jarayoni bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlar axborot tizimi reyestrda mavjud bo'lib, bu majburiyatga ega shaxsni aniqlash imkonini beradi. Raqamli valyuta esa

mulkiy kategoriya bo'lib, bunda majburiyatga ega shaxs mavjud bo'lmaydi.

Raqamli valyuta muomalasi imkoniyati mustahkamlanganiga qaramay, qonun chiqaruvchi tomonidan bunday muomala tamoyillari va asosiy mezonlari belgilanmagan. Raqamli valyuta muomalasi bilan bog'liq talablarni sud orqali himoya qilish faqat bunday valyutaning mavjudligi deklaratsiya qilingan taqdirda bo'lishi mumkin.

Nazarimizda, raqamli valyutani tartibga solishda qayd etilgan xavotirlar raqamli muhit tushunchalari yetarlicha nazariy ishlab chiqilmaganligi, shuningdek, raqamli valyuta muomalasini davlat tomonidan qay darajada tartibga solinishi mumkinligi bo'yicha xalqaro tajriba mavhumligi bilan bog'liq.

Darhaqiqat, muomala uzoq vaqtdan beri mavjud, ammo tavsiflangan makonda nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlar hali taklif qilinmagan. Faoliyatni tartibga solish va nazorat qilish muammosi raqamli muhitning kengayishi sharoitida fuqarolik muomalasining ko'plab sohalari uchun dolzarb [9, 483-b.]. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, aynan davlat hokimiyati organlarining muvofiqlashtirish va o'zaro hamkorlik vazifalari tufayli nazorat jarayonida davlat boshqaruvi samaradorligi ortib boradi [10, 71–75-b.].

Shubhasiz, kelgusi o'n yillikda O'zbekistonda raqamli aktivlarga oid qonunchilikni takomillashtirishning zarurligi tabiiy jarayon sifatida tushuniladi. Mazkur jarayonlarda qonun chiqaruvchi raqamli valyutalar mulk yoki istiqbolda pulga muqobil vosita bo'lishini aniq belgilab olishi lozim. Bularning barchasi raqamli huquqlarni himoya qilish va ularni huquqiy hamda samarali tartibga solish zarurati bilan chambarchas bog'liqdir.

Hozirda jahon amaliyotida "raqamli aktivlar" kategoriyasining yagona ta'rifi ishlab chiqilmagan. Doktrinada "raqamli aktivlar" hodisasini belgilashga urinishlar kam kuzaatiladi. Xususan, raqamli aktivlarning huquqiy maqomi va ularni tartibga solish muammolari M. Perrone [11], J. Beier [12], A. Waller

[13], G. Lastowka [14], K. Sherry [15], J. Chambers [16], G. Ferrera [17], S. Tracy [18], D. Kirk [19], J. Farwell [20] tadqiqotlarida o'rganib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida "raqamli aktivlar" tushunchasi belgilanmagan. O'zbek doktrinasida bu hodisaning ta'rif va tavsifi mavjud emas. O'rganilayotgan hodisaning xususiyatlari va mohiyatini tushunish uchun Yevropa davlatlarining doktrinasini va qonunchiligiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Charles Blazer [21] raqamli aktivlar ta'rifini ularning turlarini sanab o'tish orqali ochib beradi: Microsoft ofis dasturi (masalan, Word, Excel yoki PowerPoint) yordamida yaratilgan hujjatlar; raqamli fotosuratlar; raqamli video; iTunes dagi musiqa. Ushbu muallif "raqamli aktivlar" va "raqamli mulk" kategoriyalarini birxillashtiradi va ushbu hodisalarni "virtual mulk" sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladi, jumladan, uning obyektlari tarkibiga veb-sayt, agentning shartnoma tuzish taklifi, kompyuter o'yini personaji va boshqa nomoddiy raqamli tovarlarni kiritadi [21].

Raqamli aktivlarning umumiy ta'rif N. Dosch tomonidan taklif etiladi [22]: "Kompyuteringizda, saqlash qurilmasi yoki veb-saytingizdagi har qanday fayl va har qanday onlayn akkaunt yoki obuna". Bu hodisani tavsiflashda keng yondashuv tarafdori J. Conner o'zining tadqiqotida shunga o'xshash ta'rifni bergan. Ushbu tushuncha tarkibiga foydalanuvchi kompyuteridagi har qanday raqamli fayl, shuningdek, onlayn akkaunt yoki obuna va boshqalarni kiritgan [23].

N. Dosch [23] va J. Conner [23] tomonidan taklif qilingan ta'riflar mavhum xarakterga ega, ammo ular "raqamli aktivlar" tushunchasiga kiruvchi obyektlarning butun xilma-xilligini qamrab olishga imkon beradi.

Endi bevosita "raqamli aktivlar" tushunchasi va uni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq xalqaro tajribaga e'tibor qaratsak. Hozirgi vaqtda ko'pgina mamlakatlar qo-

nunchiligida "raqamli aktivlar" hodisasining ta'rif mavjud emas. Biroq AQShning ba'zi shtatlarida bu hodisani belgilashga urinishlar bo'lgan. Ushbu kategoriyaning o'rganish uchun AQShning alohida shtatlari qonunchiligi tahliliga murojaat qilamiz.

Konnektikut shtati qonuni raqamli aktivlar ta'rifiga ega emas, buning o'rniga "elektron pochta hisob yozuvi" atamasi bilan cheklangan – bu elektron pochta xizmati provayderi tomonidan taqdim etilgan elektron pochta xizmati yakuniy foydalanuvchisi tomonidan jo'natilgan yoki qabul qilingan. Ushbu elektron pochta xizmati provayderi tomonidan mazkur xizmat ko'rsatishda odatda saqlangan yoki yozib olingan barcha elektron xabarlar; shuningdek, har qanday boshqa elektron axborot, shu jumladan, billing va to'lov axboroti, boshqa ma'lumotlar elektron pochta xizmati provayderi tomonidan saqlangan yoki yozib olingan, elektron pochta xizmati provayderining yakuniy foydalanuvchisiga taqdim etiladigan elektron pochta xizmatlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan" [24].

Virjiniya shtati kodeksida [25] "raqamli aktivlar" negizida analog yoki raqamli foto, serverda, kompyuterda yoki boshqa elektron qurilmada yoki elektron tashuvchida, kompyuter, qurilma va elektron tashuvchi mulk shaklidan hamda raqamli aktivlar masofadan turib saqlanishi mumkinligidan qat'i nazar, saqlanadigan har qanday matn, tasvirlar, multimediya axborot yoki boshqa shaxsiy mulk tushuniladi. "Raqamli aktivlar" ularga kirish uchun zarur bo'lgan har qanday so'zlar, belgilar, kodlar yoki shartnomaviy huquqlarni o'z ichiga oladi.

Men shtati Vasiyatlar va ishonchli boshqaruv ishlari bo'yicha komissiyasining raqamli meros sohasidagi oddiy aktivlarni ishlab chiqish to'g'risidagi topshirig'iga ko'ra, "raqamli aktivlar" deganda elektron shaklda saqlanadigan, axborotni olishga yoki kelajakda saqlanib turishiga imkon beradigan har qanday tashuvchida saqlanadigan axborot,

shu jumladan, (ammo bu bilan cheklanmasdan) hujjatlar, rasmlar, grafiklar, diagrammalar, fotosuratlar, ovoz yozuvlari, tasvirlar va boshqa axborot yoki to'plangan ma'lumotlar tushuniladi" [26].

2013-yil 14-yanvardagi Oregon shtati qonun loyihasi "raqamli aktivlar" batafsil, keng ochib berilgan ta'rifini taklif qiladi [26]. Ushbu qonun loyihasiga muvofiq, raqamli aktivlar o'z ichiga quyidagilarni kiritadi (ammo ular bilan cheklanmaydi): serverda, kompyuterda yoki boshqa jismoniy qurilmada yoki elektron tashuvchida saqlanishidan, raqamli aktivlar saqlanadigan jismoniy qurilma yoki elektron vosita mulki shaklidan qat'i nazar saqlanadigan matn, tasvirlar, multimediya axboroti yoki raqamli shaklda saqlanadigan boshqa mulk.

Mazkur shtatda taklif qilingan loyihaga ko'ra "raqamli aktivlar" quyidagilarni o'z ichiga oladi (ammo ular bilan cheklanmaydi): Raqamli aktivlarga kirish uchun zarur bo'lgan so'zlar, belgilar, kodlar yoki shartnomaviy huquqlar. Bundan tashqari, ushbu qonun loyihasida "raqamli hisob yozuvi" tushunchasi mavjud – "o'z ichiga: elektron pochta, moliyaviy, shaxsiy va boshqa onlayn hisoblarni kiritadi (ammo ular bilan cheklanmaydi)" [26]. Ushbu qonun loyihasida [26], "shaxsiy mulk" o'z ichiga barcha moddiy va nomoddiy mulk.... va raqamli aktivlarni kiritishi to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilgan oddiy aktivlar mavjud.

Shunday qilib, "raqamli aktivlar" kategoriyasini talqin qilishning turli xil yondashuvlarini tahlil qilgandan so'ng, bu hodisa faqat kompyuter dasturlari (MicrosoftWord, Excel, yoki PowerPoint) orqali inson tomonidan yaratilgan hujjatlar bilan cheklanmasligi kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

N. Dosch [26] to'g'ri ta'kidlaganidek, ushbu tushuncha foydalanuvchiga tegishli bo'lgan barcha domen nomlarini, qonuniy ravishda yuklab olingan har qanday fayllarni (masalan, MP3 musiqa fayllari va filmlar), kirish uchun foydalanuvchi nomi va parol kiri-

tishni talab qiladigan Internet texnologiyalari asosida yaratilgan har qanday shaxsiy hisob yozuvlarni o'z ichiga olishi kerak (masalan, ijtimoiy tarmoq yoki elektron pochta hisob yozuvlari, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni saqlaydigan har qanday hisob yozuvlar (masalan, onlayn xarid xizmatlari uchun bank hisob yozuvi).

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, AQShning alohida shtatlari doktrinasi va qonunlarida "raqamli aktivlar" atamasi bilan bir qatorda "raqamli mulk", "virtual mulk", "nomoddiy mulk" kategoriyalari qo'llanadi. Shuni ham aytish joizki, doktrinada raqamli aktivlarni tasniflashning aniq mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu, birinchi navbatda, o'rganilayotgan hodisaning xilma-xilligi va shakllarining turlicha ekanligi bilan bog'liq.

Agar "tasniflash" atamasining ma'nosiga murojaat etsak, uning ostida: narsalar, hodisalarning ma'noli tartibi, ularning ayrim muhim belgilariga ko'ra turlarga bo'linishi tushuniladi [27, 786-b.]. Demak, tasnifni ishlab chiqish uchun o'rganilayotgan hodisaning belgilarini ajratib olish kerak.

Raqamli aktivlarning joylashuviga asoslangan holda uning tasnifi sifatida J.C. Beier, S. Porter [28] kompyuterda saqlanadigan raqamli aktivlar; smartfonda saqlangan raqamli aktivlar; saytga yuklangan raqamli aktivlarni ajratadi. Ushbu aktivlarga musiqa, video, tibbiy yozuvlar, soliq hujjatlari, moliyaviy hisobotlar, Shutterfly yoki Flickr saytlarida yoki Dropbox va boshqa shu kabi umumiy bulutli saqlash joylarida saqlanadigan fotosuratlar kiradi. Raqamli aktivlarning muomala sohasiga ko'ra Naomi R. Cahn [28] quyidagi tasniflarga ajratadi: shaxsiy, ijtimoiy media aktivlari, moliyaviy va biznes hisob yozuvlari [29].

Ushbu qayd etilgan tasniflardan ayrimlarining tahliliga e'tibor qarataylik. Shaxsiy aktivlar kompyuter yoki smartfonda saqlanadigan yoki Flickr yoxud Shutterfly kabi veb-saytlarga yuklangan raqamli aktivlarni

o'z ichiga olishi mumkin. Ular fotosuratlar, videolar, elektron pochta yoki playlistlarni o'z ichiga olishi mumkin. Fotoalbomlar shaxsiy qattiq diskda saqlanishi yoki onlayn tizimlar yordamida yaratilishi mumkin.

Elektron shaklda foydalanuvchilar o'zlarining va oila a'zolariga tegishli bo'lgan tibbiy varaqalar va soliq hujjatlarini saqlashlari mumkin. Har bir qayd etilgan raqamli aktiv, qoida tariqasida, turli xil kirish vositalarini talab qiladi: login, parol, kod so'zlari va boshqalar.

Ijtimoiy media aktivlar – Facebook, Twitter va boshqa shunga o'xshash veb-saytlar, shuningdek, elektron pochta hisob yozuvlari orqali foydalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa qilish bilan bog'liq aktivlardir. Ushbu saytlar nafaqat foydalanuvchilar o'rtasidagi muloqot uchun xizmat qilishi, balki fotosuratlar, videolar va boshqa aktivlar uchun saqlov joyi sifatida ham foydalanishi mumkin.

Moliyaviy aktivlarga Internet-banking xizmatiga ulangan to'lov kartalari, PayPal, Amazon va boshqa hisob yozuvlar, eBay, Aliexpress va boshqa shu kabi tovarlarni sotishga ixtisoslashgan saytlardagi hisob yozuvlar bo'lishi mumkin.

Ishchi hisob yozuvlar, ya'ni shaxsning kasbiy faoliyati bilan bog'liq raqamli aktivlar sifatida misol uchun, eBay, Aliexpress sotuvchilari o'zlarining mijozlar bazasini yoki buyurtma va to'lov ma'lumotlarini kompyuterda yoki Dropbox bulut xizmatida saqlashlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, yozuvchi o'z yozuvlari ustida ishlash uchun maxsus virtual ofislardan foydalanishi yoki o'zining barcha asarlarini chop etadigan Internet-blogini yuritishi mumkin [29].

Xulosa

Raqamli aktivlarning huquqiy maqomi va ularni tartibga solishning xalqaro tajribasini kompleks tahlil qilish asosida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalarga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalarining eksponensial rivojlanishi, sun'iy

intellekt, blokcheyn, metavers kabi innovatsion texnologiyalarning integratsiyasi va raqamli aktivlarning yangi turlari (NFT, DeFi tokenlari, raqamli kolleksiyalar)ning doimiy paydo bo'lishi "raqamli aktivlar" kategoriyasining universal va statik ta'rifini ishlab chiqishga obyektiv to'siq tug'diradi. Bu holat xalqaro huquqiy amaliyotda funksional va moslashuvchan yondashuvlarni qabul qilishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, AQSh, Kanada va Avstraliyada raqamli aktivlarga oid qonunchilik tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu sohadagi normativ hujjatlarning aksariyati dispozitiv tabiatga ega bo'lib, qonun chiqaruvchilar "kelajakda paydo bo'lishi mumkin", "texnologik rivojlanishni hisobga olgan holda" kabi elastik formulirovkalarni qo'llashmoqda. Bunday yondashuv texnologik innovatsiyalarning huquqiy tartibga solish doirasidan chetda qolib ketishining oldini oladi va qonunchilikning istiqbolga mo'ljallanganligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, raqamli aktivlar sohasidagi qonunchilik ishlab chiqish xalqaro amaliyotda turli xil institutsional yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. AQShda federal va shtat darajasidagi normativ hujjatlar o'rtasida muvozanatli taqsimot, Yevropa Ittifoqida esa markazlashgan baza (MiCA reglamenti) yaratilgan. Singapur, Shveysariya kabi davlatlar maxsus tartibga solish tizimlarini joriy etgan holda tajribaviy huquqiy mexanizmlarni sinashmoqda.

To'rtinchidan, raqamli aktivlarning turli belgilari bo'yicha (texnik tabiat, iqtisodiy funksiya, huquqiy maqom, saqlash usuli) tasniflash muammosi xalqaro doktrinada yagona yechimga ega emas. Bizningcha, ko'p mezonli tasniflash yondashuvi (multi-criteria approach) eng maqbul hisoblanib, u raqamli aktivlarning mulkiy, qarzdorchilik, korporativ va shaxsiy (неимущественный) huquqlar kategoriyalariga ajratishni nazarda tutadi.

Beshinchidan, raqamli aktivlarga oid xalqaro huquqiy doktrina tahlili ularning "gibrid tabiati"ni ochib beradi: ular bir paytning

o'zida moddiy mulk belgilari (egalik, foydalanish, tasarruf), intellektual mulk elementlari va moliyaviy instrumentlar xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Bu holat klassik sivilistik kategoriyalarni qayta ko'rib chiqishni va yangi huquqiy konstruksiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi raqamli aktivlarni tartibga solishda quyidagi sistemaviy bo'shliqlarga ega: a) "raqamli aktivlar" tushunchasining qonuniy ta'rifi mavjud emasligi; b) raqamli aktivlarning mulk huquqi obyekti sifatidagi maqomini belgilovchi normativ baza yetishmasligi; d) raqamli aktivlar bilan muomala tartibi va ular ustidan huquqlarni himoya qilish mexanizmlarining ishlab chiqilmaganligi; e) raqamli meros va raqamli aktivlarni meros qilib olish masalalarining tartibga solinmaganligi.

Yettinchidan, xalqaro tajriba va nazariy tadqiqotlar asosida O'zbekiston qonunchiligi uchun raqamli aktivlarning quyidagi ta'rifini taklif qilishimiz mumkin: "Raqamli aktivlar – elektron-raqamli shaklda kodlangan, axborot tizimlarida saqlanadigan,

identifikatsiyalanadigan va shaxsga tegishli bo'lgan mulkiy va nomulkiy huquqlarni ifodalovchi, iqtisodiy qiymat tashuvchi hamda yuridik jihatdan himoyalangan axborot resurslari".

Sakkizinchidan, milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida raqamli aktivlarning quyidagi tasnifini joriy etish maqsadga muvofiq: a) raqamli moliyaviy aktivlar (kriptovalyutalar, stejblkoynlar, raqamli qimmatli qog'ozlar); b) raqamli intellektual mulk (NFT, raqamli kontent, dasturiy ta'minot); d) raqamli shaxsiy ma'lumotlar va hisob yozuvlari; e) raqamli ishchi aktivlar (korporativ ma'lumotlar bazasi, raqamli infratuzilma elementlari).

To'qqizinchidan, raqamli aktivlar sohasidagi huquqiy tartibga solishni ishlab chiqishda xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda, milliy iqtisodiy manfaatlar va huquqiy an'analarni saqlash prinsipiga asoslangan mutavozin yondashuvni qo'llash zarur. Bu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va doimiy monitoring hamda baholashni nazarda tutishi lozim.

REFERENCES

1. Savitskaya K.D. Tsifrovyye aktivy: teoriya i pravovoye regulirovaniye na primere Soyedinennykh Shtatov Ameriki [Digital assets: theory and legal regulation on the example of the United States of America]. *Bulletin of Polotsk State University. Series D, Economic and Legal Sciences*, 2015, pp. 75–77.
2. Yegorova M.A., Blazheyev V.V. Tsifrovoye pravo [Digital Law]. Moscow, Avenue Publ., 2020, p. 640.
3. Aleksandrova N.S. Sootnosheniye ponyatiy «tsifrovyye prava», «tsifrovaya valyuta» i «tsifrovoy finansovyy aktiv» [The relationship between the concepts of "digital rights", "digital currency" and "digital financial asset"]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2021, vol. 6, pp. 28–31.
4. Rozhkova M.A. Yavlyayetsya li tsifrovoye pravo otrasl'yu prava i nuzhno li ozhidat' poyavleniya Tsifrovogo kodeksa? [Is digital law a branch of law and should we expect the emergence of a Digital Code?]. *Economy and Law*, 2020, vol. 4, pp. 3–13.
5. Savel'yev A.I. Kriptovalyuty v sisteme ob'yektov grazhdanskikh prav [Cryptocurrencies in the system of civil rights objects]. *Law*, 2017, vol. 8, pp. 136–154.

6. Gavrilov V.N., Rafikov R.M. Kriptoalyuta kak ob"yekt grazhdanskikh prav v zakonodatel'stve Rossii i ryada zarubezhnykh gosudarstv [Cryptocurrency as an object of civil rights in the legislation of Russia and a number of foreign countries]. *VEPS*, 2019, vol. 1, pp. 51–57. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/kriptoalyuta-kak-obekt-grazhdanskikh-prav-v-zakonodatelstve-rossii-i-ryada-zarubezhnykh-gosudarstv>
7. Aleksandrova N.S. Sootnosheniye ponyatiy «tsifrovyye prava», «tsifrovaya valyuta» i «tsifrovoy finansovyy aktiv» [The relationship between the concepts of “digital rights”, “digital currency” and “digital financial asset”]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2021, vol. 6, pp. 28–31.
8. Kucherov I.I. Zakonnoye platezhnoye sredstvo kak kategoriya finansovogo prava [Legal tender as a category of financial law]. *Journal of Russian Law*, 2014, vol. 8 (212), pp. 31–47.
9. Agnessa O.I., Ludmila A.Ch., Tatyana V.D. Legal realisation of information technology activities of the government-owned corporations: automation of management and control. *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, 2019, vol. 483, iss. 1.
10. Mailyan S.S., Mironov A.L. Nekotoryye voprosy po povysheniyu effektivnosti gosudarstvennogo upravleniya [Some issues on improving the efficiency of public administration]. *Bulletin of the Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2014, vol. 9. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-voprosy-po-povysheniyueffektivnosti-gosudarstvennogo-upravleniya>
11. Perrone M. What happens when we die: estate planning of digital assets. *CommLaw Conspectus Publ.*, 2012, vol. 21. Available at: <http://commlaw.cua.edu/res/docs/21-1/Perrone.pdf>.
12. Beier J.C., Porter S. The Digital Asset Dilemma. *NYSBA Trusts and Estates Law Section Newsletter*, 2013, vol. 46, no. 2. Available at: http://www.mcglawyer.com/pdf_files/TrustsandEstatesSummer2013.pdf
13. Moncur W., Waller A. Digital Inheritance. *RCUK Digital Futures Publ.*, 2010. Available at: <http://www.computing.dundee.ac.uk/staff/wmoncur/publications/2010-rcuk-digital-Futures.pdf>
14. Lastowka G., Hall T. Living and Dying in a Virtual World. 2013. Available at: <http://lastowka.rutgers.edu/files/2013/10/Lastowka.pdf>
15. Sherry K. What Happens to Our Facebook Accounts When We Die?: Probate Versus Policy and the Fate of Social-Media Assets Postmortem. 2012, vol. 40. Available at: <http://digitalcommons.pepperdine.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1726&context=plr>
16. Chambers J. Family Gets GI's E-Mail. 2005. Available at: www.justinellsworth.net/email/detnewsapr.htm
17. Darrow J.J., Ferrera G.R. Email Is Forever. Or Is It? 2008, vol. 11, pp. 10, 1, 18. Available at: <http://www.digitalestateplanning.com/>
18. Tracy S. Family, lawmakers push for Facebook changes following son's suicide. 2013. Available at: <http://wtvr.com>
19. Kirk D.S. On human remains: Values and practice in the home archiving of cherished objects. *Hum. Interact*, 2013, vol. 17 (3), pp. 1–43. DOI: 10.1145/1806923.1806924.
20. Farwell J. Death & digital data: What happens to what you leave behind? *Computers & Electronics*, 2007, vol. 18(9), pp. 33–35
21. Blazer C. The Five Indicia of Virtual Property (discussing the “five indicia” for determining what is a legally protectable digital asset). 2006. Available at: http://law.unh.edu/assets/images/uploads/publications/pierce-law-review-vol05-no1-blazer_1.pdf
22. Dosch N. Over View of Digital Assets: Defining Digital Assets for the Legal Community. 2010. Available at: <http://www.digitalestateplanning.com/>
23. Conner J. Digital Life After Death: The Issue of Planning for a Person's Digital Assets After Death. *Est. Plan. & Cmty. Prop. LJ Publ.*, 2010, vol. 3, p. 301. Available at: <http://heinonline.org/HOL/LandingPage?handle=hein.journals/epcplj3&div=18&id=&page=>

24. Act concerning access to decedents' electronic mail accounts: Senate Bill № 262 Public Act, June 24, 2005, no. 05-136. Available at: <http://www.cga.ct.gov/2005/act/Pa/2005PA-00136-R00SB-00262-PA.htm>

25. Resolve, to Study the Issue of Inheritance of Digital Assets House of Representatives: Legislative Document № 850 (HP 601), March 5, 2013. State of Maine Legislature. Available at: <http://www.mainelegislature.org/legis/bills/getPDF.asp?paper=HP0601&item=1&snum=126>

26. Relating to digital property: Senate Bill, January 14, 2013, no. 54. Oregon State Legislature 2012. Available at: <https://olis.leg.state.or.us/liz/2013R1/Downloads/MeasureDocument/SB54/Introduced>

27. Arsen'yevym K.K., Petrushevskim F.F. Klassifikatsiya. Entsiklopedicheskiy slovar' Brokgauza i Yefrona [Classification. Brockhaus and Efron Encyclopedic Dictionary]. St. Petersburg, Semenovskaya Typography Publ., 1904 vol. 82, p. 1058.

28. Tracy S. Family, lawmakers push for Facebook changes following son's suicide. 2013. Available at: <http://wtvr.com>.

29. Cahn N. Postmortem Life On-line. *Probate & Property*, 2011, vol. 25, no. 4, p. 36. Available at: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2026628

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 12.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./ZLK05038
UDC: 347.77(045)(575.1)

UNIVERSITETLAR VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARIGA QARASHLI INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI TIJORATLASHTIRISHNING HUQUQIY XUSUSIYATLARI

Toshkanov Nurbek Bahriddinovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi kafedrası o'qituvchisi,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: 0009-0005-6060-3414
e-mail: toshkanovnurbek@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston va bir qator xorijiy davlatlar tajribasi asosida universitetlar hamda ilmiy tadqiqot muassasalariga qarashli intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilingan. Universitet 3.0 konsepsiyasi doirasida ta'lim, ilm-fan va innovatsion faoliyatning uzviy bog'liqligi yoritilib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, normativ-huquqiy baza, klaster va spin-off yondashuvlari orqali mavjud holatga baho berilgan. Shuningdek, texnologiyalar transferi, startaplar, patentlash va tijoratlashtirish modellari, jumladan, uchburchak modeli hamda hajm modeli muhim vosita sifatida ko'rsatib o'tilgan. Muallif milliy va xorijiy tajriba asosida intellektual mulkni boshqarish siyosatini shakllantirish, xalqaro tajribalarga asoslangan huquqiy hujjatlar ishlab chiqish zarurligini asoslab bergan. Maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik universitetlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy va normativ takliflar keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada Universitet 1.0, 2.0 va 3.0 modellarining o'zaro farqlari ochib berilgan, ularning iqtisodiy ustunlik va innovatsion rivojlanishdagi roli ta'kidlangan. Muallif, shuningdek, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishdan daromad olish mexanizmlarini tahlil qilib, ular orqali akademik mustaqillik va barqaror moliyaviy resurslarga erishish yo'llarini taklif qilgan.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, Universitet 3.0, texnologiyalar transferi, bilimlar transferi, spin-off kompaniya, klaster yondashuvi

ПРАВОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОММЕРЦИАЛИЗАЦИИ ОБЪЕКТОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ, ПРИНАДЛЕЖАЩИХ УНИВЕРСИТЕТАМ И НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИМ УЧРЕЖДЕНИЯМ

Тошканов Нурбек Бахриддинович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
преподаватель кафедры «Бизнес-право»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье на основе опыта Узбекистана и ряда зарубежных государств проведён анализ правовых, организационных и экономических аспектов коммерциализации

объектов интеллектуальной собственности, принадлежащих университетам и научно-исследовательским учреждениям. В рамках концепции «Университет 3.0» раскрыта органическая взаимосвязь образования, науки и инновационной деятельности, дана оценка текущему состоянию в Узбекистане через призму реализуемых реформ, нормативно-правовой базы, кластерного подхода и spin-off-моделей. Особое внимание уделено вопросам трансфера технологий, деятельности стартапов, патентования и моделям коммерциализации, включая «модель спирали» и «модель объёма», которые рассматриваются как важные инструменты. Автор обосновывает необходимость формирования политики управления интеллектуальной собственностью, разработки правовых актов на основе международного опыта. В статье также представлены практические и нормативные предложения по развитию предпринимательских университетов в Узбекистане. Кроме того, раскрыты различия моделей Университет 1.0, 2.0 и 3.0, подчёркнута их роль в обеспечении экономических преимуществ и инновационного развития. Автор анализирует механизмы получения дохода от коммерциализации научно-инновационных разработок и предлагает пути достижения академической автономии и устойчивых финансовых ресурсов за их счёт.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, Университет 3.0, трансфер технологий, трансфер знаний, spin-off-компания, кластерный подход

LEGAL ASPECTS OF THE COMMERCIALIZATION OF INTELLECTUAL PROPERTY OBJECTS BELONGING TO UNIVERSITIES AND RESEARCH INSTITUTIONS

Toshkanov Nurbek Bahriddinovich,

Lecturer at the Department of Business Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article analyzes the legal, organizational, and economic aspects of the commercialization of intellectual property objects belonging to universities and research institutions, based on the experience of Uzbekistan and a number of foreign countries. Within the framework of the University 3.0 concept, the inextricable link between education, science, and innovation is highlighted, and the current state of affairs is assessed through the reforms being implemented in Uzbekistan, the regulatory framework, cluster, and spin-off approaches. Also, models of technology transfer, startups, patenting and commercialization, including the triangular model and the volume model, are indicated as important tools. The author substantiates the need to form a policy for the management of intellectual property based on national and foreign experience and to develop legal documents based on international experience. The article presents practical and regulatory proposals for the development of entrepreneurial universities in Uzbekistan. The author also analyzed the mechanisms for generating income from the commercialization of scientific and innovative developments and proposed ways to achieve academic independence and stable financial resources through them.

Keywords: intellectual property, University 3.0, technology transfer, knowledge transfer, spin-off company, cluster approach

Kirish

So'nggi yillarda iqtisodiy rivojlangan davlatlarda universitetlar va boshqa ilmiy tadqiqot markazlarida yaratilgan texnologiyalar va boshqa intellektual mulk obyektlarini transfer qilishda patentlarni litsenziyalash,

shuningdek, tovar belgilari, namunalari va mualliflik huquqlari kabi huquqiy vositalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Bunda ko'proq davlat tadqiqot tashkilotlari intellektual mulkni tijoratlashtirishga va ulardan daromad olishga alohida e'tibor qaratadi [1].

Xususan, oliy ta'lim muassasalari o'zlarining professor-o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalarni tijoratlashtiradilar, buni birinchi navbatda, ushbu yutuqlarning intellektual mulkini (odatda, patentlar) tadbirkorlarga, professor-o'qituvchilarga yoki tashkil etilgan kompaniyalarga litsenziyalash orqali amalga oshiradilar. Tarixan, universitet professor-o'qituvchilari va talabalari bozor iqtisodiyoti talablariga mos bo'lgan yangi kompaniyalarni ishga tushirishga yordam beradigan bir qator innovatsiyalarni yaratdilar. Misol sifatida, internet-brauzer (*Netscape*), Internet qidiruv tizimi (*Google*) va turli xil biotexnologiyalar (*Genentech*)ni keltirish mumkin [2].

Asosiy qism

Universitetlar va davlat tadqiqot tashkilotlariga tegishli intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning xalqaro tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, yillar davomida mazkur jarayonning bir nechta modellari shakllanganligini ko'rish mumkin.

Amerika tajribasiga yuzlansak, 1980- va 1990-yillarda ko'pchilik AQSh universitetlari sanoat korxonalari bilan muzokaralar olib borish va tijoratlashtirish masalalarini ko'rib chiqish tajribasiga ega bo'lmagan. Biroq vaqt o'tishi, tajriba ortishi bilan universitetlar va eng muhimi, ularning o'qituvchilari kasbiy faoliyat davomida ixtiro va innovatsiyalar bo'yicha orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ldilar. Ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida ba'zi universitetlar tijoratlashtirish va innovatsiyalar faoliyati yagona idora ofisida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan narsalardan tashqarida ekanligini, sinflar va laboratoriyalarda universitetlararo dasturiy tashabbuslarni ilgari surish va amalga oshirishni talab qilishini tan olishni boshladilar. Buning huquqiy asoslari yaratildi, shuningdek, takomillashtirib ham borildi.

AQShda universitetlar intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish sohasidagi

huquqiy, tashkiliy va moliyaviy asoslarini quyidagi qonunlar tartibga soladi:

1. *"Patent va savdo belgisi to'g'risida"gi qonun (Patent and Trademark Law Amendments Act) yohud Bey-Doul qonuni (Bayh-Dole Act of 1980);*

2. *Stivenson-Uaydler qonuni (Stevenson - Wydler Technology Innovation Act of 1980);*

3. *"Federal texnologiyalar transferi to'g'risida"gi qonun (Federal Technology Transfer Act of 1986, FTTA) [3].*

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan yo'nalishga o'tgan universitetlar tarkibiga misol tariqasida quyidagi AQSh universitetlarini kiritishimiz mumkin:

– Massachusetts texnologiya instituti (*Massachusetts Institute of Technology*), bu yerda ko'plab professor-o'qituvchilar startap kompaniyalarning asoschilari hisoblanadi;

– Arizona universiteti;

– Kaliforniya universiteti.

Kaliforniya universiteti tajribasida BioInfoNano izlanish va rivojlantirish instituti (*the BioInfoNano R&D Institute*) mavjud bo'lib, bu unga a'zo kompaniyalar va startaplarning manfaatlarini hurmat qilgan holda hamkorlik va umumiy maydon yaratishni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.

Berkli sanoat tadqiqot hamkorlari uchun yagona oyna do'koni (*Berkeley's one-stop shop*) ham mavjud bo'lib, u ijtimoiy mas'uliyatli (*socially responsible*) litsenziyalash dasturlarini amalga oshirishda yetakchi hisoblanadi [4].

Mazkur universitetlar rivojida nafaqat ularning texnologiyalar transferi ofislari, balki pedagog, xodim va talabalarning mehnati ham katta hisoblanadi. Bunda tadqiqotchipedagoglar o'z universitetlarida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va ularning tijoratlashuviga chuqur ta'sir ko'rsatish bilan birga bilimlar transferining asosiy agentlari ham hisoblanadi. Davriy innovatsiyalar va ularning salohiyatlarini namoyon qiluvchi g'oya va texnologiyalar iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omilidir.

Shuningdek, AQSh universitetlarida patentlash, ularni litsenziyalashga tijoratlashtirish turlaridan biri sifatida qaraladi. Ayni paytda, ularda patent litsenziyalashdan tushadigan daromadni maksimal darajada oshirishga qaratilgan “litsenziyalash modeli” (*licensing model*)dan universitet innovatsiyalarining miqdori va bozorga olib chiqish tezligini ta’minlaydigan “hajm modeli” (*volume model*)ga o’tish jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

AQShda 1980–1990-yillarda universitetlarga tegishli intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga katta e’tibor qaratilib, rivojlanish sari qadam tashlangan bo’lsa, sobiq Ittifoq, umuman, sotsialistik lagerda bo’lgan mamlakatlarda esa bu masalaga deyarli e’tibor qaratilmagan.

Natijada universitet va boshqa davlat tadqiqot tashkilotlaridan texnologiyalar va bilimlarni transfer qilish (o’tkazib berish) jarayoni aksariyat o’tish davri iqtisodiyotiga ega davlatlarda oldingi tizim sarqitlari bilan bog’liq ikki muammoga duch keldi.

Birinchi muammo intellektual mulk huquqi tizimining o’zida yuzaga keladi [5]. Ikkinchi muammo esa tadqiqotlar o’tish davrigacha bo’lgan vaqtda qanday tashkil etilganligi bilan bog’liq.

Sobiq Ittifoq davrida na universitetlar, na korxonalar tadqiqotlarda muhim rolni o’ynamagan. Buning o’rniga amaliy tadqiqotlarning asosiy qismi tarmoq vazirliklarining sohasiy ilmiy-tadqiqot institutlarida o’tkazilgan [6]. Sovet iqtisodiy tizimining o’ta markazlashganligi va bo’ysunuvda bo’lganligi sababli ushbu institutlar texnologiyalar transferi va ularni tijoratlashtirish sohasida umuman tajriba to’play olmagan.

Bundan tashqari, mazkur institutlarning o’zlari hech qanday dolzarb tadqiqotlarni o’tkazmaganliklari sababli korxonalarning texnologiyalarni o’zlashtirish va tijoratlashtirish salohiyati hamda universitetlar va boshqa davlat tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilish qobiliyati yetarlicha rivojlanmagan.

Sobiq Ittifoqdan qolgan mazkur meros bugungi kunda ham ayrim jabhalarda seziladi. Masalan, korxonalar o’rtacha hisobda tadqiqot ishlariga (R & D) rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha kam mablag’ sarflaydilar. Shu bilan birga, universitet miqyosidagi tadqiqotlarni moliyalashtirishga ham juda kam hissa qo’shib, boshqa universitetlar bilan qo’shma tadqiqot loyihalari bo’yicha deyarli hamkorlik qilmaydilar. O’z navbatida, universitet va boshqa davlat tadqiqot tashkilotlari ham tadbirkorlik sektori tarafidan yangi texnologiyalar va boshqa bilimlarga talab yo’qligi sababli bilimlar transferi va ularni tijoratlashtirishda alohida, o’ziga xos muammolarga duch kelishlari mumkin.

Sotsialistik lagerning sobiq markazi – Rossiya universitetlarida “uchburchak modeli” (*triple helix model*) keng tarqalgan [7]. Mazkur model tadqiqot uchburchagi modeli (*research triangle model*) deb ham ataladi. Model konsepsiyasining muhim jihatlaridan biri universitetni nafaqat ta’lim muassasasi, balki innovatsion g’oyalarni ishlab chiqish, so’ngra ularni tijoratlashtirish markazi sifatida ko’rib chiqishdir. Universitetning bunday modelini yaratishning mantiqiy asoslari mavjud, bu Federal davlat standartlarida turli xil ilmiy sohalarida talabalarni tayyorlaydigan ilmiy malakaga ega o’qituvchilarning foiziga nisbatan talablarni hisobga olgan holda belgilanadi. Shunga ko’ra, universitetlar ilmiy kapital va salohiyatni quvvatlantirish markazlari hisoblanadi. Universitetlar mamlakat iqtisodiy tizimi tarkibida intellektual faoliyat natijalarini yaratuvchi asosiy muassasalardan biri bo’lishi kerak.


O’zbekistonda bugungi kunda mazkur model ancha ommalashayotganini ko’rishimiz mumkin. Innovatsion rivojlanish vazirligi (hozirgi Innovatsion rivojlanish agentligi) tomonidan taqdim etilgan ochiq ma’lumotlarga ko’ra, 2018–2022-yillarda ilmiy va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan 455,1 mlrd so’m miqdorida ilmiy ishlanmalar tijoratlashtirilgan, shundan 366,8 mlrd so’mlik mah-

sulot ishlab chiqarilgan (324,8 mlrd so'mlik mahsulot sotilgan va 88,3 mlrd so'mdan ortiq xizmatlar ko'rsatilgan) [8].

Jumladan, tijoratlashtirish forumining bahorgi bosqichlarida "Olim-ilmiy tashkilot-hudud" tizimi doirasida 2021-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyat hokimliklari tomonidan 37 ta ishlanmaga 6,48 mlrd so'm, 2022-yilda 44 ta ishlanmaga 8,93 mlrd so'm mablag' yo'naltirilgan.

2022-yil tijoratlashtirish forumining kuzgi bosqichi doirasida 17,1 mlrd so'mlik shartnomalar, shuningdek, 2,78 mln AQSh dollari miqdorida eksport shartnomalari doirasida amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan.

"Olim-ilmiy tashkilot-tarmoq" tizimi bo'yicha taqdimot qilingan 66 ta loyihalar doirasida yangi turdagi innovatsion hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar yaratilgan.



1-rasm. [9]

Umuman olganda, ushbu model konsepsiyasi Universitet 3.0 konsepsiyasi bilan mosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida ham oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi Universitet 3.0 konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi belgilandi.

Negaki zamonaviy universitetdagi o'zgarishlarni belgilab beruvchi asosiy trend uning Universitet 1.0 modelidan "Universitet 3.0" modeliga o'tishidir.

Bunda Universitet 1.0 faqat ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadi, u bilimlarni uzatish, kadrlar tayyorlash va ijtimoiy yuksalishni ta'minlashni amalga oshiradi.

Universitet 2.0 bir vaqtning o'zida ikkita missiyani – o'qitish va ilmiy tadqiqotni bajaradigan tadqiqot universitetidir. Universitet 2.0 funksiyalari tadqiqot faoliyati va bozor ishtirokchilari uchun konsalting xizmati orqali yangi bilimlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Universitet 2.0 sanoat buyurtmalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini bajaradi va "buyurtma qilingan" texnologiyalarni yaratadi. Bunday universitetning asosiy vazifasi – yangi bilimlarni uzluksiz yaratilishini ta'minlash bo'lib, kadrlar tayyorlash jarayoni ilmiy tadqiqot faoliyati bilan uzviy bog'langan.

Universitet 3.0 yanada yuqori maqomga ega, chunki u uchinchi missiya – bilim va texnologiyalarni tijoratlashtirish tizimiga ega. Bunday universitet intellektual mulk huquqlarini boshqaradi, tadbirkorlik ekotizimi, istiqbolli texnologik bozorlarni shakllantiradi va jahon miqyosida mamlakatning iqtisodiy ustunligini yaratish platformasiga aylanadi. Aynan shu universitetlar zamonaviy texnologik inqilobning yuzini belgilaydi [10]. Universitet 3.0 BMTning global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shadigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Universitet 3.0 postindustrial jamiyatning ta'lim muassasasi bo'lib, ta'lim (talabalarni o'qitish), fan (yangi bilimlarni yaratish) va innovatsiya yoki tadbirkorlik (bilimlarni amaliyotda qo'llash, biznes tuzilmalarini yaratish) sinergiyasini o'zida mujassam etgan. Ya'ni yangi turdagi universitetning mohiyati shundan iboratki, universitet bir vaqtning o'zida uchta missiyani amalga oshiradi:

- 1) ta'lim;
- 2) ilmiy tadqiqot;

3) innovatsion bilimlarni tijoratlashtirishga qaratilgan.

Universitet 3.0 – innovatsion biznes uchun tadbirkorlik salohiyati manbayi bo'lgan tashkilot [11].

Ushbu tizimning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2000-yilning boshlarida G'arb universitetlarida olib borilgan tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligining yaxshilaniishi ularning ilmiy bilimlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Universitetlar va sanoat o'rtasidagi hamkorlik natijasida ilmiy kashfiyotlar innovatsion mahsulotlarga aylantirildi va tegishli biznes-modellar yordamida tijoratlashtirildi. Binobarin, ta'lim, fan va bilimni tijoratlashtirishni birlashtirgan Oliy ta'lim 3.0 tizimi tashkil etildi [12].

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi respublikadagi 72 ta davlat oliy ta'lim muassasasining 2024-yildagi daromadlari va xarajatlari haqida ma'lumotiga ko'ra ushbu OTMlar 11 trln 953 mlrd 243 mln so'm daromad ko'rib, 11 trln 448 mlrd 986 mln so'm xarajat qilgan. Biroq mazkur daromadlar va xarajatlarni smetasida ilmiy-innovatsion ishlardan olingan daromadlar va ularni yaratish uchun qilingan xarajatlarni o'rin olmagan [13].

Ushbu statistik ko'rsatkichlar Universitet 3.0 konsepsiyasini ilgari surish uchun qilinadigan ishlar ko'lamini salmoqli ekanligini ko'rsatmoqda.

Shu o'rinda "Osiyo yo'lbarzlari"da intellektual mulkni boshqarishni tashkil etishni alohida ta'kidlab o'tish joiz. Osiyo mintaqasidagi innovatsion universitetlar orasida ilmiy nashrlar va patentlar soni hamda sifatini tahlil qilish asosidagi reytinglar bo'yicha Koreya ilg'or texnologiyalar instituti (KAIST) yetakchi o'rinni egallaydi. Universitet Amerika Qo'shma Shtatlarining moliyaviy ko'magida tashkil etilganligi sababli tadqiqot ishlari ko'lamini "tadbirkorlik universiteti" modeliga o'xshaydi. Reyting natijalari Sharq madaniyati va biznesni tashkil etishning G'arb modelining muvaffaqiyatli tutashuvini ko'rsatadi.

Bundan tashqari xorijiy amaliyotda universitetlar ishtirokida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda "klaster" yondashuvi juda mashhur. Klasterlardan foydalanish universitetlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning moddiy-texnikaviy masalalarini qisman hal qilish imkonini beradi. Mahalliy amaliyotda bunday yondashuv oqilona bo'ladi, ammo ilmiy tadqiqot kompaniyalarining zaif resurs bazasi ushbu modelni amalga oshirish uchun to'siq bo'lib, bu kichik va o'rta biznesda ushbu faoliyat turiga ajratilgan resurslarning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda klasterlarning ilmiy-innovatsion faoliyatga jalb qilinayotganlik holatlari mavjud.

Misol uchun "IPAK KO'CHAT KLASSTER" fermer xo'jaligi tutning yangi "O'zbekiston" va "Marhamat-2017" navlari ko'chatlarini yetkazib berish bo'yicha Qozog'iston Respublikasining "ACBC Oyl" xususiy korxonasi bilan 5 yillik, umumiy qiymati 2,5 mln AQSh dollarlik eksport shartnomasi imzolangan.

Umuman olganda, so'nggi yillarda O'zbekistonda ham universitetlar va ilmiy tadqiqot muassasalariga qarashli intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning huquqiy asoslarini yaratish sari muhim qadamlar tashlangan deyish mumkin.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasi 2-qismida oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi.

Bu mazkur tashkilotlarning intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishga ham yo'l ochadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3855-son qarori 2018-yil 1-oktabrdan boshlab quyidagilarga qo'shimcha bir martalik mukofotlar joriy etilishi belgilandi:

- patentlangan intellektual mulk obyektlari mualliflariga muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida;

- mualliflar hamda ilmiy va ilmiy-texnika-viy faoliyat natijalarini ishlab chiqish va tijoratlashtirishda ishtirok etgan ilmiy jamoaga ularni tijoratlashtirishdan muassasa hisobiga kelib tushayotgan mablag'larning tegishli ravishda 40 va 30 foizi miqdorida.

Natijada 2018–2022-yillarda ilmiy-ishlanma mualliflari va ilmiy jamoalarga jami 1 115,63 mln so'm bir martalik mukofotlar to'lab berilgan.

Bu ixtirolar muallifini davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmi – tadqiqot uchburchagi modeli ishlayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasida ham ilmiy-tadqiqot faoliyat sifatini oshirish hamda uni tijoratlashtirish darajasi samaradorligini ta'minlashga doir choralarni nazarda tutildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qarori bilan 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur strategiyada ko'plab vazifalar, xususan, ta'lim va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash maqsadida oliy ta'lim tashkilotlarining (yengil sanoat, farmasevtika, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlar) talabalari uchun Adliya vazirligi huzuridagi "Intellektual mulk markazi" davlat muassasasida amaliyot o'tash tartibini joriy etish vazifalari belgilandi.

Ushbu vazifalar bajarilishiga davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Xususan,

2022-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida o'tkazilgan elektrotexnika sohasida yangi zaxiralarni safarbar qilish bo'yicha yig'ilishda Prezident elektrotexnika sanoati bo'yicha erishilgan ko'rsatkichlarga e'tiroz bildirib, Taraqqiyot dasturida 2026-yilga qadar elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga, eksportni 3 baravarga oshirishni maqsad qilinganligi, kelgusi yillarda mis ishlab chiqarish hajmi 2 baravarga oshishi, uni o'zimizda chuqur qayta ishlab, raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirish zarurligini ta'kidladi. Prezident buning uchun "ta'lim – innovatsiya – ishlab chiqarish – servis" yaxlit zanjirini o'z ichiga olgan sanoat klasteri tashkil etish shartligini ko'rsatib o'tdi [14].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan modellardan xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston universitetlari tijoratlashtirishning, asosan, tadqiqot uchburchagi modelidan bormoqda. Shu bilan birga, bu borada olib borilayotgan sa'y-harakatlarda erkin agentlik modelining ham ayrim elementlari ko'zga tashlanmoqda.

Xulosa

Oliy ta'lim muassasalarida intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning quyi-dagi eng samarali shakllari mavjud:

- 1) shartnoma bo'yicha buyurtmani bajarish (davlat va munitsipial ehtiyojlar uchun davlat yoki munitsipial buyurtmasi shartnomasi va ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarni bajarish shartnomalari, shu jumladan, huquqlarni begonalashtirish shartnomalari);

- 2) litsenziyalash va huquqlarni o'tkazish;

- 3) kichik innovatsion korxonalarni tashkil etish (2024-yilda O'zbekistonda jami 12 ta oliy ta'lim muassasasida 28 ta bunday korxonalar (spin-off) tashkil etilib, jami 27 milliard so'm miqdorida daromad ko'rilgan);

- 4) oddiy sheriklik sifatida sanoat kooperasiyasi (klasterlar tashkil etish);

- 5) muhandislik (muhandislik markazlarini tashkil etish).

Umumiy xulosa sifatida esa bir qator fikrlarni bildirish mumkin.

Jumladan, patentlangan tadqiqot natijalarini litsenziyalashdan tashqari texnologiyalar transferining boshqa bir qancha usullari mavjud bo'lib, ularning har biriga intellektual mulk huquqi boshqaruvi nuqtayi nazarida o'ziga xos talablar belgilangan. Bunday usullarga universitet xodimlarining startaplari, sanoat homiyligidagi tadqiqotlar, konsultatsiyalar, nashrlar va taqdimotlar, shuningdek, mahalliy va mintaqaviy innovatsiyalarni texnologik (ilmiy) parklar va biznes-inkubatorlar orqali bevosita qo'llab-quvvatlash kabilar kiradi. Universitetga daromad keltirishdan tashqari texnologik transfer faoliyatiga ehtiyoj juda yuqori hisoblanadi, chunki bunday faoliyat universitetda yangi ilmiy ishlanmalar (R&D) va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishni rag'batlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotga innovatsiyalarning "suzib kirishi" uchun yetarli zamin yaratadi [15].

O'zbekiston iqtisodiyoti uchun mazkur holatda Yevropa mamlakatlari tajribasi foydali bo'lishi mumkin. Ushbu mamlakatlar tijoratlashtirish shaklining jozibadorligi shundaki, ularda ilmiy muassasalar va bevosita tadqiqotchilar (ixtiro, sanoat namunalari va boshqa intellektual mulk obyektlari mualliflari) ishtirokida yangi korxonalar (start-up kompaniyalar) tashkil etilishi mumkin. Bu borada qonunchilik ilmiy muassasalari va tadqiqotchilarga bunday kompaniyalarga ishtirokchi (ta'sischi) sifatida ustav kapitalida ulushli qatnashish, uning aksiyadoriga aylanish, kompaniya boshqaruvida, ma'muriy yoki kuzatuv kengashida ishtirok etish kabi huquqlarni taqdim etadi (Irlandiya, Germaniya, Niderlandiya, Fransiya).

Shuningdek, biz turlicha kuchli va zaif tomonlarga, qadriyatlarga, tashkiliy madaniyatga, turli maqsadlarga va oldingilaridan kelib chiqadigan turli xil biznes modellariga ega bo'lgan keng turdagi oliy o'quv yurtlarini tahlil qilayotgan bo'lishimiz mumkin. Bu o'z navbatida intellektual mulk boshqaruvining

bir universitetda boshqasiga (masalan, texnika sohasidagi universitet – yuridik universitet) qaraganda sezilarli darajada farq qilishi sababli bo'lishi mumkin, shuning uchun universitetlar uchun universal intellektual mulkni tijoratlashtirish modeli yoki strategiyasi mavjud emas. Buning o'rniga, strategiya biznes modeli va ma'lum bir muassasaning boshqa mahalliy xususiyatlariga asoslangan holda "moslashtirilgan" bo'lishi kerak. Biroq bu universitetlar uchun o'z faoliyatini moliyalashtirishning yangi individual usullarini topish, o'z brendlarni yaratish, ishonchni mustahkamlash orqali o'z tarmoqlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, "an'anaviy universitetlar" haqidagi eskicha yondashuvlarini o'zgartirish, ularning biznes sohasi bilan yaqin aloqalar olib borish, raqobatbardosh ustunliklarni saqlab, "tadbirkorlik universitetlari"ga aylantirish imkoniyati va shu bilan birga, chuqur mas'uliyat hissini anglatadi [16].

Bir so'z bilan aytganda, intellektual mulk strategiyasi va bilimlar transferi strategiyasi Universitet missiyasiga to'liq mos kelishi kerak. Yetakchi iqtisodiyotga ega davlatlardagi ko'pchilik tadqiqot universitetlari so'nggi o'n yil ichida o'zlarining texnologiya va bilimlar transferi ofislarini tashkil etishgan. Ushbu ofislar ixtironi yetkazib beruvchilar (universitet olimlari) va innovatsiyalarni muvaffaqiyatli tijoratlashtira oladigan tadbirkorlar (biznes-angellar, venchur kapitalistlar) o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiladi. Biznesangel – bu yuqori xatarli startup loyihalarini investitsiyalash evaziga startupning ulush va aksiyalariga egalik qiladigan, shuningdek, startupga moliyaviy ko'mak ko'rsatish bilan birga unga tashkiliy yordam beradigan jismoniy shaxsdir.

Shu bilan birga, O'zbekiston tajribasida universitet va ilmiy tadqiqot institutlariga tegishli intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirishning aniq va yagona mexanizmlari belgilanmagan. Bu, ayniqsa, davlat mablag'larini hisobiga yaratilgan intellektual faoliyat na-

tijalari uchun o'ta ahamiyatli. Shu sababdan mazkur sohani tartibga soluvchi hujjatlarni qabul qilish maqsadga muvofiq. Bu 1980-yilda qabul qilingan Bey-Doul qonuni (Bayh-Dole Act of 1980) da belgilangani kabi Amerika tajribasiga ko'ra yoki huquq tizimi nisbatan yaqin bo'lgan Belarus tajribasiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin [17].

Ushbu hujjatlarni qabul qilishda davlat va xususiy sektorning o'zaro foydali hamkorligini rivojlantirish uchun qulay muhit, ixtirochi (muallif)larni rag'batlantirishning samarali mexanizmini yaratish, mustaqil texnologiyalar transferi markazlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy masalalarini belgilash maqsad qilib olinishi kerak.

Har bir oliy ta'lim yoki tadqiqot muassasasi o'zining intellektual mulk siyosati

to'g'risidagi hujjatlarning qabul qilishini shart qilib qo'yish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO)ning Universitetlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari uchun intellektual mulk sohasidagi siyosati to'g'risidagi namunaviy nizom va uni moslashtirish bo'yicha rahbariy qoidalardan kelib chiqqan holda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda O'zbekiston uchun moslangan namunaviy nizomni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur nizom Universitet (tadqiqot muassasasi) intellektual mulk munosabatlari ishtirokchilarining huquqiy munosabatlari chegaralarini, ulardan olinadigan daromadlarni taqsimlash tartibini aniq-ravshan qilib belgilab berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

REFERENCES

1. Siegel D.S., Wright M. Intellectual Property. *The Assessment, Oxford Review of Economic Policy*, 2007, vol. 23(4), pp. 529–540.
2. Association of American Universities. 1998. University technology transfer of government funded research has wide public benefits. Available at: <http://www.aau.edu/research/TechTrans63.98.html>
3. Jumpstart Our Business Startups (JOBS) Act. 2012. Available at: <https://www.sec.gov/spotlight/jobs-act.shtml>
4. Robert E., Litan L.M., Reedy E. J. Commercializing University Innovations: Alternative Approaches Innovation. *Policy and the Economy*, 2007, vol. 8, p. 47. Available at: <https://www.jstor.org/stable/25056198>
5. Karpova N. Legal Protection and Commercialization of Intellectual Property in Russia, in: United Nations Economic Commission for Europe. *Intellectual Assets. Valuation and Capitalization*. Geneva and New York, 2003, pp.102–130.
6. Graham L. Big Science in the Last Years of the Soviet Union, *Osiris 2nd Series*, 1992, vol. 7, pp. 49–71.
7. Kulyagina A., Kolozhvari Yu.B., Koval S.V. An Analysis of the Forms of Commercialization of Intellectual Property Objects of Higher Education Institutions: Russian and International Experience. *Advances in Economics, Business and Management Research, International Scientific Conference "Far East Con"*, 2020, vol. 128, p. 618
8. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2018–2022-yillardagi asosiy faoliyat natijalari [Main results of the activities of the Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan in 2018–2022]. Tashkent, "Innovative Development Publishing House" Publ., 2022, p. 41.
9. Haziman Z., Diyana K., Muhammad A.F., Walton W. Mapping the helix model of innovation influence on education: A bibliometric review. *Front. Higher Education*, 2023, vol. 8. DOI: 10.3389/feduc.2023.1142502

10. Narimanova O.V. Kontseptsiya Universiteta 3.0: perspektivy realizatsii v Rossii v usloviyakh novoy tekhnologicheskoy revolyutsii [The concept of University 3.0: prospects for implementation in Russia in the context of a new technological revolution]. *Personality in a changing world: health, adaptation, development*, 2019, vol. 7, no 2(25).
11. Vasetskaya N.O. Funktsii universiteta v ekonomike znaniy [Functions of the University in the Knowledge Economy]. *Business, Education, Law*, 2019, vol. 2(47), pp. 86–89. Available at: <http://www.unknown.ru/vishee/7563-universitet-30-formirovanie-novyh-rynkov-i-ohota-za-talantami.html>
12. 2024-yilda eng ko'p daromad ko'rgan va xarajat qilgan OTM lar ro'yxati e'lon qilindi [The list of universities with the highest income and expenses in 2024 has been published]. Available at: <https://talimxabarlari.uz/30028/>
13. Elektrotexnika tarmog'ida yangi vazifalar belgilandi [New tasks have been set in the electrical engineering sector]. Available at: <https://kun.uz/kr/news/2022/05/06/elektrotexnika-sohasida-yangi-vazifalar-belgilandi?q=%2Fnews%2F2022%2F05%2F06%2Felektrotexnika-sohasida-yangi-vazifalar-belgilandi#!>
14. Siegel D.S., Veugelers R., Wright M. Technology Transfer Offices and Commercialization of University Intellectual Property: Performance and Policy Implications. *Oxford Review of Economic Policy*, 2007, vol. 23(4), pp. 640–660.
15. Sapir A., Oliver A.L. From academic laboratory to the market: Disclosed and undisclosed narratives of commercialization. *Social Studies of Science*, 2017, vol. 47(1), pp. 33–52.
16. Decree of the President of the Republic of Belarus No. 240 of June 18, 2018 approved the Regulation "On the commercialization of the results of scientific and scientific-technical activities created at the expense of state funds". Available at: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=P31300059>

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./ZECQ1214
UDC: 341.932.32(045)(575.1)

YURIDIK SHAXS SHAXSIY QONUNIGA NISBATAN EKSPLUATATSIYA MARKAZI MEZONINI QO'LLASH MUAMMOLARI

Abduqodirov Abdurauf Baxodir o'g'li,
Toshkent xalqaro universiteti
Huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-6189-1287
e-mail: mustread707@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada xalqaro xususiy huquq sohasida yuridik shaxslarning shaxsiy qonunini aniqlashda qo'llanadigan "ekspluatatsiya markazi" mezonı o'rganilgan, shuningdek, uning qo'llanishi va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Bundan maqsad – ekspluatatsiya markazi mezonining afzalliklari, kamchiliklari va turli davlatlar qonunchiligidagi o'rnini tahlil qilish orqali uning samaradorligini baholashdir. Chunki global iqtisodiyot sharoitida yuridik shaxslarning milliy mansubligini aniqlash masalasi davlatlarning iqtisodiy va ma'muriy nazorati uchun katta ahamiyatga ega. Muammo shundaki, ekspluatatsiya markazi mezonı aniqlik va barqarorlik nuqtayi nazaridan muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa uning qo'llanishini cheklaydi. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy usullaridan foydalanilgan. Maqolada ekspluatatsiya markazi mezonı asosan rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligida yuridik shaxslarning faoliyatini nazorat qilish va milliy iqtisodiyotni himoya qilish vositasi sifatida qo'llanishi ko'rsatilgan. Biroq ushbu mezon yuridik shaxs faoliyatining asosiy joyini aniqlashdagi qiyinchiliklar va uning o'zgaruvchanligi tufayli barqarorlikning yo'qligi kabi kamchiliklarga ega. Ushbu mezon ko'pincha fakultativ (qo'shimcha) sifatida qo'llanadi va inkorporatsiya yoki o'troqlik mezonlariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Xulosada O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga ushbu mezonni qo'shimcha sifatida kiritish bo'yicha taklif berilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro xususiy huquq sohasida, ayniqsa, yuridik shaxslarning xususiy qonunini aniqlashda qonunchilikni takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega. Taklif etilgan yondashuv O'zbekiston qonunchiligini xalqaro standartlarga moslashtirishda va rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishda qo'llanishi mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot huquqshunolar, qonunchilar va amaliyotdagi mutaxassislar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ekspluatatsiya markazi, yuridik shaxs, shaxsiy qonun, xalqaro xususiy huquq, inkorporatsiya, o'troqlik mezonı, huquqiy ziddiyat

ПРОБЛЕМЫ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТЕРИЯ ЦЕНТРА ЭКСПЛУАТАЦИИ В ОТНОШЕНИИ ЛИЧНОГО ЗАКОНА ЮРИДИЧЕСКОГО ЛИЦА

Абдукодиров Абдурауф Баходир угли,
преподаватель кафедры «Юридические науки»
Ташкентского международного университета

Аннотация. В статье рассматривается критерий центра эксплуатации, применяемый в международном частном праве для определения личного закона юридического лица, а также ана-

лизируются особенности его использования и практическое значение. Цель исследования – оценить эффективность данного критерия путём выявления его преимуществ, недостатков и места в законодательстве различных стран. В условиях глобальной экономики определение национальной принадлежности юридических лиц имеет важное значение для обеспечения экономического и административного контроля государств. Проблема заключается в том, что критерий центра эксплуатации с точки зрения определённости и стабильности порождает сложности, что ограничивает его применение. В ходе исследования использованы сравнительно-правовой и логический методы. В статье показано, что данный критерий в основном применяется в законодательстве развивающихся стран как инструмент контроля за деятельностью юридических лиц и защиты национальной экономики. Вместе с тем он обладает недостатками, такими как трудности установления основного места деятельности юридического лица и отсутствие стабильности вследствие изменчивости этого показателя. Как правило, критерий «центр эксплуатации» используется в качестве факультативного (дополнительного) и имеет второстепенное значение по сравнению с критериями инкорпорации или осёдлости. В заключение выдвинуто предложение о введении данного критерия в качестве дополнительного в Гражданский кодекс Республики Узбекистан. Результаты исследования имеют практическую значимость для совершенствования законодательства в сфере международного частного права, в частности в вопросах определения личного закона юридических лиц. Предложенный подход может быть использован для приведения законодательства Узбекистана в соответствие с международными стандартами и защиты экономических интересов развивающихся стран. Кроме того, данная работа может служить полезным источником для юристов, законодателей и практиков.

Ключевые слова: центр эксплуатации, юридическое лицо, личный закон, международное частное право, инкорпорация, критерий осёдлости, коллизия законов

ISSUES OF APPLYING THE EXPLOITATION CENTER CRITERIA TO THE PERSONAL LAW OF A LEGAL ENTITY

Abduqodirov Abdurauf Bakhodir ugli,

Lecturer at the Department of Legal Sciences,
Tashkent International University

Abstract. The article examines the “exploitation center” criterion used in international private law to determine a legal entity’s personal law and analyzes its usage features and practical significance. The purpose of the study is to assess the effectiveness of this criterion by identifying its advantages, disadvantages, and place in the legislation of different countries. In the context of a global economy, determining the national affiliation of legal entities is crucial for ensuring economic and administrative control over states. The problem is that the operation center criterion, in terms of certainty and stability, creates difficulties, which limits its application. During the research, comparative legal and logical methods were used. The article indicates that this criterion is primarily applied in the legislation of developing countries as a tool for monitoring the activities of legal entities and protecting the national economy. At the same time, it has shortcomings such as difficulties in establishing the main place of activity of a legal entity and the lack of stability due to the variability of this indicator. As a rule, the “exploitation center” criterion is used as an optional (additional) criterion and has secondary significance compared to the inclusion or settlement criteria. In conclusion, a proposal was put forward to introduce this criterion as a supplement to the Civil Code of the Republic of Uzbekistan. The research results have practical significance for improving legislation in the field of international private law, in particular, in matters of defining the personal law of legal entities. The proposed approach can be used to bring Uzbek legislation in line with international standards and protect the economic interests of developing countries. Furthermore, this research can serve as a valuable resource for lawyers, legislators, and practitioners.

Keywords: exploitation center, legal entity, personal law, international private law, incorporation, settlement criterion, legal conflict

Kirish

Yuridik shaxslarning milliy mansubligini aniqlash davlatlarning iqtisodiy va ma'muriy nazorati, shuningdek, xalqaro huquqiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. "Ekspluatatsiya markazi" mezonni ushbu jarayonda muhim vositalardan biri, ammo uni qo'llashda aniqlik va barqarorlik nuqtayi nazaridan cheklovlar mavjud. Ushbu mezonning qo'llanishi, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar uchun milliy iqtisodiyotni himoya qilish va yuridik shaxslar faoliyatini nazorat qilishda dolzarb muammolarni keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqib, maqolaning asosiy maqsadi xalqaro xususiy huquqda yuridik shaxslarning shaxsiy qonunini aniqlashda qo'llanadigan "ekspluatatsiya markazi" mezonining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish, shuningdek, ushbu mezonni rivojlanayotgan davlatlar, xususan, O'zbekiston qonunchiligida qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqishdir.

Ekspluatatsiya markazi mezonni xalqaro xususiy huquq bo'yicha ko'plab mualliflar tomonidan o'rganilgan. Xususan, G.K. Dmitriyeva (2022) o'z tadqiqotlarida ushbu mezonning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy xususiyatlarini ta'kidlab, uning rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligida milliy iqtisodiyotni himoya qilish vositasi sifatida qo'llanishini ko'rsatadi. A.M. Gorodisskiy (1983) esa rivojlanayotgan davlatlarning ekspluatatsiya markazi mezonidan foydalanib, xorijiy kompaniyalarni ma'muriy va moliyaviy nazorat ostiga olishga intilishini tahlil qiladi. T. Kaligin (1985) ekspluatatsiya markazi mezonining beqarorlik va aniqlikdagi qiyinchiliklarini tanqid qilib, u faqat qarorlar qabul qilinadigan joy emas, balki faqat amaliy faoliyat maskani sifatida qo'llanishini ta'kidlaydi. A.M. Ladijenskiy (1965) esa mezonni huquqiy subyektlik va xo'jalik faoliyatini aralashtirish nuqtayi nazaridan tanqid qiladi, ammo uning rivojlanayotgan davlatlar uchun ahamiyatini e'tirof etadi. R.T. Yusifova (2018) o'z ishida ekspluatatsiya markazi mezonini yuridik

shaxs millatini aniqlashda qo'llanadigan mezonlar qatorida tilga oladi, lekin undan amalda foydalanish bo'yicha yetarlicha asos keltirmaydi.

Asosiy qism

Ekspluatatsiya markazi mezonni ayrim adabiyotlarda "asosiy faoliyatni olib borish joyi" deb ham nomlanadi va bunda qaysi davlat yuridik shaxsning xo'jalik faoliyati yoki ishlab chiqarishi uchun asosiy joy hisoblansa, ana shu davlat qonuni uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. G.K. Dmitriyeva qayd etganidek: "U siyosiy, huquqiy va iqtisodiy xarakter kabi aniq o'zaklarga ega" [1, 226-b.]. Zero, ekspluatatsiya markazi mezonni rivojlanayotgan davlatlar qonunchiligida ko'proq aks etishining sababi ularning shu yo'l orqali o'z hududlaridagi sanoati rivojlangan davlatlar yuridik shaxslarini nazorat qilishga intilishi bilan bog'liq.

A.M. Gorodisskiyning fikricha [2, 176-b.], rivojlanayotgan davlatlar shu yo'l bilan kompaniyalarni o'zining ma'muriy va moliyaviy nazorati hamda boshqaruvining ma'lum chegaralariga bo'ysundirishga harakat qiladi. Ushbu mezon milliy iqtisodiyotni himoya qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Albatta, bunda rivojlanayotgan davlatlarning o'zlari xorijiy kapital ko'lamini oshirish uchun qulay muhitni, "yengil qonunlar"ni yaratib beradi va shunday sharoitda ularni, ya'ni mamlakatga kirib kelgan yuridik shaxslarni qaysidir yo'l bilan o'ziniki qilishi kerak bo'ladi, ekspluatatsiya mezonni esa shu talabga javob beradi [3, 40-b.].

Albatta, yuridik shaxs o'z funksiyalarini amalga oshiradigan va uchinchi shaxslar bilan munosabat o'rnatgan joyni yuridik shaxs shaxsiy qonuni deb topish tabiiy bo'lishi mumkin. U holda temir yo'l, tog'-kon, bank-moliya sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning asosiy xo'jalik faoliyat joyini aniqlash murakkab bo'ladi. Bu majburiyatni sudga ham yuklash mumkin. Biroq sud yuridik shaxsni bir davlatga tegishlilikdan mahrum qilishi, boshqasiga aloqador deb topishi

davlatlar manfaatlariga ham, yuridik shaxs manfaatlariga ham mos bo'lmashligi mumkin. Tanlov mezon sifatida ekspluatatsiya markazi mezoni Misr fuqarolik kodeksining 11-moddasida [4], Tunis Xalqaro xususiyl huquq kodeksining 43-moddasida [5], Ispaniya Fuqarolik kodeksining 41-moddasida [6] hamda Italiya "Xalqaro xususiyl huquq tizimini isloh qilish to'g'risida"gi qonunning 25-moddasida [7], Hindiston Respublikasi "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonunining 591-moddasida [8] o'z aksini topgan.

Misol uchun, Hindiston qonunchiligiga asosan xorijiy kompaniyalarga nisbatan, xususan, xorijiy davlat qonunlariga muvofiq tashkil etilgan kompaniya Hindistonda "o'z biznes joyi Hindistonda bo'lgan xorijiy kompaniya" sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin [8]. Shuningdek, Italiya "Xalqaro xususiyl huquq tizimini isloh qilish to'g'risida"gi qonunining 25-moddasiga muvofiq, ushbu holatda yuridik shaxsni tashkil etish jarayoni tugallangan mamlakat huquqi, ya'ni inkorporatsiya mezoni qo'llanadi. "Biroq agar bunday yuridik shaxslarning boshqaruv organi Italiyada joylashgan bo'lsa yoki ularning asosiy faoliyati Italiya hududida amalga oshirilgan bo'lsa, Italiya qonunchiligi qo'llanadi" [7]. Mazkur davlatlar qonunchiligidan kelib chiqib aytish mumkinki, ekspluatatsiya markazi mezoni yuridik shaxsni ma'lum bir davlatga mansubligini aniqlashda asosiy emas, fakultativ mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Albatta, ushbu mezon ham kamchilikdan xoli emas. Ekspluatatsiya markazi mezonida yuridik shaxsda bir nechta ishlab chiqarish joyi bo'lishi ulardan qaysi biri asosiy ekanini aniqlashni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, yuridik shaxs istalgan paytda o'zining ishlab chiqarish joyini (ushbu mezonga ko'ra shaxsiyl qonunini) o'zgartirishi mumkin. Bu esa beqarorlikka olib keladi. Bundan tashqari, T. Kaligin aytganidek, asosiy xo'jalik faoliyati joyida qarorlar qabul qilinmaydi, aksincha, u boshqa joyda qabul qilingan qarorlarni amalga oshiradi [9, 1450-b.].

23. The UK’s Domestic Abuse Act, 2021. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/2021/17/section/1/enacted>
24. South African Domestic Violence Act No. 116 of 1998. Available at: <https://www.justice.gov.za/legislation/acts/1998-116.pdf>
25. Korean Act on Special Cases Concerning the Punishment of Crimes of Domestic Violence No. 19068, 2022. Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=61675&lang=ENG

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 07.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI:10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./OUWF1472
UDC: 343.359(045)(575.1)

KONTRABANDA JINOYATI OBYEKTIV BELGILARINING YURIDIK TALQINI

Utebayev Salamat Maksetbay uli,
Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti
ORCID: 0009-0001-0541-6801
e-mail: salamatutebaev232@gmail.com

Annotatsiya. Kontrabanda jinoyatining obyektiv belgilarini jinoyatning obyekti va obyektiv tomoni belgilari, shuningdek, ushbu belgilar bilan bevosita bog'liq fakultativ elementlar tashkil etadi. Jinoyat obyekti har qanday jinoyatning majburiy elementi bo'lishi asnosida kontrabandaning obyekti masalasida huquqshunos olimlar tomonidan kontrabanda jinoyat qonunining qaysi bobidan o'rin olgani va uning predmetiga nimalar kirishiga qarab, turlicha fikrlar bildirilgan. Kontrabandaning umumiy obyektivni aniqlashda ko'plab olimlar an'anaviy ravishda Jinoyat kodeksi maxsus qismining o'rganilayotgan norma joy olgan bo'limiga amal qilishadi. Mazkur maqolada kontrabanda jinoyatining obyektiv tomoniga oid belgilarning yuridik talqini chuqur tahlil qilingan. Jumladan, kontrabanda tushunchasi, uning jinoyat huquqi tizimidagi o'rni, bojxona chegaralaridan tovarlar, valyuta, moddiy boyliklar, ashyolar yoki boshqa predmetlarni noqonuniy olib o'tish harakatlarining yuridik mohiyati ochib berilgan. Maqolada Jinoyat kodeksining 246-moddasi asosida kontrabanda jinoyatining tarkibiy elementlari, xususan, harakat (yoki harakatsizlik), voqea sodir bo'lish vaqti va joyi, jinoyat qurollari hamda usullarining tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, kontrabandaning sodir etilish shakllari, unga xos bo'lgan ijtimoiy xavf darajasi va iqtisodiy xavfsizlikka tahdidi asosida uning boshqa turdagi bojxona huquqbuzarliklaridan farqlari yoritilgan. Maqola amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish zaruratini asoslash va kontrabanda jinoyatlarining oldini olishga oid samarali mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqola so'ngida mavzu yuzasidan muallifning takliflari ham bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kontrabanda, jinoyat tarkibi, obyektiv tomon, bojxona chegarasi, noqonuniy harakat, bojxona qonunchiligi, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik

ЮРИДИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБЪЕКТИВНЫХ ПРИЗНАКОВ ПРЕСТУПЛЕНИЯ КОНТРАБАНДЫ

Утебаев Саламат Максетбай улы,
докторант Каракалпакского государственного
университета имени Бердаха

Аннотация. Объективные признаки преступления контрабанды образуются совокупностью характеристик объекта и объективной стороны преступления, а также факультативных элементов, непосредственно связанных с ними. Поскольку объект преступления является обязательным элементом любого состава преступления, среди

учёных-правоведов существуют различные мнения относительно объекта контрабанды в зависимости от того, к какой главе уголовного закона она отнесена и какие предметы входят в её состав. При определении общего объекта контрабанды многие исследователи традиционно опираются на раздел Особенной части Уголовного кодекса, в котором расположена анализируемая норма. В статье представлен углублённый юридический анализ объективной стороны преступления контрабанды. В частности, раскрывается сущность понятия «контрабанда», её место в системе уголовного права, а также правовая природа действий, связанных с незаконным перемещением товаров, валюты, материальных ценностей, предметов или иных объектов через таможенные границы. Особое внимание уделено анализу составных элементов преступления контрабанды на основе статьи 246 Уголовного кодекса: действия (или бездействия), времени и места совершения преступления, используемых орудий и способов. Также рассматриваются формы совершения контрабанды, уровень её общественной опасности и степень угрозы экономической безопасности государства, что позволяет выявить отличия контрабанды от иных видов таможенных правонарушений. В работе обосновывается необходимость совершенствования действующего законодательства и предлагаются научно-практические рекомендации по разработке эффективных механизмов предупреждения преступлений в данной сфере. В заключительной части статьи представлены авторские предложения по дальнейшему развитию правового регулирования.

Ключевые слова: контрабанда, состав преступления, объективная сторона, таможенная граница, незаконные действия, таможенное законодательство, административная ответственность, уголовная ответственность

THE LEGAL INTERPRETATION OF THE OBJECTIVE ELEMENTS OF THE CRIME OF SMUGGLING

Utebayev Salamat Maksetbay uli,

Doctoral student at Karakalpak State University
named after Berdakh

Abstract. The objective signs of smuggling are the signs of the object and objective side of the crime, as well as optional elements directly related to these signs. Since the object of a crime is a mandatory element of any crime, legal scholars have expressed different opinions on the object of smuggling, depending on which chapter of the criminal law smuggling is contained in and what is included in its subject. When determining the general object of smuggling, many scholars traditionally adhere to the section of the Special Part of the Criminal Code, which contains the norm under study. This article provides an in-depth analysis of the legal interpretation of the objective aspects of smuggling. In particular, the concept of smuggling, its place in the system of criminal law, and the legal essence of the illegal movement of goods, currency, material assets, objects, or other items across customs borders are revealed. The article, based on Article 246 of the Criminal Code, pays special attention to the analysis of the constituent elements of the crime of smuggling, in particular, the act (or inaction), the time and place of the event, and the instruments and methods of the crime. Also, based on the forms of smuggling, the level of social danger inherent in it, and the threat to economic security, its differences from other types of customs offenses are highlighted. The article contains scientific and practical recommendations aimed at substantiating the need for further improvement of current legislation and developing effective mechanisms for preventing smuggling crimes. Also, at the end of the article, the author's proposals on the topic are presented.

Keywords: smuggling, elements of a crime, objective side (of a crime), customs border, unlawful action, customs legislation, administrative liability, criminal liability

Kirish

Zamonaviy sharoitda transmilliy jinoyatlar qatorida kontrabanda jinoyati global va mintaqaviy miqyosda eng xavfli huquqbuzarliklardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jinoyat davlatning iqtisodiy manfaatlari va moliyaviy barqarorligiga putur yetkazish bilan birga, jamoat xavfsizligi, aholining sog'lig'i, ekologik barqarorlik, madaniy merosni asrash hamda xalqaro xavfsizlikka ham jiddiy tahdid tug'diradi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, tashqi savdo aylanmasining ortishi va transport-logistika tizimining kengayishi bojxona chegaralari orqali noqonuniy tovar aylanmasi xavfini kuchaytiradi.

Kontrabanda jinoyatining obyektiv belgilarini to'g'ri talqin etish, uni boshqa bojxona huquqbuzarliklaridan farqlash va sud-amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Amaldagi qonunchilikda ayrim normativ bo'shliqlar, turlicha talqinlar va huquqni qo'llashdagi noaniqliklar jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli kontrabanda jinoyatining obyektiv belgilarini chuqur o'rganish va ularni huquqiy jihatdan izchil asoslash bugungi kunda juda muhimdir.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasi doirasida kontrabanda jinoyatining obyektiv belgilarini ilmiy-huquqiy tahlil qilish, ularning tarkibiy elementlarini aniqlash va huquqni qo'llash amaliyotida uchraydigan muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Kontrabanda jinoyatining obyektiv belgilarini jinoyatning obyekti va obyektiv tomoni belgilari, shuningdek, ushbu belgilar bilan bevosita bog'liq fakultativ elementlar tashkil etadi.

Jinoyat obyekti har qanday jinoyatning majburiy elementi bo'lishi asnosida kontrabandaning obyekti masalasida huquqshunos olimlar tomonidan kontrabanda jinoyat qonunining qaysi bobidan o'rin olgani va

uning predmetiga nimalar kirishiga qarab, turlicha fikrlar bildirilgan. Bunga sabab kontrabanda buyumlari masalasi munozarali ekanligidir. Ya'ni buni qonunda kontrabanda obyekti bo'lgan ijtimoiy munosabatlar turlari to'g'ridan to'g'ri belgilanmagani, shuningdek, kontrabanda, boshqa ko'plab jinoyatlar singari bir vaqtning o'zida jinoyat qonuni bilan himoyalangan bir nechta ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi mumkinligi bilan izohlash mumkin (masalan, noqonuniy giyohvand moddalar, kuchli, zaharli moddalar va boshqalarni olib kirish, eksport qilish va boshqalar).

Kontrabanda jinoyatini huquqiy jihatdan to'g'ri baholash va unga qarshi samarali kurash olib borish uchun dastlab ushbu jinoyatning tarkibiy elementlarini, xususan, uning obyektiv tomoniga oid belgilarni chuqur tahlil qilish alohida ahamiyatga ega. Jinoyatning obyektiv belgilarini to'g'ri aniqlash uni boshqa bojxona qoidabuzarliklaridan farqlash, jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Kontrabandaning umumiy obyektini aniqlashda ko'plab olimlar an'anaviy ravishda Jinoyat kodeksining maxsus qismidagi o'rganilayotgan norma joy olgan bo'limiga amal qilishadi [1; 2].

Yoritilayotgan va tahlil qilinayotgan kontrabanda jinoyati obyektiv belgilarining yuridik talqiniga bag'ishlangan mazkur ilmiy tadqiqotimizda kontrabanda jinoyatining obyektiv tomoniga oid belgilarning yuridik talqini, jinoyat kodeksidagi normalar asosida ilmiy-amaliy yondashuvlar, shuningdek, amaldagi qonunchilikda mavjud muammolar va takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Ushbu jarayonlarning birmuncha murakkabligi mavzuning dolzarbligidan, tadqiq etish ehtiyoji borligidan dalolat beradi desak, adashmaymiz.

Asosiy qism

Umuman olganda, huquqshunos olimlar tomonidan kontrabanda "bir vaqtning o'zida bir nechta obyektlarga tajovuz qila-

digan ko'p obyektli jinoyat" sifatida baholanadi [3]. Jumladan, B.V. Voljenkin kontrabandaning bevosita obyekti sifatida "tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning belgilangan tartibini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlar"ni qayd etgan. V.I. Mixaylov va A.V. Fedorovlar bunday obyekt sifatida "bojxona ishi sohasidagi jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan, bojxona chegarasi orqali tovar ayirboshlashning belgilangan tartibini va budjetga bojxona bojlari va yig'imlarini kiritishni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar"ni belgilaganlar [4]. N.A. Lopashenkoning nuqtayi nazariga ko'ra, kontrabandaning bevosita obyekti "iqtisodiy faoliyatda xulq-atvorning bila turib jinoiy shakllarini taqiqlash prinsipiga mos keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar" hisoblanadi. A.V. Naumovning fikricha, kontrabandaning bevosita obyekti "bojxona chegarasi orqali tovar aylanmasini ta'minlashga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatning belgilangan tartibi" hisoblanadi. G.A. Rusanov ham kontrabandaning bevosita obyekti sifatida "tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning belgilangan tartibi"ni ko'rsatadi [5].

Shuningdek, mazkur jinoyatning obyekti bo'yicha quyidagi olimlarning ham fikrlariga to'xtalib o'tish o'rinli. I.M. Galperin kontrabanda obyektini "bojxona qonunchiligi bilan qo'riqlanadigan, davlatning iqtisodiy xavfsizligiga rioya etilishini ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlar" deb ta'riflagan. Y.V. Gracheva o'z ilmiy ishlarida kontrabanda obyekti davlatning iqtisodiy tizimida (tovarlar, qimmatbaho metallar, valyuta kontrabandasi), jamoat xavfsizligi (qurol-yarog', narkotik moddalar, zaharli moddalar kontrabandasi) va madaniy meros (tarixiy va madaniy boyliklar noqonuniy olib o'tilganda) bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan. A.I. Dolgova kontrabanda obyektini tovarlarni qonunga xilof ravishda chegara orqali olib o'tish bilan buziladigan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar majmui,

deb ta'riflagan. U strategik muhim tovarlar (masalan, qurol yoki zaharli moddalar) kontrabandasida nafaqat iqtisodiyot, balki butun jamiyat xavfsizligi ham jinoyat obyektiga aylanishiga alohida e'tibor qaratdi [6]. V.N. Kudryavsev jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish nazariyasida obyektini kontrabandani to'g'ri kvalifikatsiya qilishga imkon beradigan jinoyat tarkibining asosiy elementi sifatida tavsiflagan. Uning ta'kidlashicha, kontrabandaning har xil turlari (tovar, narkotik, qurol) uchun asosiy obyekt o'zgarishi mumkin, lekin bu har doim davlat va jamiyat manfaatlariga ta'sir qiladi [7]. N.F. Kuznetsov kontrabanda obyektini uning moliyaviy tizimini himoya qilish hamda tovarlar va boyliklarning noqonuniy aylanishidan zararining oldini olish maqsadida davlat tomonidan qo'riqlanadigan iqtisodiy munosabatlar sifatida ajratgan. Uning ta'kidlashicha, kontrabanda turiga qarab, obyekt kengayishi va jamoat xavfsizligini o'z ichiga olishi mumkin [8]. A.N. Ignatov Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksiga sharhlarida kontrabanda obyektini quyidagicha ta'riflagan: "Asosiy obyekt – davlatning iqtisodiy xavfsizligi va tashqi iqtisodiy faoliyatning belgilangan tartibi. Qo'shimcha obyektlar – aholi salomatligi (giyohvand moddalarni kontrabanda qilishda), ekologik xavfsizlik (zaharli moddalarni noqonuniy olib o'tishda), madaniy meros (tarixiy boyliklarni olib chiqishda)" [9].

Ko'rsatilgan kontrabanda obyekti haqidagi fikrlariga ko'ra, olimlarni quyidagicha ajratish mumkin:

1. Davlatning iqtisodiy manfaatlari va xavfsizligi (A.I. Boyko, B.V. Voljenkin, S.V. Maksimov, V.I. Mixaylov)
2. Madaniy boyliklarni muhofaza qilish (L.Y. Rodina, G.A. Korchagin)
3. Xalqaro va davlat huquq normalarini muhofaza qilish (Y.P. Garmayeva, A.S. Gorelik)
4. Jamoat tartibi va salomatligini buzish (I.A. Klepitskiy, Y.I. Suchkov)

5. Tashqi savdo va moliyaviy sohani himoya qilish (D.V. Kozemaslov, L.F. Rogatix)

6. Ijtimoiy tahdid va aholi xavfsizligi (Sh.N. Saidov, Y.O. Filippova) [10].

Demak, aksariyat olimlar kontrabandaning asosiy obyekti davlatning iqtisodiy xavfsizligi va tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tishning belgilangan tartibi, degan fikrda to'xtalgan. Biroq kontrabanda predmetining o'ziga xos xususiyatlariga (tovarlar, narkotiklar, qurollar, madaniy boyliklar) qarab, obyekt jamoat xavfsizligi, aholi salomatligi, madaniy meros yoki ekologik xavfsizlik kabi boshqa ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Kontrabandaning obyekti – mazkur jinoyat predmeti hisoblangan narsalarni bojxona chegarasidan olib o'tishning qonun bilan belgilangan tartibi, shuningdek, jamoat xavfsizligi, aholi salomatligi, insoniyat tinchligi va xavfsizligi.

Jinoyatning obyektiv tomoni xususida to'xtaladigan bo'lsak, jinoyatning obyektiv tomoni ijtimoiy-xavfli qilmishning tashqi tomoni bo'lib, jinoyatning qanday sodir etilishini ko'rsatadi. Aynan ijtimoiy xavfli qilmishning tashqi tomoni bir jinoyatni ikkinchisidan ajratish imkonini beradi, chunki bitta obyektga tajovuz qilish ijtimoiy xavfli qilmish xarakteri va darajasi bo'yicha umuman boshqa bo'lishi mumkin.

Jinoyatning obyektiv tomoni asosan O'zbekiston Respublikasi JKning maxsus qismi moddalari dispozitsiya va bandlarida ko'rsatiladi va u aynan moddaning dispozitsiyasida ta'riflanadi.

Kontrabanda jinoyatining obyektiv tomoni kuchli ta'sir qiluvchi zaharli, zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlatish qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurol yoki o'q-dorilar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlari,

shunday qurollarni yaratishda foydalaniishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tishning bir necha turi kuzatiladi.

1. *Yuqorida nomi sanalgan material va moslamalarni bojxona nazoratini chetlab olib o'tish* deganda kontrabanda predmetini bojxona organlari tomonidan belgilangan joylardan boshqa joylarda yoxud bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshiriladigan vaqtdan tashqari vaqtda qonunga xilof ravishda olib o'tish tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ta'kidlanganidek, "bojxona nazoratini chetlab, tovarlar yoki boshqa moddiy qimmatliklar, shuningdek, kontrabanda ashyolari uchuvchisiz uchadigan apparatdan foydalanilgan holda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazilganida JK 244⁴-yoxud 248¹-moddasi bilan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim".

2. *Bojxona nazoratidan yashirib o'tish* deganda kontrabanda predmetini tashqaridan qaraganda ko'rinmaydigan tarzda yashirib, shu jumladan, maxfiy tuynuklardan yoki kontrabanda predmetini payqashni qiyinlashtiradigan boshqa usullardan foydalanib yoxud bir predmetni boshqa predmetga o'xshatib ko'rsatish, uni boshqa buyumlar bilan aralashtirgan holda yashirish orqali ko'zdan pana qilish tushuniladi.

R. Kabulovning fikricha, "tovarlarni olib o'tish (yoki boshqa tarzda ko'chirish) nazoratsiz yoki nazoratdan yashirib o'tish maxsus tayyorlangan narsa yashiradigan hamyonlar, joylarda bojxona chegarasidan boyliklarni yashirib olib o'tayotganda, shuningdek, ushbu maqsadlarda maxsus moslashgan idishlar yoki transport vositalaridagi pana joylar, bagajlar, kiyim-kechaklar, oziq-ovqat mahsulotlari (masalan, ikki qavat tagligi bo'lgan jomadon yoki konserva bankasidan foydalanish, kiyimda bo'shliq yoki narsa ya-

shiradigan joylarni qoldirish va hokazolar)da namoyon bo'ladi" [11].

E. Muxamadaliyev esa "tovarlarni bojxona nazoratidan yashirish deganda ularni topishni qiyinlashtirish yoxud ularning asl xususiyati yoki miqdorini yashirish (masalan, ayrim tovarlarga boshqasining ko'rinishini berish, tovarlarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o'tkazish uchun maxsus tayyorlangan yoki moslashtirilgan xufiya joylardan (jomadonlar, sumkalar, transport vositalari, konteynerlar va boshqa tashish vositalarining konstruksiyaviy (tuzilish) xususiyatiga ko'ra, ashyolarini saqlash yoki tashishga mo'ljallanmagan bo'shliqlari, devorlari (ramalari) oralaridan foydalanish, jinoyat predmetlarini odam tanasida yashirish)ga qaratilgan har qanday harakatlar tushuniladi" [12] deb hisoblaydi.

Bojxona nazoratidan yashirib o'tish kontrabanda predmetini bojxona chegarasidan olib o'tilishi taqiqlanmagan, muomalasi cheklanmagan boshqa buyumlarga o'xshatib, tashqi ko'rinishini o'zgartirish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda kontrabanda predmetining tashqi belgilari jiddiy o'zgartirilishi natijasida uni tashqi ko'zdan kechirishda boshqa turdagi predmet deb hisoblash mumkin bo'ladi. Masalan, giyohvandlik moddasi un, shakar kabi iste'mol tovarlari, portlovchi moddalar ham maishiy tovarlar ko'rinishida olib o'tilishi mumkin.

3. *Bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib o'tish* deganda kontrabanda predmeti bo'lgan buyum va predmetlarni bojxona chegarasidan olib o'tish uchun asos sifatida bojxona nazorati organlariga qalbakligi ayon bo'lgan yoxud noqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritilgan, ya'ni boshqa mahsulotlarga tegishli bo'lgan bojxona hujjatlarini yoki vositalarini yoxud ularga o'xshatib yasalgan hujjatlarni taqdim etish, xuddi shuningdek, soxta yorliq, tamg'a, markirovka, shtamp, muhr va boshqa vositalarni yoxud haqiqiy bo'lsa-da, boshqa mahsulotlarga tegishli bo'lganlaridan

foydalanish tushuniladi. Bunda aldash bojxona organiga kontrabanda predmetini bojxona chegarasidan o'tkazish maqsadida soxta hujjatlarni, noqonuniy yo'l bilan olingan hujjatlarni, noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlarni, boshqa mahsulotlarga taalluqli hujjatlarni, shu jumladan, ularni bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasagan holda taqdim etishda namoyon bo'ladi. Bunda bojxona organlarini aldash kontrabanda predmetini bojxona chegarasidan o'tkazish maqsadiga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Aldash kontrabanda jinoyati obyektiv tomonining har qanday usuliga xos bo'lishi mumkin.

Soxta hujjatlar deganda to'liq qalbaki bo'lgan hujjatlar yoki asli haqiqiy bo'lsa-da, noqonuniy o'zgartirish kiritilgan, ya'ni matnning bir qismi o'chirib tashlangan, qo'shimcha ma'lumotlar kiritilgan va boshqacha tarzda tuzatilgan hujjatlar tushuniladi.

Oliy Sud Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qaroriga ko'ra, bojxona hujjatlari yoki bojxona identifikatsiyalash vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish deb bila turib qalbaki hujjatlar; bila turib yolg'on ma'lumotlar kiritilgan hujjatlar; qonunga xilof ravishda olingan yoki boshqa tovarlarga tegishli hujjatlar; haqiqiy bo'lmagan hujjatlarni bojxona organlariga taqdim etish, shuningdek, qalbakilashtirilgan bojxona identifikatsiyalash vositalaridan (plombalar, muhrlar, tamg'alar bosish, identifikatsiyalash belgilari, shtamplar va BK 197-moddasida nazarda tutilgan boshqa identifikatsiyalash vositalari) yoki boshqa tovarlarga tegishli haqiqiy identifikatsiyalash vositalaridan foydalanish tushunilishi lozim.

4. *Kontrabanda usuli sifatida deklaratsiyaga kiritmaslik yoki o'zgacha nom bilan deklaratsiyaga kiritish deganda* shaxslarning chegaradan o'tkazilishi lozim bo'lgan kontrabanda ashyolarini deklaratsiya qilish tartibini

buzishi bilan bog'liq harakatlari, ya'ni bojxona qonunlari tomonidan o'rnatilgan deklaratsiya qilish formasi va joyi to'g'risidagi, uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi, deklaratsiya va boshqa qo'shimcha hujjatlar taqdim etish muddatlari to'g'risidagi talablarga rioya etmaslik, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan yoki uning hududidan olib chiqilayotgan kontrabanda ashyolari, tovar yoki boshqa qimmatliklarning turi, soni xususida deklaratsiyaga soxta ma'lumotlar kiritish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida esa hujjat qalbaki ekanini bila turib, uni bojxona organlariga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxs harakatlari JK 246-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi va qo'shimcha ravishda 228-moddasi bilan kvalifikatsiya qilishni talab etishiga oid norma belgilanmagan.

Ba'zi adabiyotlarda bila turib qalbaki hujjat tuzgan yoki hujjatga yoxud bila turib olgan qalbaki hujjatiga soxta ma'lumotlar kiritgan va uni bojxona organlariga haqiqiy hujjat sifatida taqdim etgan shaxs jinoyatlar majmui bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 209- yoki 228-moddasi bilan jinoy javobgarlikka tortilishi belgilangan [13]. Shu sababli, sudlar tomonidan kontrabanda sodir etgan shaxs tomonidan qalbaki hujjat asosida qonun bilan taqiqlangan buyum yoki ashyolarning O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan o'tkazilishini JKning 228- va 246-moddalari asosida jinoyatlar majmui sifatida kvalifikatsiya qilinishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holatni jinoyatning fakultativ belgisi zaruriy belgi sifatida kelganida ham fakultativ belgi sifatida baholanib, jazo tayinlashda javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat bo'layotgani sifatida baholash mumkin.

Shu o'rinda jinoyatning fakultativ belgilari jinoyatning mohiyatiga ko'ra usiz amalga oshirish imkoni yo'qligidan kelib chiqib jinoyatning asosiy tarkibiy elementi sifatida

kelishi mumkinligini, bunda qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyatning fakultativ belgilari jinoyat qonuni maxsus normasida aks etgani katta ahamiyatga egaligini alohida qayd etib o'tish lozim [14].

JKning 246-moddasida kontrabanda jinoyatini bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib sodir etish belgilangani, ya'ni bojxona hujjatlarini soxtalashtirish hamda deklaratsiyasiz kontrabanda ashyolarini davlat chegarasidan o'tkazish mazkur jinoyatning obyektiv tomonidagi zaruriy belgi ekanini inobatga olish lozim. Mazkur holatda shaxsning kontrabandani bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoxud vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib sodir etishi jinoyatni sodir qilish usuli, ya'ni jinoyat sodir qilinayotganda aybdor tomonidan jinoyatni sodir qilishda ishlatiladigan aniq usul va uslublar birligi deb baholash maqsadga muvofiq [15]. Zero, o'zi aslida qonun bilan taqiqlangan ashyoni davlat chegarasidan olib o'tuvchi shaxsda ushbu ashyo hujjatini soxtalashtirmasdan olib o'tishning iloji yo'q. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatida esa hujjatni soxtalashtirmasdan ham ashyoni olib kirish imkoniyati mavjud.

Xulosa

Kontrabanda jinoyatining obyektiv belgilariga oid yuqorida keltirilgan fikrlar hamda tadqiqot ishi yuzasidan kontrabandaning kvalifikatsiya qilinishida jinoyat huquqi nazariyasining ahamiyatiga asoslangan holda tadqiqot ishi yuzasidan quyidagi xulosa va takliflarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, JK 246-moddasi kontrabanda tarkibiga kiruvchi diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi

materiallarni JKning 244³-moddasi 2-qismi sifatida kiritish maqsadga muvofiq. Zero, kontrabanda dunyo hamjamiyati tomonidan qarshi kurashish uchun samarali choralarni ishlab chiqish bo'yicha sa'y-harakatlarni faollashtirishni talab etuvchi transmilliy jinoyat sifatida e'tirof etiladi va buning uchun davlatlar tomonidan kontrabanda haqida yagona tushuncha hamda umumiy yondashuv talab etadi. Shuningdek, JKning 244³-moddasi kontrabanda bilan turdosh obyektni, ya'ni jamoat xavfsizligini tashkil etishi hamda mazkur taklif bilan JKning 244³-moddasi ham ikki qismdan iborat bo'lishi, predmetlarning ijtimoiy xavflilik xususiyatiga qarab jazo choralari ham kuchayib borishi nazarda tutiladi;

ikkinchidan, JKning 246-moddasi 1-qismida psixotrop moddalarning aniq miqdor ko'rsatkichlari, ya'ni ozginadan ko'p miqdorning belgilanishi maqsadga muvofiq. To'g'ri, har qanday psixotrop moddaning davlat chegarasidan o'tkazilishi o'ta xavfli va unda miqdor ko'rsatkichlari ahamiyatsiz ekanligi Oliy Sud Plenumining "Bojxona to'g'risidagi

qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida o'z ifodasini topgan. Biroq mazkur taklif orqali shaxslarning xorijiy mamlakatlarda tibbiy maqsadlarda foydalanilish maqsadida erkin savdosi yo'lga qo'yilgan tibbiy vositalarni o'z salomatligi uchun davlat chegarasidan olib kirishiga ruxsat berilishi nazarda tutilgan;

uchinchidan, Oliy Sud Plenumining "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qaroriga kontrabanda hujjatlar qalbakilashtirilishi bilan sodir etilganida jinoyatlar majmui sifatida kvalifikatsiya qilinmasligi lozimligi to'g'risidagi normani kiritish lozim. Zero, bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanish, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanish kontrabanda tarkibi obyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanib, shaxsda mazkur harakatlarni amalga oshirmasdan taqiqlangan ashyoni davlat chegarasidan olib kirish imkoni mavjud emas.

REFERENCES

1. Naumov A.V. Rossiyskoye ugovnoye pravo [Russian criminal law]. Moscow, 1998, pp. 15, 153.
2. Zdravomyslova B.V. Ugolovnoye pravo Rossiyskoy Federatsii [Criminal law of the Russian Federation]. Moscow, 1996, pp. 116–119.
3. Karabanova Ye.N. Mnogoob'yektnye prestupleniya: teoriya, zakonodatel'stvo, praktika [Multi-object crimes: theory, legislation, practice]. Moscow, 2020, pp. 22–23.
4. Mikhaylov V.I., Fedorov A.V. Tamozhennye prestupleniya: ugolovno-pravovoy analiz i obshchiye voprosy operativno-rozysknoy deyatel'nosti [Customs crimes: Criminal-legal analysis and general issues of operational-search activities]. Butterfly Publ., 1999, p. 344.
5. Rusanov G.A. Kontrabanda kul'turnykh tsennostey: ugolovno-pravovoye, kriminologicheskoye i sravnitel'no-pravovoye issledovaniye [Smuggling of cultural property: a criminal-legal, criminological and comparative-legal study]. Moscow, 2009, p. 200.
6. Dolgova A.I. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, Norm Publ., 2005, p. 912.
7. Kudryavtsev V.N. Obshchaya teoriya kvalifikatsii prestupleniy [General theory of crime classification]. Moscow, Lawer Publ., 2007, p. 302.
8. Kuznetsov A.P. Kontrabanda nalichnykh denezhnykh sredstv i (ili) denezhnykh instrumentov: ugolovno-pravovaya reglamentatsiya i voprosy kvalifikatsii [Smuggling of cash and/or monetary instruments: criminal law regulation and qualification issues]. Russian investigator Publ., 2015.

9. Utebayev S.M.U. The concept of smuggling criminal. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2023, vol. 5(12), pp. 22–29.
10. Utebayev S. Smuggling as a threat to public safety. *Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences*, 2025, vol. 4(1), pp. 62–67.
11. G'ulomov Z.X., Zufarov R.A., Kabulov R.K., Kudirov M.M. O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi kodeksiga asoslanadi [Uzbekistan is based on the Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2002, pp. 232–233.
12. Muxamadaliyev E. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish jinoyatining obyektiv belgilari [Objective signs of the crime of violating customs legislation]. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 3, pp. 138–139.
13. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Maxsus qism [Commentary on the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. Special part]. Tashkent, Adolat Publ., 2016, p. 704.
14. Popov A. N. Ob'yektivnaya storona sostava prestupleniya [The objective side of the crime]. Saint Petersburg, Saint Petersburg Law Institute (branch) of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Russian Federation Publ., 2015, p. 47.
15. Utebayev S.M. Kontrabanda jinoyatining oldini olish muammolari [Problems of preventing smuggling crime]. *Newsletter of the Berdaq Karakalpak State University*, 2024, vol. 1(64), pp. 246–249.

Kelib tushgan / Получено / Received: 11.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI:10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./TKBU6750

UDC: 343.7(045)(575.1)

ONLAYN BANKLAR FAOLIYATI SOHASIDA FIRIBGARLIKNI KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

Nurmanov Xolbek Rahmatilla o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-2582-7720

e-mail: xolbek.nurmanov123@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizning moliya va iqtisod sohasida tobora salmoqli o'ringa ega bo'lib borayotgan onlayn banklar faoliyatida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan kiberfiribgarlik jinoyatlarini kvalifikatsiya qilish masalalari, ushbu jinoyatlarni sodir etishning ijtimoiy xavfli oqibatlarini, shuningdek, ularni sodir etish tufayli jabrlangan shaxslarning viktin harakatlari tahlil qilinadi. Muallif onlayn banklar faoliyati sohasidagi firibgarlik uchun milliy jinoyat qonunchiligida munosib javobgarlik choralari belgilanmaganligi, shu bois ushbu ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun munosib va uning oldini olish uchun yetarli yuridik javobgarlikni belgilash zarur degan xulosaga kelgan, tadqiqotchining fikricha, asosiy obyekt ostida o'zga shaxsning mol-mulki yoki mulkiy huquqlari, moddiy manfaatlari, qo'shimcha obyekt ostida esa tegishli tartibda kompyuter texnologiyalari, kompyuter tizimlari tushunilishi lozim. Shu munosabat bilan maqolada milliy jinoyat qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorini onlayn banklar sohasida sodir etiladigan firibgarlik va o'g'rilikni o'zaro farqlash va to'g'ri kvalifikatsiya qilishga oid zarur huquqiy qoidalar bilan to'ldirishga oid taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: firibgarlik, talon-toroj, bank, onlayn, kredit, o'g'rilik, mol-mulk, kompyuter axboroti

ВОПРОСЫ КВАЛИФИКАЦИИ МОШЕННИЧЕСТВА В СФЕРЕ ОНЛАЙН-БАНКИНГА

Нурманов Холбек Рахматилла угли,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного

юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы квалификации кибермошенничества, совершаемого с использованием компьютерных технологий в сфере онлайн-банкинга, который занимает всё более значимое место в финансово-экономической системе страны. Анализируются социально опасные последствия данных преступлений, а также вictimное поведение пострадавших лиц, ставших жертвами таких противоправных действий. Автор отмечает, что национальное уголовное законодательство пока не предусматривает адекватных мер ответственности за мошенничество в сфере онлайн-банкинга. В связи с этим делается вывод о необходимости установления надлежащих и достаточных юридических механизмов для предупреждения и пресечения данных правонарушений. По мнению автора, основным объектом преступления в данном случае являются имущество, имущественные

права и материальные интересы граждан, тогда как дополнительным объектом выступают компьютерные технологии и системы, используемые в банковской деятельности. В статье предложены рекомендации по внесению изменений в национальное уголовное законодательство, а также по дополнению постановления Пленума Верховного суда Республики Узбекистан правовыми положениями, направленными на разграничение и правильную квалификацию мошенничества и хищений, совершаемых в сфере онлайн-банкинга.

Ключевые слова: мошенничество, хищение, банк, онлайн, кредит, кража, имущество, компьютерная информация

ISSUES OF QUALIFICATION OF FRAUD IN THE SPHERE OF ONLINE BANKING

Nurmanov Kholbek Rahmatilla ugli,

Independent researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the issues of qualifying cyber fraud crimes committed using computer technologies in the activities of online banks, which are becoming increasingly important in the financial and economic sphere of our country, the socially dangerous consequences of committing these crimes, as well as the victim actions of persons affected by their commission. The author came to the conclusion that the national criminal legislation does not establish appropriate liability measures for fraud in the field of online banking activities; therefore, it is necessary to establish appropriate legal liability for these socially dangerous acts and sufficient for their prevention. According to the researcher, the main object should be understood as the property or property rights and material interests of another person, and the additional object should be understood as computer technologies and computer systems in the appropriate manner. In this regard, the article puts forward proposals and recommendations for amendments to the national criminal legislation, as well as for supplementing the resolution of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan with the necessary legal provisions for the differentiation and correct qualification of fraud and theft committed in the field of online banking.

Keywords: fraud, embezzlement, bank, online, credit, theft, property, computer information

Kirish

Bugungi kunda global axborot maydonida kibermakon bilan bog'liq yangidan yangi tahdidlar yuzaga kelmoqda. Shu bois virtual olamdagi hujumlardan himoyalaniş masalasi dunyo hamjamiyatini jiddiy tashvishga solmoqda.

Tahlillarga ko'ra, dunyo bo'ylab har yili 500 milliondan ortiq kiberhujumlar uyushiriladi [1]. Har soniyada 12 nafar insondan biri kibermakonda sodir etilgan hujumlar qurboniga aylanadi. Amerika Qo'shma Shtatlari, Fransiya, Angliya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi rivojlangan davlatlarda jinoyatlarning 60-65 foizi kiberhujumlar orqali sodir etilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi uch yilda bu turdagi jinoyatlar 8,3 baravarga ko'payib, hozirda umumiy jinoyatchilikning qariyb 5 foiziga yetgan.

2021–2024-yillarda kiberjinoyatlar oqibatida fuqarolarning 1 trillion 909 milliard so'mdan ortiq mablag'i talon-toroj qilingan. 2024-yilning o'zida esa zarar 603 milliard so'mni tashkil etgan.

Jumladan, 2019-yilda axborot texnologiyalari orqali 18 turdagi 863 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2024-yilda 62 turdagi 58 ming 800 ta jinoyat qayd etilgan. Kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi sezilarli ravishda ortishi ularning oldini olish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda.

2023-yilda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi 6,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 44,4 foizga yetib, deyarli har ikkita jinoyatning biri axborot texnologiyalari orqali sodir etilgan. Kiberjinoyatlarning asosiy qismini (98 foizi) bank kar-

talari bilan bog'liq jinoyatlar (kibero'g'rilik va kiberfiribgarlik) tashkil qilmoqda [2].

Xususan, noqonuniy bank-moliya operatsiyalari orqali o'zgalarning plastik kartadagi mablag'larini o'zlashtirish, zararli viruslar tarqatish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn o'yinlar, diniy aqidaparastlikka qaratilgan axborot xurujlari, onlayn savdo maydonidagi firibgarlik jinoyatlari ko'payib bormoqda.

Achinarlisi, axborot texnologiyalari yordamida huquqbuzarlik va jinoyatga qo'l urgan shaxslar orasida yoshlar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Respublikamizda virtual olamdagi qonunbuzilishlarning aksariyati 16-23 yosh oralig'idagi o'smir-yoshlar tomonidan sodir qilinmoqda [3]. Bundan ko'rinib turibdiki, kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasi bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shunga ko'ra, 2025-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-153-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan voyaga yetmaganlar banklarda hisobraqamlar va bank kartalarini ochishi yuzasidan tegishli talablar ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi.

Banklar ota-onalarni ularning voyaga yetmagan farzandlari bilan bog'liq shubhali (frod) operatsiyalar haqida xabardor qilish amaliyotini yo'lga qo'yadi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ilmiy tadqiqotning umumiy va maxsus usullari: tizimli, sotsiologik, qiyosiy-huquqiy, tahliliy, miqdoriy tahlil (kontent-tahlil) va boshqa usullardan foydalanilgan. Mazkur usullarning barchasi ma'lum darajada tadqiqot natijalarining aniqligi va asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Respublikamizda o'zgalar mulkini kompyuter vositalaridan foydalanib talon-toraj qilganlik uchun javobgarlik (X.R. Ochilov) [4] mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertat-

siyasi, axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik choralarini takomillashtirish (A.K. Rasulev) [5] mavzusida doktorlik dissertatsiyasi (DSc) himoya qilingan. Ushbu tadqiqotlarda o'zgalar mulkini talon-toraj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning sabablari va sharoitlari, kompyuter firibgarligi, axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarini takomillashtirish tadqiq etilgan.

A.A. Shutova, M.A. Prostoserdov, M.Y. Shalyapina, A.Y. Chuprova, Z.I. Xisamovlarning iqtisodiyot sohasida axborot vositalaridan foydalanib, sodir etilgan jinoyatlar, S. Furnell (Avstraliya), P. Grabosky (AQSh), P. Himanenlarning (Finlandiya) kiberjinoyatchi va xaker shaxsi, E. Hickey (Avstriya), D. Parkerlarning (AQSh) kiberjinoyatlarning kriminologik jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarini ta'kidlash lozim.

Asosiy qism

Global tarmoqqa ulanish, ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish va masofadan kirishdan foydalangan holda operatsiyalarni ishlab chiqish kompyuter tizimlari orqali identifikatsiyalangan ma'lumot yoki shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi. Bunday jinoyatlarning predmeti ham doimiy foydalanib kelinadigan identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlar, ham yangi identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlar, shu jumladan, kredit karta raqamlari, bank hisobvaragi ma'lumotlari, pasport va haydovchilik guvohnomasi raqamlari, Internetdagi hisoblar, parollar va IP-manzillardir.

Hozirgi vaqtda bank sohasida, jumladan, masofaviy bank tizimlari yoki onlayn bankingda "yuqori texnologiyalar" faol qo'llanmoqda.

Kiberjinoyatlar asosan quyidagi usullarda kuzatilmoqda:

60 foizi – zararli havolalar va dasturlar yuborish orqali bank kartasi yoki mobil

qurilma boshqaruvini qo'lga kiritish yo'li bilan;

16 foizi – turli aldovlar bilan bank kartasi hamda mobil ilovalardagi akkauntlar boshqaruvini tasdiqlovchi SMS kodni qo'lga kiritish yo'li bilan;

4 foizi – shaxs nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish orqali;

11 foizi – onlayn savdo platformalaridagi firibgarliklar orqali;

9 foizi – turli usuldagi firibgarlik sxemalari orqali fuqarolarning pul mablag'larini jalb qilish tarzida sodir etilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu bank xizmatlarining paydo bo'lishi bank sohasida sodir etilgan firibgarliklarni kvalifikatsiya qilishni sezilarli darajada murakkablashtirdi. Onlayn banking mijozning bankka shaxsiy tashrifisiz internet orqali bank xizmatlarini ko'rsatishga qaratilgan axborot texnologiyalari majmuidir. Onlayn bankingning eng keng tarqalgan namunasi telefonlar, kompyuterlar, bankomatlar yordamida bank operatsiyalarini amalga oshirishdir.

Mamlakatimizda moliyaviy firibgarlik yo'li bilan bank plastik kartochkalariga hujumlarning soni ortib borishi natijasida O'zbekiston Markaziy bankida kiberjinoatchilikka qarshi kurashish laboratoriyasi tashkil etildi [6].

Jumladan, Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda firibgarlik yo'li bilan fuqarolar nomiga onlayn kredit ajratish orqali 463 ta holatda qariyb 15 mlrd so'm miqdorida moddiy zarar yetkazilgan.

Markaziy bank rahbari ushbu tizimni joriy etishda axborot xavfsizligiga alohida diqqat qaratish lozimligini tan oldi. Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Markaziy banki Rossiya bankining kredit-moliya sohasida kompyuter hujumlari monitoringi va boshqaruv markazi – FinCERT bilan hamkorlik qilmoqda. Ushbu laboratoriya ehtimoliy hujumlarga barham berish va fuqarolar hisobiga tushayotgan pul mablag'larini ham kuzatib boradi.

Hozirgi vaqtda ushbu turdagi firibgarlikni kvalifikatsiya qilishda yuzaga keladigan bir qator muammolarni sanab o'tish mumkin. Avvalo, agar jinoyatchi bir vaqtning o'zida kompyuter ma'lumotlarini kiritish yoki o'zgartirishdan foydalansa va jabrlanuvchini aldasa, ushbu qurilmalar yordamida sodir etilgan talon-torojlar qanday kvalifikatsiya qilinadi? Bunda bir xil jinoiy harakatlar majmui ko'pincha turli jinoyat-huquqiy tusda baholanishi mumkin. Misol uchun, bir kishi Internetda mulkni sotish bo'yicha e'lonlarni topdi, e'lon muallifi bilan bog'lanib, uni bank kartasi raqami va kirish kodini ko'rsatishga ko'ndiradi, deylik. Shundan so'ng jinoyatchi karta egasi nomidan avtomatlashtirilgan tizimlarda ro'yxatga olinadi va jabrlanuvchining barcha hisoblariga kirish huquqiga ega bo'ladi. Shundan so'ng mablag'lar jabrlanuvchining hisob raqamlaridan firibgar tomonidan boshqariladigan hisoblarga o'tkaziladi.

Hozirgi holatlarga qaralsa, fuqarolar qaysi vaziyatlarda aldanib qolyapti? Firibgarlar fuqaroga telefon qilib, "Markaziy bankdanmiz", – deb o'zini tanishtiradi. "Sizni nomingizga falon summadagi (katta miqdor aytiladi) kredit rasmiylashtirilyapti, bu bizning tizimda ko'rinib turibdi", – deydi. Shunda fuqaro shoshib qoladi. Moliyaviy bilimi bo'lmagani uchun "rostdan ham nomimga kredit rasmiylashtiribdi" deb o'ylaydi-da, telefoniga qanaqa kod SMS bo'lib kelsa, hammasini firibgarlarga aytib qo'yadi. Hatto o'zi bilmagan holda telefonidan to'g'ridan to'g'ri boshqaruvni ham firibgarga bermoqda. Telegram'da ekranni ikkinchi odamga onlayn ko'rsatib berish funksiyasi bor. Undan foydalanilsa, ekraningizda nima qilayotganingiz firibgarga ko'rinib turadi. Firibgarlar shundan foydalanib, odamlar nomiga kreditlarni rasmiylashtirib olmoqda. Ularni aldamoqda.

Bundan tashqari, aholiga telefon qilayotgan firibgarlar asosan ruslar bo'lmoqda. Ular o'zbekchani bilmaydi. O'zbek fuqarosiga telefon qilyapti-da, rus tilida "Men Markaziy bankdanman", – deb o'zini tanishtiryapti.

O'zbekiston fuqarolarida nega Markaziy bank xodimi bo'lsa, o'zbekcha gapira olmayapti, degan shubha ham paydo bo'lmayapti. Firibgarlar asosan chet eldan kiberjinoyat sodir etmoqda. O'zbekistondan emas.

“Podmena nomera” degan dastur bor. Unda chet elda turgan holda o'zbekistonliklarga O'zbekistonning mobil raqami orqali qo'ng'iroq qilish imkoni bor. Siz o'sha dasturdan foydalangan xorijdagi odam bilan gaplashib bo'lgach, u raqamga qayta qo'ng'iroq qilsangiz, mutlaqo boshqa odam bilan bog'lanasiz. Odamlar shu orqali ko'p aldanib qolyapti [7].

Tan olish kerakki, garchi mamlakatimizda kibermakonda sodir etiladigan hujumlarga qarshi kurashadigan umumiy va maxsus organlar tashkil etilgan bo'lsa-da, kiberjinoyatchilikka oid nazariy va amaliy muammolar hali-hamon mavjud. Xususan, huquq-tartibot organlari kun sayin yangi turdagi kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda tashkiliy-texnik, huquqiy va operatsion muammolarga duch kelmoqda.

Jumladan, texnik muammolar quyidagilar:

- atributsiya, ya'ni internet tarmog'iga ulangan kompyuter vositasidan foydalanib sodir etilgan kiberjinoyatda IP-adresni o'zgartirish yoki yo'q qilish orqali aybni boshqa internet foydalanuvchisi manziliga qaratish [8];

- “Darknet”, “Dark web”, “Deep web” saytlarining mavjudligi, ya'ni noqonuniy ravishda xavfsiz onlayn rejimini ta'minlashdir (kontrabanda, o'qotar qurollar, kredit karta raqamlari, noqonuniy pornografiya va qonunga xilof boshqa xizmatlarni sotib olish yoki sotish maqsadida).

- dasturiy ta'minotning zaifligi, ya'ni noto'g'ri konfiguratsiyalash orqali jinoyatchilarga o'z maqsadlarini amalga oshirishga yo'l berish;

- AT infratuzilmasining virtualizatsiya qilinganligi [9].

X. Ochilov nazdida, kompyuter texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan talon-

toroj uchun ham an'anaviy talon-torojga xos bo'lgan xususiyatlar tegishli bo'lib, bir qator o'ziga xos jihatlarni ham o'zida ifoda etadi:

birinchidan, jinoyat predmeti sifatida asosan elektron ko'rinishdagi pul mablag'i (naqd bo'lmagan pul)da namoyon bo'lishi;

ikkinchidan, sodir etish usuliga qarab tubdan farqlanadi, ya'ni:

a) jinoyat predmetiga tajovuz kompyuter vositasi orqaligina ishlatish mumkin bo'lgan qurollar (dastur)lardan foydalangan holda yuz berishi;

b) jinoyat usulini aniqlash jinoyatchi izini (virtual iz [10]) topishda va ish uchun muhim bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashda muhim yo'llanma bo'lib xizmat qilishi [11];

uchinchidan, ushbu jinoyatning virtual kibermuhitda sodir etilishi;

to'rtinchidan, huquqqa xilof harakatni ma'lum masofa uzoqlikda turib sodir eta olish imkoniyati, jinoyat sodir etishning tezkorligi va bunda o'z shaxsining yashirinligini ta'minlay olish imkoniyati mavjudligi;

beshinchidan, jinoyatni zamonaviy axborot texnologiyalari sohasidagi maxsus bilimlardan foydalanmay ochish va fosh qilishning deyarli imkoni yo'qligi;

oltinchidan, jabrlanuvchi bank yoki kredit muassasalari hamda bankda o'z hisob raqamiga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ekanligi [4].

Shu bois T. Xasanov haqli ravishda aytib o'tganidek, bugungi kunda kompyuter jinoyatlari o'ziga xos spetsifikasi, virtuallik xususiyatlari ularni “oddiy” jinoyatlarga oid turkumida saqlash nomaqbul ekanligini ko'rsatmoqda [12].

Garchi milliy jinoyat qonunchiligimiz boshqa huquq sohalaridan ko'ra rivojlangan bo'lsa-da, JKda kiberhujumlar orqali shaxslarga zarar keltirganlik uchun jinoiy javobgarlik yetarlicha ochib berilmagan va faqatgina kompyuter vositasidan foydalanib talon-toroj qilish JK 167-moddasi (o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish) 3-qism “g” bandida “kompyuter texnikasi

vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa", 168-moddasi (firibgarlik) 2-qismi "v" bandida "kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa", 169-moddasi (o'g'rilik) 3-qismi "b" bandida "kompyuter tizimiga ruxsatsiz kirib" mazmunida tarqoq holda berilgan.

Shu sababli bu boradagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda turli muammolar, jumladan, ayrim hollarda aybdorning bir vaqtning o'zida Jinoyat kodeksining 4-, 8-10-moddalariga xilof ravishda ikki marta javobgarlikka tortilishi [13] yoki jazo tayinlashda shaxsning qilmishi qo'shimcha ravishda mazkur bob moddalari bilan ham kvalifikatsiya qilinishiga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan bir vaqtning o'zida kompyuter ma'lumotlarini kiritish (o'zgartirish) (Jinoyat kodeksining 278⁴-moddasi) va aldash (Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi "v" bandi) yo'li bilan sodir etilgan firibgarlikni kvalifikatsiya qilish qoidalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lib, bu sud-tergov amaliyotida vujudga keladigan muammolarni birmuncha hal qiladi.

Kompyuter axboroti sohasida firibgarlik va o'g'rilikni farqlash quyidagi qoidalarga asoslanishi kerak deb hisoblaymiz:

birinchidan, o'zganing mol-mulkiga egalik qilishni osonlashtirish uchun shaxs tomonidan aldashdan foydalanilgan, keyinchalik boshqa yo'l bilan talon-toraj qilingan hollarda qilmish firibgarlik (Jinoyat kodeksining 168-moddasi) sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin emas;

ikkinchidan, jinoyatchining ashyoni tasarruf etish imkoniyati aldash natijasida yuzaga kelmagan holatda ham, qilmish firibgarlik sifatida baholanishi mumkin emas.

Mazkur qoidalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrdagi "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 35-son qaroriga bir qator tushuntirishlar kiritish zarur ko'rinadi.

Birinchidan, shuni aniqlash zarurki, shaxs tomonidan aldash bank hisobvaragi ma'lumotlariga kirish uchun foydalanilgan bo'lsa, mulkni talon-toraj qilish esa kompyuter ma'lumotlarini kiritish yoki o'zgartirish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, bunday holatlarda qilmish jinoyatlar majmui sifatida, ya'ni kompyuter texnikasidan foydalangan holda firibgarlik (Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi "v" bandi) va kompyuter ma'lumotlarini o'zgartirish (Jinoyat kodeksining 278⁴-moddasi) deb kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Ikkinchidan, agar jinoyatchi kompyuter ma'lumotlaridan foydalangan holda (mobil qurilma orqali Telegram messenjeri, elektron pochta orqali yoki turli xil xabarlarini yuborishning boshqa vositalari orqali) to'g'ridan to'g'ri aldash natijasida (masalan, shaxs ixtiyoriy ravishda jinoyatchiga pul summasini o'tkazsa) jabrlanuvchining mol-mulkini yoki mulkiy huquqlarini tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lsa, u holda qilmish firibgarlik sifatida Jinoyat kodeksining 168-moddasi tegishli qismlari bo'yicha talon-toraj qilingan mol-mulk miqdorini hisobga olgan holda kvalifikatsiya qilinishi kerak, biroq ushbu moddaning 2-qismi "v" bandiga havola qilib bo'lmaydi, chunki mobil qurilmani kompyuter uskunasi tenglashtirish mumkin emas.

Onlayn banking tizimlaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish sohasidagi ikkinchi muammo bankomat orqali to'lov kartalaridan foydalangan holda sodir etilgan talon-torajliklarni kvalifikatsiya qilishdir. Bugungi kunda ular ancha keng tarqala boshladi. Shu munosabat bilan huquqni qo'llash amaliyotida va fanda mazkur talon-torajlikni Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi "v" bandida nazarda tutilgan firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilish masalasi muhokama qilina boshladi, chunki bankomat mohiyatan kompyuter hisoblanadi.

Shu bilan birga, ko'pchilik ushbu firibgarlikning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaydi: ta'sir jabrlanuvchining ongiga emas, balki

kompyuter ma'lumotlariga qaratiladi; shaxsni aldash, jabrlanuvchining yordami bilan mol-mulkni topshirish yoki mulkka bo'lgan huquqlarni qo'lga kiritish namoyon bo'lmaydi; jinoyat quroli axborot, kompyuter ma'lumotlarini saqlash, uzatish va qayta ishlash vositalari hisoblanadi [14].

Shuni ta'kidlash kerakki, masalan, xorijiy sud amaliyotida (Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 2007-yil 27-dekabrda 51-sonli "Firibgarlik, o'zlashtirish va rastrata ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori [15]) bunday talon-torajliklar o'g'rilik sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Qolaversa, aybdor tomonidan o'zganing plastik kartasining ochiqdan ochiq talon-toraj qilinishi oqibatida plastik kartaning qiymati miqdorida jabrlanuvchiga zarar yetkaziladi. Biroq aybdor jabrlanuvchiga nisbatan hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib, undan bank plastik kartasining kodini yoki plastik kartani boshqarish, undan to'liq foydalanish imkonini beruvchi, telefonga o'rnatilgan mobil ilovaning kodini bilib, plastik kartadagi mablag'ni o'z ixtiyoriga o'tkazsa, ya'ni boshqa hisobraqamga yuborsa yoxud naqdlashtirsa, qilmishni talonchilik deb baholash lozim. Bordi-yu, aybdor o'ziga bog'liq bo'lmagan holda qilmishni oxiriga yetkaza olmasa, u holda talonchilikka suiqasd deb baholash lozim. Shunday ekan, elektron mablag'lar ham talonchilik predmeti bo'lishi mumkin [16].

Terminalda kredit olish va soxta kartadan foydalangan holda bankomatda pul olish umumiy xususiyatga ega – firibgarlikka xos bo'lgan aldamchi harakatlarning yo'qligidir. Shuning uchun nusxasi avtomatik ravishda terminal tomonidan olinadigan, o'zga shaxsning pasportidan foydalanib, kredit olish huquqiga ega bo'lish jinoyatini kvalifikatsiya qilishda, Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismining "v" bandiga havola qilish mumkin emas. Ushbu harakatlar ko'proq o'g'rilik belgilarini o'z ichiga oladi va birligiga o'xshash qilmish ekanligi sababli ban-

komatdan soxta kredit karta yordamida pul mablag'larini talon-toraj qilish kabi o'g'rilik tarzida baholanishi kerak.

Agar har ikki holatda ham bitimning kontragenti sifatida tashkilot tomonidan vakolat berilgan hamda jinoyat subyektining harakatlariga aldanib qolgan jismoniy shaxs emas, balki kompyuter namoyon bo'lib, jinoyatning predmeti sifatida esa naqd pul ko'rinishidagi mablag'lar gavdalangan bo'lsa, naqd pul mablag'lari shaklidagi kreditni talon-toraj qilish bilan bankomatdan naqd pul mablag'larini talon-toraj qilishni turlicha kvalifikatsiya qilishni asosli deb hisoblash qiyin.

Shu bilan birga, bankomatga maxsus texnik moslamalar o'rnatgan, keyinchalik bank kartasidan pul mablag'larini talon-toraj (ma'lumot, karta kodlari va parollarini o'qish orqali) qilgan sudlanuvchining xatti-harakatlari nafaqat Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qismi "b" bandi bilan (qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanish), balki shuningdek, Jinoyat kodeksining 278²-moddasi (Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish) bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak, deb hisoblaymiz, chunki ushbu modda dispozitsiyasida boshqa narsalar qatori "kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish"ga ishora qilinadi.

Xulosa

Yuqorida tahlil qilingan muammolarning yechimi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2017-yil 11-oktabrda 35-sonli "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 35-son qaroriga o'zgartirish kiritishni va qarorning 20-bandini quyidagi tahrirda bayon etishni taklif etamiz.

"20. Tushuntirilsinki, kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib firibgarlik sodir etish (JK 168-moddasi ikkinchi qismi "v" bandi) deganda, moliya, bank muassasalari, fondlar va sh.k.larda bo'lgan, mulkni aldov yo'li bilan kompyuter texnikasi vositalari yordamida ma-

nipulyatsiya qilish orqali amalga oshiriladigan talon-torajlik tushuniladi. Bunday firibgarlik kompyuter tizimida ishlov beriladigan, tegishli axborot tashuvchilarda saqlanadigan yoki ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari bo'yicha beriladigan axborotni o'zgartirish yo'li bilan ham, moliya, bank muassasalari kompyuter tizimiga yolg'on axborot kiritish yo'li bilan ham sodir etilishi mumkin.

Basharti shaxs tomonidan aldash bank hisobvarag'i ma'lumotlariga kirish uchun foydalanilgan bo'lsa, mulkni talon-toraj qilish esa kompyuter ma'lumotlarini kiritish yoki o'zgartirish yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, bunday holatlarda qilmish jinoyatlar majmui sifatida, ya'ni kompyuter texnikasidan foydalanilgan holda firibgarlik (Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismi "v" bandi) va kompyuter ma'lumotlarini o'zgartirish (Jinoyat kodeksining 278⁴-moddasi) deb kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Shu bilan birga, agar jinoyatchi kompyuter ma'lumotlaridan foydalangan holda (mobil qurilma orqali Telegram messenjeri, elektron pochta orqali yoki turli xil xabarlarini yuborishning boshqa vositalari orqali) to'g'ridan to'g'ri aldash natijasida (masalan, shaxs ixtiyoriy ravishda jinoyatchiga pul summasini o'tkazsa) jabrlanuvchining mol-mulkini yoki

mulkiy huquqlarini tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lsa, u holda qilmish firibgarlik sifatida Jinoyat kodeksining 168-moddasi tegishli qismlari bo'yicha talon-toraj qilingan mol-mulk miqdorini hisobga olgan holda kvalifikatsiya qilinishi kerak, bunda ushbu moddaning 2-qismi "v" bandiga havola qilish shart emas.

Bankomatga maxsus texnik moslamalar o'rnatgan, keyinchalik bank kartasidan pul mablag'larini talon-toraj (ma'lumot, karta kodlari va parollarini o'qish orqali) etgan sudlanuvchining xatti-harakatlari nafaqat Jinoyat kodeksining 169-moddasi 3-qismi "b" bandi (qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanish), balki Jinoyat kodeksining 278²-moddasi (Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish) bilan ham kvalifikatsiya qilinishi kerak".

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Jinoyat kodeksida kiber talon-toraj bo'yicha tegishli moddalar mavjud bo'lmagan sharoitda ushbu tushuntirishlarning kiritilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarga talon-torajlikning ushbu eng zamonaviy turlarini bir xilda va to'g'ri kvalifikatsiya qilishda yordam berishi mumkin.

REFERENCES

1. Virtual olamdagi global tahdid [Global threat in the virtual world]. Available at: https://uza.uz/uz/posts/virtual-olamdagi-global-tahdid_350549?q=%2Fposts+%2Fvirtual-olamdagi-global-tahdid_350549
2. O'zbekistonda 2021–2024-yillarda banklar va fuqarolar kiberjinoyatlardan 1,9 trln so'm zarar ko'rdi [In Uzbekistan, banks and citizens suffered losses of 1.9 trillion soums from cybercrime in 2021–2024]. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2025/05/29/kiberjinoyat/>
3. Yoshlarimizni kiber jinoyotlar xavfidan ogohlantirish – dolzarb vazifasi [Warning our youth about the dangers of cybercrime is an urgent task]. Available at: <https://kukaldosh.uz/26/02/2024/12530>
4. Achilov X.R. Kompyuter vositalaridan foydalangan holda birovning mulkini talon-toraj qilganlik uchun javobgarlik [Liability for the theft of someone else's property using computer tools]. Tashkent, 2017.
5. Rasulov A.K. Axborot texnologiyalari va xavfsizlik sohasida jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy va kriminalistik chora-tadbirlarini takomillashtirish [Improving criminal law and

forensic measures to combat crimes in the field of information technology and security]. Tashkent, 2018.

6. O'zbekiston Markaziy bankida kiberjinoyatlarga qarshi kurash laboratoriyasi ochildi [A laboratory for combating cybercrime has been opened at the Central Bank of Uzbekistan]. Available at: <https://daryo.uz/k/2019/05/04/ozbekiston-markaziy-bankida-kiberjinoyatlarga-qarshi-kurash-laboratoriyasi-ochildi/>

7. Markaziy bank vakili O'zbekistondagi asosiy kiber firibgarliklar xorijdan turib sodir etilmoqda [Central Bank representative: Major cyber frauds in Uzbekistan are being committed from abroad]. Available at: <https://daryo.uz/2024/04/03/ozbekistonda-asosiy-kiber-firibgarliklar-xorijdan-turib-sodir-etilmoqda-markaziy-bank-vakili>

8. Kiberprestupnost'. Modul' 1. Vvedeniye v kiberprestupnost'. Obrazovaniye vo imya pravosudiya seriya universitetskikh moduley [Cybercrime Module 1 Introduction to Cybercrime Education for Justice University Module Series]. United Nations Office on Drugs and Crime. Vienna, 2019.

9. Kiberprestupnost'. Modul' 9. Serii moduley po kiberprestupnosti: Kiberbezopasnost' i preduprezhdeniye kiberprestupnosti: prakticheskiye metody i mery [Cybercrime. Module 9. Cybercrime Module Series: Cybersecurity and Cybercrime Prevention: Practical Methods and Measures]. United Nations Office on Drugs and Crime, Vienna, 2019.

10. Usov A.I. Kontseptual'nyye osnovy sudebnoy kompyuterno-tekhnicheskoy ekspertizy [Conceptual foundations of forensic computer-technical examination]. Moscow, 2002, p. 14.

11. Tret'yak M. Problemy kvalifikatsii novykh sposobov moshennichestva [Problems of qualification of new methods of fraud]. *Criminal Law*, 2015, vol. 2, pp. 94–98.

12. Xasanov T. O'g'irlik uchun jinoiy javobgarlik va uning oldini olish [Criminal liability for theft and its prevention]. Tashkent, 2019.

13. Anorbayev A.U. Kiberhujumlar orqali o'zgalarning mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlarning huquqiy holati [Legal status of crimes related to the plundering of other people's property through cyberattacks]. *Journal of Legal Studies*, 2019, vol. 9, p. 51.

14. Tret'yak M.I. Pravila kvalifikatsii kompyuternogo moshennichestva i prestupleniy, predusmotrennykh gl. 28 UK RF [Rules for the qualification of computer fraud and crimes provided for in Chapter 28 of the Criminal Code of the Russian Federation]. *Criminal Law*, 2014, vol. 4.

15. Plenum verkhovnogo suda rossiyskoy federatsii [Plenum of the Supreme Court of the Russian Federation]. Available at: https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_74060/

16. Abduqodirov F.F. Talonchilikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy chora-tadbirlarini takomillashtirish [Improving criminal law measures to combat robbery]. Tashkent, 2022, p. 77.

Kelib tushgan / Получено / Received: 17.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./UNUL9030

UDC: 343.216(045)(575.1)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA JAMIYATDAN AJRATISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JINOIY JAZOLARNING RIVOJLANISH TARIXI

Ma'murov Sanjarbek Ilxomovich,

Namangan viloyati prokurorining yordamchisi,

adliya kichik maslahatchisi

ORCID: 0009-0003-0622-6596

e-mail: shaxriyorilhomov6@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarning tarixi va rivojlanishi tahlil qilingan. Unda O'zbekistonda jinoyat jazolarini modernizatsiyalash jarayoni, qonunchilikdagi o'zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy-huquqiy talablariga moslashish hamda xalqaro huquqiy standartlarga muvofiqlashtirishdagi davrlar to'g'risida fikr yuritiladi. Jinoiy jazolarning samaradorligi, ularning inson huquqlari va erkinliklariga ta'siri hamda ularning jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarga qo'shgan hissasi bo'yicha ham tahlillar olib boriladi. Shu bilan birga, jinoiy jazolar tizimining insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirilishi, jazolash maqsadlarining ijtimoiy rehabilitatsiya va qayta ijtimoiylashtirishga yo'naltirilishi muhimligi ta'kidlanadi. Maqolada, shuningdek, jinoyat qonunchiligida yangi metod va yondashuvlarni joriy etish orqali jazolarning samaradorligini oshirish, jinoyatchilik darajasini kamaytirish va jamiyat xavfsizligini ta'minlash zarurligi haqida fikrlar bildirilgan. Tadqiqot O'zbekistonda jinoyat qonunchiligi sohasidagi yangi yo'nalishlar va ijtimoiy adolatni ta'minlashga oid muammolarni chuqur o'rganishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u mavjud qonunlarning samaradorligini oshirish, jazolash tizimining inson huquqlariga moslashuvi hamda jinoyatchilikning oldini olishdagi innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish uchun asos yaratadi. Tadqiqot natijalari mamlakatda adolatli va insonparvar jinoyat jazolari tizimini barpo etishga ko'maklashadi, shuningdek, qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so'zlar: jamiyatdan ajratish, jinoiy jazolar, jamiyat bilan bog'liq jazolar, ijtimoiylashtirish, jinoyat qonunchiligi islohoti, ijtimoiy rehabilitatsiya, insonparvar jazolar, alternativ jazo choralari, qonunchilik

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ УГОЛОВНЫХ НАКАЗАНИЙ, НЕ СВЯЗАННЫХ С ИЗОЛЯЦИЕЙ ОТ ОБЩЕСТВА, В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Маъмуров Санжарбек Ильхомович,

помощник прокурора Наманганской области,

младший советник юстиции

Аннотация. В данной статье анализируется история и развитие уголовных наказаний, не связанных с изоляцией от общества, в уголовном законодательстве Республики

Узбекистан. Рассматриваются процессы модернизации системы уголовных наказаний, эволюция законодательных изменений, а также адаптация норм к социально-правовым потребностям общества и их гармонизация с международными правовыми стандартами. Основное внимание уделено вопросам эффективности уголовных наказаний, их влияния на права и свободы человека, а также роли в обеспечении позитивных преобразований в обществе. Подчёркивается необходимость совершенствования системы наказаний на основе принципов гуманизма, смещения акцента с карательных целей на социальную реабилитацию и ресоциализацию правонарушителей. В статье рассматриваются также новые подходы и методы, направленные на повышение эффективности уголовных наказаний, снижение уровня преступности и обеспечение общественной безопасности. Проведённое исследование способствует более глубокому изучению современных направлений развития уголовного законодательства Узбекистана и проблем обеспечения социальной справедливости. Результаты исследования создают основу для повышения эффективности действующего законодательства, совершенствования адаптации системы наказаний к международным стандартам защиты прав человека, а также развития инновационных подходов к предупреждению преступности. Итогом работы является содействие формированию справедливой и гуманной системы уголовных наказаний в стране и расширение возможностей интеграции национального законодательства в международно-правовое пространство.

Ключевые слова: изоляция от общества, уголовные наказания, наказания, связанные с обществом, ресоциализация, реформа уголовного законодательства, социальная реабилитация, гуманизация наказаний, альтернативные меры наказания, законодательство

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF CRIMINAL PUNISHMENTS NOT RELATED TO SEPARATION FROM SOCIETY IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ma'murov Sanjarbek Ilkhomovich,

Assistant to the Prosecutor of Namangan Region,
Junior adviser of justice

Abstract. This article analyzes the history and development of criminal punishments not related to isolation from society in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. It discusses the process of modernization of criminal penalties in Uzbekistan, changes in legislation and periods of adaptation to the socio-legal requirements of society, and bringing them into line with international legal standards. The effectiveness of criminal punishments, their impact on human rights and freedoms, and their contribution to positive changes in society are also analyzed. At the same time, the importance of improving the system of criminal punishments based on the principles of humanism, directing the goals of punishment towards social rehabilitation and resocialization, is emphasized. The article also discusses the need to increase the effectiveness of punishments, reduce crime rates, and ensure public safety by introducing new methods and approaches to criminal law. The research serves to deeply study new directions in the field of criminal legislation in Uzbekistan and problems related to ensuring social justice. At the same time, it creates a basis for increasing the effectiveness of existing laws, adapting the penal system to human rights, and developing innovative approaches to crime prevention. The results of the study will contribute to the creation of a fair and humane system of criminal penalties in the country, as well as expand the possibilities of harmonizing legislation with international standards.

Keywords: social exclusion, criminal penalties, community-related penalties, socialization, legislation, criminal law reform, social rehabilitation, humanitarian punishments, alternative punitive measures, legislation

Kirish

Ma'lumki, jinoyat qonunchiligi har bir davlatning huquqiy asosi bo'lib, jamiyatni tartibga solish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash uchun muhim vosita hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligida jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarning rivojlanishi davlatning huquqiy siyosati va inson huquqlariga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Barcha davlatlarda huquqqa xilof muayyan bir ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsga nisbatan tayinlanadigan ta'sir choralari mamlakat rivojlanishi va demokratik islohotlar natijasida takomillashtirib boriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi muayyan darajada liberallashtirilib borilmoqda. Har qanday mavzuni to'liq tahlil qilish uning tarixiy jihatlariga e'tibor qaratishni talab qiladi. Mavzuning tarixiy jihatlarini o'rganish bizga ushbu soha to'g'risida mufassal tasavvurga ega bo'lish, kelajakda ushbu sohani rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqishda muhim tajriba vazifasini bajaradi.

Bizga ayonki, mamlakatimiz hududida uzoq o'tgan davr mobaynida shariat qoidalari amalda bo'lgan hamda jinoyat va jazo masalalari aynan shariat qoidalari bo'yicha tartibga solingan. Arab huquqshunos olimi Muhammad al-Fadelning qayd etishicha, "jazo – jinoyat sodir etgan kishiga qonun tomonidan belgilangan azobdir" [1].

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari, uning sha'ni va qadr-qimmat, ularning daxlsizlik huquqlari eng oliy qadriyat sifatida xalqaro prinsiplar asosida mustahkamlab qo'yildi. Ushbu jarayonning amaliy tasdig'ini so'nggi yillarda davlat boshqaruv jarayonida inson huquqlarini ta'minlash, uning samaradorligini yanada oshirish borasida mamlakatimizda amalga

oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda ham kuzatish mumkin.

Qayd etish lozimki, musulmon jinoyat huquqi masalalari bilan shug'ullangan hozirgi zamon huquqshunos olimlari shariatda jazo turlarini bir nechta guruhga bo'lib, turlicha fikr bildirishgan. Jumladan, M.I. Sadagdar musulmon huquqida jazo alohida xususiyatga ega bo'lib, quyidagi turlar: qasos – o'ch olish; diya – tovon haqi; o'lim jazosi, toshbo'ron qilish, qo'l-oyog'ini kesish, savalash, darra urish, surgun va badarg'a, mol-mulkni musodara qilish va boshqalardan iboratdir [2], deb ko'rsatgan bo'lsa, G.M. Kerimov shariatdagi barcha jazolar asosan to'rt turga: a) bir xilda o'ch olish; b) tovon yoki jarima; d) qiyos (analogiya) asosida qonun bilan belgilangan jazo; e) shariat sudyalari-ning ixtiyoriga ko'ra beriladigan jazolarga bo'lingan [3].

M. Rajabovanning fikricha, musulmon huquqi bo'yicha barcha jinoyatlar jazo belgilanishi va tajovuz obyektiga qarab uchta guruhga ajratilgan [4]:

- 1) had jazo turlari;
- 2) qasos yoki tovon va kafforot jazo turlari;
- 3) ta'zir jazo turlari.

Musulmon jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra, shaxsga tan jarohati yetkazilganligi uchun "jonga-jon, ko'zga-ko'z, burunga-burun, quloqqa-quloq, tishga-tish" tarzida qasos olingan. Shariatda tovon haqi jazosi keng tarqalgan jazo turlaridan bo'lgan. Hozirgi kunda ham jazoning tovon haqi turidan shariat qonun-qoidalari hukmron bo'lgan Saudiya Arabistoni, Ummon, Yaman davlatlarida boshqa jazo turlari kabi samarali foydalanib kelinmoqda.

Mamlakatimiz hududi XIX asrning oxirida Chor Rossiyasi tomonidan mustamlakaga aylantirilgandan so'ng dastlab qonun normalari va shariat qoidalari birgalikda amalda bo'lib turdi. 1922-yilda SSSRda yangi jinoyat qonunchiligi ishlab chiqilgandan so'ng 1926-yilda O'zbekiston SSRning birinchi jino-

yat kodeksi qabul qilingan. Mazkur kodeksda quyidagi jazo choralari nazarda tutilgan [5]:

1) xalq dushmani deb e'lon qilish va SSSR hududidan butunlay badarg'a qilish jazo chorasi;

2) qattiq rejim bilan ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasi;

3) qattiq rejimsiz ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasi;

4) ozodlikdan mahrum qilmasdan axloq tuzatish ishlari jazo chorasi;

5) muayyan huquqlardan mahrum qilish jazo chorasi;

6) muayyan muddatga SSSR hududidan chiqarish jazo chorasi;

7) O'zbekiston SSR hududidan chiqarish jazo chorasi;

8) mansabdan chetlatish jazo chorasi;

9) muayyan mansabda bo'lishni taqiqlash jazo chorasi;

10) jamoat izzasi jazo chorasi;

11) mol-mulkni musodara qilish;

12) jarima;

13) ogohlantirish.

1959-yilda O'zbekiston SSRning yangi Jinoyat kodeksi qabul qilingan hamda mazkur kodeksi 1960-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Ushbu Jinoyat kodeksining 21-moddasida quyidagi jazo turlari nazarda tutilgan [6]:

1) ozodlikdan mahrum qilish;

2) surgun;

3) badarg'a qilish;

4) ozodlikdan mahrum qilmasdan axloq tuzatish ishi;

5) muayyan mansabni egallash yoki muayyan ishi bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilish;

6) jarima;

7) lavozimdan ozod etish;

8) jamoat izzasi;

9) favqulodda jazo turi sifatida o'lim jazosi;

10) mol-mulkni musodara qilish;

11) harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish;

12) intizomiy batalyonga yuborish.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, sobiq Ittifoq davrida ham jazo tizimida shaxsga nisbatan jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolar ko'proq bo'lgani holda mazkur jazolar orasida inson qadr-qimmatini kamsituvchi va jinoyat qonunining boshqa talablariga muvofiq kelmaydigan jazolar ko'zda tutilgan edi. Vaholanki, mazkur Jinoyat kodeksida ham "Jazolash odamga jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitishni maqsad qilib qo'ymaydi" (21-modda), – deb belgilangan edi.

Asosiy qism

O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilganidan so'ng butun huquqiy tizim kabi jinoyat qonunchiligi ham qayta ko'rib chiqildi hamda 1994-yil 22-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi qabul qilindi. Mazkur kodeksda jinoiy jazo tizimi qayta ko'rib chiqildi hamda jinoiy jazolarning inson qadr-qimmatini kamsituvchi, haq-huquqlarini boshqacha tarzda buzadigan, shuningdek, kodeksda birinchi marotaba prinsiplar talablariga muvofiq kelmaydigan jazo turlari olib tashlandi.

Kodeksning 1994-yilgi tahririga ko'ra, jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qo'llanilishi mumkinligi belgilandi: a) jarima; b) muayyan huquqdan mahrum qilish; v) axloq tuzatish ishlari; g) xizmat bo'yicha cheklash; d) qamoq; e) intizomiy qismga jo'natish; j) ozodlikdan mahrum qilish; z) o'lim jazosi.

Shuningdek, unda mahkumlarga asosiy jazolardan boshqa harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish hamda mol-mulkni musodara qilish tarzidagi qo'shimcha jazo ham qo'llanilishi mumkinligi qayd etildi.

Bugungi kunda amaldagi jinoyat qonunchiligi bo'yicha jinoiy jazolar tizimi jazoning og'irligiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilish (cheklash) bilan bog'liq bo'lgan jazolar (ozodlikni cheklash, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish, umrbod ozodlikdan mahrum qilish) va ozodlikdan mahrum qilish (cheklash) bilan bog'liq bo'lmagan

(jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, harbiy yoki maxsus unvondan mahrum etish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash) jazo turlariga bo'linadi [7].

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni yanada liberallashtirish maqsadida dastlab 2001-yil 29-avgustda "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning qabul qilinishi jamiyatni demokratlashtirish, sud-huquq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur qonunning qabul qilinishi bilan jinoyat-huquqiy siyosatdagi fundamental demokratlashtirish darajasidagi yangi bosqichi boshlanganligini qayd etish joizdir.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish jarayonida jinoyat qonunchiligi doirasidan chetga chiquvchi qator vazifalar muvaffaqiyatli ravishda bartaraf etildi.

Jinoyat-huquqiy siyosatda yangicha qarash hisoblangan, jinoyatlar tasnifi o'zgartirildi. Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasining kengayishiga olib keldi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, qonunda besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo belgilangan jinoyatlar nazarda tutildi. Shuningdek, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar toifasiga kiruvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar doirasi ham kengaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar tarkibiga voyaga yetmaganlar, ayollar va 60

yoshdan ortgan erkaklarga nisbatan tayinlanadigan jazo muddatlarini kiritish mumkin. Avvallari, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni sodir etgan voyaga yetmagan shaxs uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum etilgan bo'lsa, ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyat uchun esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 85-, 87-moddalariga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanmaydigan bo'ldi. Besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan sud jazodan ozod etish va majburlov choralarini qo'llash masalasini muhokama qilishi kerakligi belgilandi.

O'z vaqtida, XVIII–XIX asrlarda, ozodlikdan mahrum qilishning o'zi ham og'ir jazo, o'lim jazosi hamda tan jazolarining har xil turlariga nisbatan muqobil jazo sifatida qaralgan. Ammo XIX asrdayoq ozodlikdan mahrum etish o'zining asosiy vazifasi – mahkumlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va axloqan tuzatish vazifasini bajara olmasligi tushunib yetildi [8].

Shunday qilib, dastavval ilmiy jamoatchilik ham jinoyatlar uchun jazo amaliyotiga jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarni kiritish zarur degan xulosaga kela boshladi. Bunga nimalar sabab bo'ldi? Mazkur holat bo'yicha so'z yuritish o'rinli bo'ladi.

Birinchi sabab – ozodlikdan mahrum qilish jazosining samaradorligi darajasi past bo'lganligi. Oxirgi o'n yilliklar davomida retsidiv jinoyatchilik sezilarli darajada oshdi va bu mavjud sud hamda jinoyat-ijroiya siyosati samarali emasligining bevosita dalili hisoblanadi. Olimlarning tahliliga ko'ra, islohotlar davri retsidivistlar faolligining o'sishi, ular orasida o'ta xavfli retsidivistlar miqdorining ko'payishi bilan tavsiflanadi. Axloq tuzatish muassasalaridan ozodlikka chiqqandan so'ng birinchi yil davomida jinoyatlar sodir etgan retsidivistlar soni ko'paydi [9].

A.V. Andreyevning fikriga ko'ra, jinoyat uchun tayinlangan jazoning samaradorligi darajasini ijtimoiy maqsad (maqsadlar) va hozirgi vaqtda erishilgan ijobiy natija o'rtasidagi tafovutning qonunga muvofiq, tejamkorlik bilan va oqilona sarflangan mablag'larga nisbati sifatida aniqlash mumkin [10].

Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, aholining muayyan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun belgilab qo'yilgan jinoyat-huquqiy ta'sir choralariga bo'lgan munosabatiga ham jinoyat-huquqiy vositalar bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy boyliklarning qimmati, ham jinoiy tajovuzlar natijasida ularga tahdid solishi mumkin bo'lgan xavfning aniq va ravshanligi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi [11].

Jazolash unsurlarining tarbiyaviy tomoni ham yo'q emas, degan fikrlarga [12] qo'shilish qiyin. Aks holda jazo qanchalik og'ir bo'lsa, uning tarbiyaviy samarasi shunchalik baland bo'lishini tan olishimizga to'g'ri kellar edi. Jamiyatdan ajratish bilan bog'liq jazo choralariga kelsak, ularning jazolash imkoniyatlari axloq tuzatish imkoniyatlaridan ancha ustun turadi va bu jazoni o'tash sharoitlarining og'irligi, umumfuqarolik huquqlari doirasining sezilarli darajada torayishi, o'z qobiliyatlarini, shu jumladan, kasbiy salohiyatini namoyon etishi uchun imkoniyatlarining torayishi bilan belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish rejimi jazolash mexanizmining asosiy unsuri – bir joydan boshqa joyga ko'chib yurishi va o'z vaqti, qobiliyatlari va imkoniyatlarini tasarruf etish erkinligidan mahrum qilish bilan ifodalanadi.

Milliy qonunchiligimizda jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarning keng joriy etilishi xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoida va tamoyillariga mos bo'lib, o'z navbatida, milliy siyosatning xalqaro-huquqiy siyosat bilan o'zaro hamohangligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu qonunlarning qabul qilinishi bilan jazo tizimini takomillashtirish nuqtayi nazaridan sud-huquq islohotini

tugallangan deb hisoblash mumkin emas. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Ayrim qilmishlarni liberallashtirish va ularni jinoyatlar toifasidan chiqarishga alohida e'tibor qaratamiz... Insonparvarlik nuqtayi nazaridan jinoiy jazoni yengillashtirish... Shu munosabat bilan 2018–2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasini qabul qilish va amalga oshirish zarur" [13], – deb bayon qilgan.

Xulosa

Jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarning tarixiy jihatlarini tahlil qilish asosida sohadagi qonun hujjatlarining rivojlanish tarixini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1) shariat qoidalari joriy etilgandan Chor Rossiyasi istilosi davrigacha bo'lgan davr: bu davrda to'liq shariat qoidalari amalda bo'lgan, ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazolar shariat qoidalari amalda bo'lgan jazolar edi;

2) Chor Rossiyasi istilosidan 1926-yilgacha bo'lgan davr: bu davrda shariat qoidalari va Chor Rossiyasi dekretlari baravariga amalda bo'lgan;

3) 1926–1990-yillar: ushbu davrda ikkita JK amalda bo'lsa-da, davlatda inson qadr-qimmatini kamsituvchi ayrim jazo turlari ham amalda edi;

4) 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jinoyat qonunchiligida fundamental o'zgarishlar boshlandi. Yangilangan qonunlar, ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish va jinoyatlarning oldini olishga yo'naltirilgan edi. Jazolarning rivojlanishida insonparvarlik va rehabilitatsiyani kuchaytirish, jinoyatchilarni jamiyatga qayta integratsiya qilishga bo'lgan urg'u sezilarli ravishda ko'tarildi;

5) 1994–2001-yillar: 1994-yilda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan ko'plab

jazolar jinoiy jazo tizimidan chiqarib tashlandi, jinoiy jazo tizimi to'liq qayta ko'rib chiqildi;

6) hozirgi davrda: O'zbekistonda jinoyat qonunchiligini yangilashda jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishga urg'u berilmoqda.

2001-yildan hozirgacha bo'lgan davr jinoyat qonunini liberallashtirish siyosati davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jinoiy jazo tizimidan mol-mulkni musodara qilish jazosi chiqarildi, jinoiy jazolarni tayinlash mexanizmi va amaliyotida ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda.

Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning 2020-yil 24-yanvardagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: "Og'ir jazo tayinlash kabi allaqachon umrini o'tab bo'lgan tartiblarni bekor qilish vaqti yetdi" [14]. Fuqarolarning huquqiy ongi va dunyoqarashida ilm-fanning yanada ravnaq topishi, yuksak ma'naviyat va madaniyatga intilish mamlakatimizda jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish hamda ushbu jazolarning ijro etilishini tizimli tashkil etish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish hamda jinoyat sodir etilishining oldini olishning samarali vositasi ekanligini ko'rsatmoqda.

Bugun ham jazolar tizimi va ularni tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko'rib chiqish, eskirgan hamda zamonaviy talablarga javob bermaydigan jazo shakl va turlarini chiqarib tashlash [14] dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Har qanday jinoiy jazoning mazmuni jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsning muayyan huquq va erkinligini cheklash yoki ulardan mahrum etishda ifodalanadi [15]. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklash yoki ulardan mahrum qilish jinoiy jazo chorasining jazolovchi belgisini ifodalaydi. Jazo choralari orasidagi farq shaxsning muayyan huquq va erkinligini cheklash yoki ulardan mahrum etish darajasi, miqdoriga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7-moddasi "Insonparvarlik prinsipi" [16] mazmuniga ko'ra, shaxsga jazo tayinlashdan maqsad uni jazolash emas, balki tarbiyalashdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida: "Biz ayrim qilmishlarni liberallashtirish va ularni jinoyatlar toifasidan chiqarish, insonparvarlik nuqtayi nazaridan jinoiy jazoni yengillashtirishga alohida e'tibor qaratamiz" [17], – deya ta'kidlab o'tilganligini qayd etish o'rinli.

REFERENCES

1. Muhammad F. Jinoyat huquqining umumiy asoslari [General principles of criminal law]. Damascus, 1964, p. 521.
2. Sadagdar M.I. Osnovnyye cherty musul'manskogo prava i yego razvitiye v Irane po shiitskomu napravleniyu [The main features of Muslim law and its development in Iran along the Shiite line]. Moscow, 1963, p. 17.
3. Kerimov G.M. Shariat i yego sotsial'naya sushchnost' [Sharia and its social essence]. Moscow, Science Publ., 1978, p. 41.
4. Rajabova M. Shariatda jinoyat va jazo [Crime and punishment in Sharia]. Tashkent, Adolat Publ., 1996, p. 84.

5. Uголовный кодекс Узбекской ССР [Criminal Code of the Uzbek SSR]. Samarkand, Old UzSR Publ., 1926, p. 6.
6. O'zbekiston SSRning Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Uzbek SSR]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 1977, p. 18.
7. Kalmhout A.M., Tak P.J.P. Sanctionis-System in the member-states of the Council of Europe. Part I. 1988, p. 2.
8. Dolgovoy A.I. Kriminologiya [Criminology]. Moscow, 1997, p. 735.
9. Andreev A.V. Kriterii, pokazateli i usloviya effektivnosti primeneniya San'sya [Criteria, indicators and conditions for the effectiveness of Sanxia application]. Ryazan, *Problems of improving the Execution of Criminal Penalties*, 1993, p. 169.
10. Noskova N.A. Obshchestvennoye mneniye i effektivnost' mer vozdeystviya, predusmotrennykh ugovnym zakonodatel'stvom [Public opinion and the effectiveness of measures of influence provided for by criminal legislation]. Moscow, *Current Issues of Criminal Law*, 1998, p. 125.
11. Struchkov N.A. Ugolovnaya otvetstvennost' i yeye realizatsiya v bor'be s prestupnost'yu [Criminal liability and its implementation in the fight against crime]. Saratov, 1998, p. 59.
12. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi [Criminal law course of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan Publ., 2018, vol. 2, The doctrine of punishment, p. 335.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis of December 22, 2017]. IPTD Uzbekistan Publ., 2018. 42
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis]. *People's Word (Xalq so'zi)*, 2020, January 25.
15. Хайдаров М.М. Jinoiy sudlov tizimida ozodlikdan mahrum qilish jazolarining o'rni [The role of custodial sentences in the criminal justice system]. *Newsletter of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan*, 2021. vol. 4, p. 90.
16. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2021, p. 584.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr [Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis December 22, 2017]. Available at: <https://president.uz/>

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.07.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 15.08.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 25.08.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4./UTVM7676

UDC: 343.121(045)(575.1)

ДОМАШНИЙ АРЕСТ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ: БАЛАНС МЕЖДУ ЗАЩИТОЙ ОБЩЕСТВА И ИНТЕРЕСАМИ РЕБЁНКА

Базарова Дилдора Бахадировна,
доктор юридических наук, профессор,
заведующая кафедрой «Уголовно-процессуальное право»
Ташкентского государственного юридического университета
ORCID: 0000-0002-6833-9508
e-mail: d.bazarova@tsul.uz

Аннотация. Статья посвящена анализу правового регулирования и практики применения домашнего ареста несовершеннолетних в Республике Узбекистан в контексте обеспечения баланса между защитой общества и соблюдением прав ребёнка. Предметом исследования выступают правовые нормы Уголовно-процессуального кодекса Республики Узбекистан, регламентирующие применение домашнего ареста к несовершеннолетним, практика их реализации и зарубежный опыт в данной сфере. Целью работы является выработка предложений по оптимизации правового регулирования домашнего ареста несовершеннолетних на основе комплексного анализа законодательства, статистических данных и международного опыта. Методологическую основу исследования составляют сравнительно-правовой, системно-структурный, статистический и социологический методы. Проанализированы статистические данные о несовершеннолетней преступности в Узбекистане за 2010–2024 годы, показавшие в возрастной группе 13–15 лет значительные колебания – от 129 до 744 лиц. Изучен зарубежный опыт применения домашнего ареста к несовершеннолетним в США, Германии и Франции. Результаты исследования свидетельствуют о соответствии национального законодательства основным международным стандартам ювальной юстиции и одновременно о наличии существенных проблем в правоприменительной практике. Выявлены недостатки в дифференциации подходов к различным возрастным группам несовершеннолетних, отсутствие воспитательного компонента в содержании домашнего ареста, недостаточная специализация контролирующих органов и слабое межведомственное взаимодействие. Область применения результатов охватывает совершенствование уголовно-процессуального законодательства Узбекистана, практику правоприменения в сфере ювальной юстиции и организацию системы альтернативных мер пресечения для несовершеннолетних. Основные выводы включают необходимость введения дифференцированных критериев применения домашнего ареста в зависимости от возраста несовершеннолетнего, обязательного включения воспитательных мероприятий в условия исполнения меры пресечения, создания специализированной службы ювальной probation и совершенствования межведомственного взаимодействия в работе с несовершеннолетними правонарушителями.

Ключевые слова: домашний арест, несовершеннолетние, меры пресечения, ювальная юстиция, права ребёнка, защита общества, уголовный процесс, баланс интересов

VOYAGA YETMAGANLARNING UY QAMOG'IDA SAQLANISHI: JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BOLA MANFAATLARI O'RTASIDAGI MUVOZANAT

Bazarova Dildora Bahadirovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning uy hibsida saqlanishining huquqiy tartibga solinishi va qo'llanilish amaliyotini jamiyat xavfsizligini ta'minlash va bola huquqlarini sodir etish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash kontekstida tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot predmeti sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining voyaga yetmaganlarga uy hibsini qo'llashni tartibga soluvchi huquqiy normalari, ularni amalga oshirish amaliyoti va ushbu sohada xorijiy tajriba qaraladi. Ishning maqsadi amaldagi qonunchilik, statistik ma'lumotlar va xalqaro tajribani kompleks tahlil qilish asosida voyaga yetmaganlarning uy hibsida saqlanishini huquqiy tartibga solishni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-huquqiy, tizimli-strukturaviy, statistik va sotsiologik usullar tashkil etadi. Shu bilan birga, maqolada O'zbekistonda 2010–2024-yillardagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi va bu 13–15 yosh guruhida 129 dan 744 kishigacha sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatdi. AQSh, Germaniya va Fransiyada voyaga yetmaganlarga uy hibsini qo'llash bo'yicha xorijiy tajriba o'rganildi. Tadqiqot natijalari o'zbek qonunchiligining yuvenal adliya sohasidagi asosiy xalqaro standartlarga mosligini, ammo huquqni qo'llash amaliyotida muhim muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Voyaga yetmaganlarning turli yosh guruhlari yondashuvlarni farqlashda kamchiliklar, uy hibi mazmunida tarbiyaviy komponentning yo'qligi, nazorat qiluvchi organlarning yetarli darajada ixtisoslashmaganligi va zaif idoralararo o'zaro hamkorlik aniqlandi. Natijalarni qo'llash sohasi O'zbekistonning jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish, yuvenal adliya sohasida huquqni qo'llash amaliyoti va voyaga yetmaganlar uchun muqobil oldini olish choralari tashkil etishni qamrab oladi. Asosiy xulosalar voyaga yetmaganlarning yoshiga qarab uy hibsini qo'llashning farqlangan mezonlarini joriy etish zarurligini, oldini olish chorasini bajarish shartlariga tarbiyaviy tadbirlarni majburiy ravishda kiritish, ixtisoslashgan yuvenal probatsiya xizmatini yaratish va voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ishlashda idoralararo hamkorlikni takomillashtirishni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: uy hibi, voyaga yetmaganlar, oldini olish choralari, yuvenal adliya, bola huquqlari, jamiyat himoyasi, jinoyat jarayoni, manfaatlar muvozanati

HOUSE ARREST OF MINORS: A BALANCE BETWEEN PUBLIC SAFETY AND CHILD'S BEST INTERESTS

Bazarova Dildora Bahadirovna,
Head of the Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Science in Law, Professor

Abstract. The article is dedicated to the analysis of the legal regulation and practice of applying house arrest to minors in the Republic of Uzbekistan in the context of ensuring a balance between the protection of society and the observance of children's rights. The subject of the research is the legal norms of the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan regulating the application of house arrest to minors, the practice of their implementation, and foreign experience in this area. The purpose of the work is to develop proposals for optimizing the legal regulation of house arrest for minors based on a comprehensive analysis of legislation, statistical data, and international experience. The methodological basis of the research is comprised of comparative legal, system-structural, statistical, and sociological methods. Statistical data on

juvenile delinquency in Uzbekistan for 2010-2024 were analyzed, showing significant fluctuations in the 13-15 age group—from 129 to 744 individuals. The foreign experience of applying house arrest to minors in the USA, Germany, and France was studied. The research results indicate the compliance of national legislation with the main international standards of juvenile justice and, at the same time, the presence of significant problems in law enforcement practice. Shortcomings were identified in the differentiation of approaches to different age groups of minors, the lack of an educational component in the maintenance of house arrest, insufficient specialization of regulatory bodies, and weak interdepartmental interaction. The application of the results covers the improvement of criminal procedure legislation of Uzbekistan, law enforcement practice in the field of juvenile justice, and the organization of a system of alternative preventive measures for minors. The main conclusions include the need to introduce differentiated criteria for applying house arrest depending on the age of the minor, mandatory inclusion of educational measures in the conditions for the execution of the preventive measure, the creation of a specialized juvenile probation service, and the improvement of interagency cooperation in working with juvenile offenders.

Keywords: house arrest, minors, preventive measures, juvenile justice, children's rights, public safety, criminal procedure, balance of interests

Введение

Современная система уголовного судопроизводства в отношении несовершеннолетних претерпевает значительные изменения, направленные на гуманизацию и индивидуализацию правового воздействия. Одним из важнейших инструментов достижения баланса между защитой общества и соблюдением прав ребёнка является институт домашнего ареста как альтернативная мера пресечения.

Статистические данные Республики Узбекистан демонстрируют нестабильную динамику несовершеннолетней преступности: количество лиц в возрасте 13–15 лет, совершивших преступления, варьировалось от 129 человек в 2019 году до 744 человек в 2023 году, что свидетельствует о необходимости совершенствования подходов к применению мер пресечения в отношении данной категории лиц.

Международные стандарты ювенальной юстиции, закреплённые в Конвенции ООН о правах ребёнка и Пекинских правилах, требуют применения лишения свободы только в качестве крайней меры. В этом контексте домашний арест приобретает особую значимость как средство обеспечения процессуальных целей при минимальном вмешательстве в развитие личности несовершеннолетнего.

Целью настоящего исследования является анализ правового регулирования и практики применения домашнего ареста несовершеннолетних в Республике Узбекистан для выработки предложений по оптимизации баланса между защитой общества и интересами ребёнка.

Для достижения поставленной цели определены следующие задачи:

- проанализировать действующее правовое регулирование домашнего ареста несовершеннолетних в Уголовно-процессуальном кодексе (далее – УПК) Республики Узбекистан;
- исследовать статистические показатели применения данной меры пресечения;
- выявить основные проблемы правоприменительной практики;
- провести сравнительно-правовой анализ зарубежного опыта;
- разработать предложения по совершенствованию законодательства и практики применения домашнего ареста к несовершеннолетним.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью научного осмысления эффективности применения домашнего ареста как альтернативы заключению под стражу несовершеннолетних в условиях совершенствования правового

регулирования в отношении несовершеннолетних в Узбекистане.

keltirilgan. Bunday jinoyatlar qatoriga pora berish (uning barcha shakllari: faol va passiv pora berish – BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi 15-, 16- va 21-moddalari), manfaatdor shaxsga noqonuniy ta'sir o'tkazish (18-modda) va xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish (19-modda) kiradi va ular infratuzilma loyihalarini amalga oshirishning turli bosqichlarida eng ko'p uchraydigan holatlar hisoblanadi. Noqonuniy boylik orttirish (20-modda), talon-toraj qilish va o'zlashtirish (17-modda), korrupsiya holatlarini yashirish (24-modda), odil sudlovni tiklashga to'sqinlik qilish (25-modda) hamda jinoiy faoliyatlardan olingan daromadlarni legallashtirish (23-modda) kabi jinoyatlar ko'pincha pora berish va mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishdan so'ng yuzaga keladi yoki ular bilan bir vaqtda sodir etiladi.

Firibgarlikning turli shakllari, masalan, til biriktirish (*сговор*) va tenderni soxtalashtirish (*фальсификация торгов*) davlat xaridlarida mustaqil holda yoki korrupsiya sxemasining tarkibiy qismi sifatida ham yuzaga chiqishi mumkin. Ayrim hollarda firibgarlik pora berish orqali amalga oshiriladi, ya'ni pora oluvchilar noqonuniy harakatlarga ko'z yumishi uchun pora beriladi.

Korrupsiya va firibgarlikni amalga oshirishga qurilishni loyihalash, boshqarish yoki nazorat qilish uchun tayinlangan professional maslahatchilar (masalan, arxitektorlar, loyihachi muhandislar, injenerlar yoki geodestlar) ham ko'maklashishi mumkin. Ushbu shaxslarning xatti-harakatlari ko'p hollarda e'tibordan chetda qoladi va huquqiy baho berilmaydi. Amaliyotda nazoratchi injenerlar va pudratchilar o'rtasida til biriktirish loyihalarni amalga oshirishda uchraydigan tipik korrupsiyaviy sxema hisoblanadi.

Bosh prokuratura ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish jinoyati uchun – 2 929 nafar (2023-yilda – 2 205, +32,8 foiz), pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish – 353 (195, +81 foiz), firibgarlik

– 447 (272, +64,3 foiz), mansab vakolatini suiiste'mol qilish – 226 (397, -43 foiz), mansab soxtakorligi – 13 (36, -68,9 foiz), mansabga sovuqqonlik bilan qarash – 40 (25, +60 foiz), mansab vakolati doirasidan chetga chiqish – 13 (30, -56,7 foiz), boshqa jinoyatlar uchun – 885 nafar (415, +2,1 baravar) mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilgan [10].

Jinoyatlar o'rganilganda, 2024-yilda avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasida 205 nafar shaxs korrupsion jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilganligi, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan pasayganligi (289 nafar), ammo 2022-yildan yuqori (190 nafar) ekanligi ma'lum bo'ldi.

Jinoyat ishlarini o'rganish natijasida bajarilmagan ishlar uchun soxta hujjatlar tayyorlash, tender va shartnomalarda qalloblik, qurilish materiallarining narxini asossiz ravishda oshirish, yonilg'i va qurilish mahsulotlarini o'zlashtirish, hujjatlarga yolg'on ma'lumot kiritish, pora olish va firibgarlik orqali vakolatlarni suiiste'mol qilish kabi korrupsiyaning asosiy sxemalari aniqlandi. Aniqlangan holatlarda ko'pincha mansabdor

shaxslar va xususiy kompaniya rahbarlari jinoiy til biriktirib harakat qilgan. Bu holat tizimli muammo mavjudligini ko'rsatadi.

2024-yilda avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasida korrupsion jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan 205 nafar shaxsdan 173 nafariga o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish (JKning 167-moddasi), 84 nafariga hujjatlarni qalbakilashtirish (JKning 228-moddasi), 92 kishiga mansab soxtakorligi (JKning 209-moddasi), 15 nafariga mansabga sovuqqonlik bilan qarash (207-m), 9 kishiga soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash (184-m), 6 kishiga firibgarlik (168-m), 5 kishiga savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish (189-m), 4 kishiga hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (JKning 205-moddasi), 3 kishiga pora berish (211-m), 1 nafariga pora olish (210) hamda 1 kishiga qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish (181¹-modda) ayblovi qo'yilgan [11].

Quyida avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasida 2022–2024-yillarda sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarning shakllari tahlil qilingan.

Jadval


2022–2024-yillarda avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasida korrupsion jinoyatlar [23]

№	Jinoyat turi	Jinoyat kodeksi moddasi	2024-yil (nafar)	2023-yil (nafar)	2022-yil (nafar)
1	O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish	JK 167-m	173	246	162
2	Hujjatlarni qalbakilashtirish	JK 228-m	84	151	71
3	Mansab soxtakorligi	JK 209-m	92	65	97
4	Mansabga sovuqqonlik bilan qarash	JK 207-m	15	3	10
5	Soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash	JK 184-m	9	8	-
6	Firibgarlik	JK 168-m	6	5	9
7	Savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish	JK 189-m	5	2	-
8	Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish	JK 205-m	4	15	23
9	Pora berish	JK 211-m	3	4	1
10	Qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish	JK 181 ¹ -m	1	-	-
11	Pora olish	JK 210-m	1	-	-

Misol uchun, buyurtmachilar, pudratchilar boshqa mansabdor shaxslar bilan jinoiy til biriktirib, qurilishi obyekti bo'yicha pudrat shartnomalarini tuzib, rasmiy hujjat hisoblangan bajarilgan ishlar haqidagi hisobotlariga amalda bajarilmagan ish turlari bajarilgani haqidagi ma'lumotlarni kiritib hamda qurilish jarayonida sifatsiz ishlarni bajarib budjet mablag'larini o'zlashtirishgan. Shuningdek, quruvchi jamiyatlar obyekti bo'yicha loyihachi va ekspertiza o'tkazishga mas'ul tashkilot mansabdor shaxslari bilan jinoiy til biriktirib, loyiha-smeta hujjatlariga qurilish materiallarining narxini oshirib ko'rsatish va

ortiqcha ish turlarini kiritish orqali budjet mablag'larini rastrata qilishgan.

Yoki qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi mansabdor shaxslari Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-avgustdagi 496-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Obyektlarda davlat qurilish nazoratini amalga oshirish bo'yicha Ma'muriy reglament"ning 10-bandida belgilangan obyektida bir oyda uch marta davlat qurilish nazoratini amalga oshirishga oid vazifalarini bajarmagani oqibatida xalqaro o'tkazish punkti qurilishi obyekti ishlar sifatsiz bajarilgan.



Rasm. 2024-yilda avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash sohasida korrupsion jinoyatlar [24]

Misol uchun, Taxtakopir tumani Yo'llardan foydalanish davlat muassasasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi avtomobil yo'llari Bosh boshqarmasi mansabdor shaxslari o'zaro jinoiy til biriktirib, qiymati 1 mlrd 445 mln 124 ming so'mlik mahalliy yo'llarni saqlash yuzasidan tuzilgan pudrat shartnomasi bo'yicha avtomobil yo'llarida saqlash ishlari bajarilmagan bo'lsa-da, bajarilgani to'g'risida shakl-2, shakl-3 hisobotlarini tuzish orqali juda ko'p miqdorda budjet mablag'larini talon-toroj qilgani aniqlangan.

Shu kabi yana bir holatda fuqaro mas'uliyati cheklangan jamiyat ta'sis qilib, jamiyat rahbari vazifasida ishlab, tuman

yo'llardan muntazam foydalanish unitar korxonasi direktori va bosh hisobchisi bilan til biriktirgan. Ular guruh bo'lib, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi va "Raqobat to'g'risida"gi qonunlar talablariga zid ravishda tanlov (tender) savdolarini o'tkazmasdan viloyati hududidan o'tgan xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'lining qismlarida umumiy qiymati 11 989 093, 761 so'mlik yo'l qurish-ta'mirlash ishlarni bajarish yuzasidan bosh pudratchi tuman yo'llaridan muntazam foydalanish unitar korxonasi bilan yordamchi pudratchi xususiy korxona o'rtasida pudrat shartnomasi tuzilishiga erishgan. Bajarilgan ishlar dalolatnomasida esa materiallarni o'rtacha bozor narxidan 724 457 200 so'mga va boshqa

turdagi materiallarni o'rtacha bozor narxidan 1 235 083 889 so'mga qimmat narxda hisoblab, shu miqdordagi mablag'ni talon-toroj qilishgan.

Yoki tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga asosan yo'l poyi asosini zichlash ishlari bajarilmagani hamda yo'l qoplamasini qurish ishlari shaharsozlik normalari va qoidalari talablari asosida bajarilmagani oqibatida hozirgi kunda yo'l qatnov qismining o'ng va chap tomon qismi jami qiymati 156 298 831,7 so'm miqdorida asfalt-beton qoplamasida cho'kish va yorilishlar natijasida nosoz holga kelgan.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar – bajarilmagan ishlar uchun soxta hujjatlar, tender va shartnomalarda qalloblik, material va yonilg'i tarkibi dastlab oshirilgan holda o'zlashtirish, hujjatlardagi noto'g'ri ma'lumotlar, pora olish va firibgarlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish – bular korrupsiyaning asosiy sxemalaridir. O'tkazilgan tergov ishlarida aniqlangan holatlarda mansabdor shaxslar va xususiy kompaniya rahbarlari hamkorlikda jinoyat sodir etgan, bu qurilish sohasida tizimli muammo mavjudligini aks ettiradi.

Transparency International tomonidan 2011-yilda e'lon qilingan "*Bribe Payers Index*" tadqiqotiga ko'ra, 19 ta turli biznes sektori orasida pora berish ehtimoli eng yuqori bo'lgan sektor – "jamoat xo'jaligi va qurilish kontraktlari" bo'lib, bu sektorga tegishli sektorlar eng past – 5,3 ballni olgan [12].

Yuqoridagi jinoyatlar tahlilidan eng ko'p ulushga ega bo'lgan o'zlashtirish, rastrata va hujjatlarni soxtalashtirish infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish jarayonidagi eng xavfli mexanizmlar ekanini, jinoyatchilar mansab va huquqiy shartlardan foydalanishini ko'rish mumkin.

Minimal hollarda pora olish, vakolatni suiiste'mol qilish, soliq to'lovlaridan qochish holatlari tizimda korrupsiya chuqur ildiz otganidan darak bermoqda. Katta infratuzilma loyihalarini amalga oshirish jarayonida uch-

raydigan tipik korrupsiya, firibgarlik sxema va holatlari quyidagilardir:

- *pora berish*
- *loyiha bo'yicha kelishuvlarga erishish maqsadida davlat idoralariga pora berish (masalan, tenderdan foyda olish uchun).*

Odatda kontrakt qiymatida 5–20 foiz miqdorida to'lovlar amalga oshiriladi [13].

Korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumotlarni yashirish. Loyiha rahbarlarining xususiy kompaniyalarda yoki muhandislik firmalarida yashirin xususiy manfaatlari bo'ladi, bu esa bir tomonlama tenderlar o'tkazilishiga sharoit yaratadi.

Tender o'tkazishda qonunbuzarliklar. Qurilish kompaniyalari va loyiha rasmiylari kelishgan holda raqobatsiz tenderlarda foyda olish maqsadida narxlarni sun'iy oshirish amaliyotiga yo'l qo'yadi. Bu holatda tender jarayonida faqat bitta nomzodga ishtirok etish imkoniyatini yaratish, ishtirokchilar o'rtasida navbat bilan g'olib chiqish tizimini (*bid rotation*) qo'llash hamda tender shartlari va talablarini oldindan belgilangan firmaga moslab tayyorlash kabi usullar qo'llanadi. Bu esa tender jarayonining shaffofligi va adolatli raqobat prinsiplarini buzadi hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keskin oshiradi.

Shartnomaviy firibgarlik. Bir necha kompaniyalar birgalikda foydalaniladigan strategiyani ishlab chiqadilar, g'olibni oldindan belgilagan holda yuqori narxli "raqibsiz" tenderlar o'tkazib, kontraktni yuqori baholangan summada olishadi.

Soxtalashtirilgan yuk xatlari. Xizmatlar yoki ishlar bajarilmagan holda hisob-fakturalar tuziladi;

- shartnoma va talablarga muvofiq bo'lmagan past sifatli materiallardan foydalaniladi;
- o'zgarishlardan foydalanib, asossiz qo'shimcha mablag'lashtirish *amalga oshiriladi.*

Materiallarni almashtirish. Shartnomada ko'rsatilgan yuqori sifatli materiallar o'rniga pastroq mahsulotlardan foydalanish, lekin

yuqori sifatli deb hisob-faktura qilish kuzatiladi.

Loyihaga xos bo'lmagan holda narxni sun'iy oshirish. Loyiha davomida mantiqiy bo'lmagan yoki ortiqcha o'zgarishlar kiritib, kontrakt qiymatini sun'iy ravishda oshirish va bu orqali pora to'lash hollari uchraydi.

Tender va qurilish jarayonlarida faol nazorat yetishmasligi. Noto'g'ri belgilangan tanlov mezonlari, nomzodlarni formal tavsiflash yoki seleksiya jarayonlari raqobatsiz tenderlarning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. *Shuningdek, hujjatlarda aniq rekvizitlarning yo'qligi, nusxa hisob-fakturalar hamda shaxsiy ma'lumotlarning (ism, manzil, aloqa ma'lumotlari) takrorlanishi* tender jarayonining shaffof emasligidan dalolat beradi. Bir bank orqali hujjat aylanmasi yuritilishi, tender jarayonining birlamchi manbaga bog'langanini va sun'iylik ehtimolini ko'rsatadi. Shu bilan birga, nomzodlarning shaxsiy ma'lumotlaridagi raqamlarning bir xil bo'lishi ularning haqiqiy ishtirokchi emasligini, balki ayrim shaxslar yoki tashkilotlar tomonidan sun'iy ravishda tashkil etilganini anglatadi.

Davlat boshqaruvi va qurilish sohasida faoliyat yuritayotgan, biroq korrupsiyaviy sxemalarga aralashmagan kompaniyalar ko'p hollarda raqobat muhitida chetda qoladi. Bu holat, ayniqsa, investitsion jihatdan jozibador bo'lgan loyihalarda namoyon bo'ladi. Chunki pora talab qilinishi yoki noqonuniy imtiyozlar mavjud bo'lgan muhitda ishtirok etish imkoniyati pasayadi. Shu tariqa, korrupsiya ehtimoli yuqori bo'lgan bozorda sof raqobat prinsiplari buziladi va halol kompaniyalar tender jarayonlaridan uzoqlashishga majbur bo'ladi [14].

Benner va de Haan (2008) ilmiy maqolasida davlat tashkilotlaridagi umumiy korrupsiyaga oid zaifliklarni tushuntirib, korrupsiya xavfini bartaraf etish uchun zaif jarayonlarni aniqlash, tahlil qilish va ularga qarshi halollik tizimini kuchaytirish uchun amaliy choralar joriy etishni taklif etarkan,

zaif zonalarini tanlash → tahliliy baholash → zaiflikka qarshi choralar metodologiyasini ishlab chiqqan [15].

Singh va Bussenning *“Compliance Management: A How to Guide”* (2015) asarida aktivlar bilan bog'liq firibgarlik (*asset fraud*) va korrupsiya shakllari deb quyidagilar ko'rsatilgan: 1) aktivlarni talon-toraj qilish, ya'ni bu eng tarqalgan firibgarlik turi bo'lib, tashkilot xodimlari yoki boshqa ichki shaxslar moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirib, pullarni shaxsiy hisobiga o'tkazishi; 2) *skimming*, ya'ni pul rasmiy hisobga olinmasdan o'g'irlanishi; 3) *larceny* (o'g'rilik) pul rasmiy hisobga olingandan so'ng o'g'irlanishi; 4) *Fraudulent disbursements* (firibgarlik to'lovlari), ya'ni tovar yoki xizmat amalga oshmagan bo'lsa-da, tashkilotdan pul chiqarilishi; 5) ish haqi bilan bog'liq firibgarliklar; 6) xarajatlar uchun soxta to'lovlar, inventarlar o'g'irlanishi. Singh va Bussenning fikriga ko'ra, ushbu shakllardagi korrupsiyaning oldini olish uchun *majburiyatlar ajratilishi (segregation of duties)*, ya'ni ichki nazoratning asosiy prinsipi bo'lib, turli ish jarayonlari bir shaxsda birlashtirilmasligi, *auditlar, xarajalar monitoringi va kadrlar nazorati* – soxta to'lovlar va moliyaviy firibgarlik holatlarini erta bosqichda fosh etish, *jamoatchilikka hisobdorlik (accountability to the public)* – oshkoralikni ta'minlash zarur [16].

BMTning Narkotik moddalar va jinoyatchilikka qarshi boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan “Halollik holati: davlat tashkilotlarida korrupsiya xavflarini baholash bo'yicha qo'llanma”da korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bosqichma-bosqich baholash va boshqarish uchun tashkilotning ish muhitini, shu jumladan, vakolatlari, funksiyalari va manfaatdor tomonlarni baholash, yuz berishi mumkin bo'lgan korrupsion sxemalar va ssenariylar ro'yxatini tuzish, aniqlangan xavflar ehtimolini baholash uchun ichki hujjatlar, nazorat va hujjatlarni ko'rib chiqish, korrupsiya xavfining ehtimoli va ta'sirini baholash, ularga ustuvorlik berish va asosiy xavflarning

oldini olish, mavjud boshqaruv vositalarini ko'rib chiqish, yangi boshqaruv vositalariga bo'lgan ehtiyoj va ularni amalga oshirish, xavflarni kamaytirish rejasini tuzish tavsiya qilinadi.

Paterson va Chaudhurining fikriga ko'ra, transport sohasida keng tarqalgan korrupsion faoliyat turlari pora berish, shartnoma summasidan oldindan kelishilgan noqonuniy foiz (*"kickbacks"*), til birlashtirish, tenderlarni manipulyatsiya qilish, tender va davlat xaridlaridagi korrupsiyalik kelishuv hamda firibgarlikdir. Mualliflar korrupsiyaga qarshi kurashishning ikki bosqichli strategiyasini, ya'ni qisqa muddatli chora-tadbirlar va uzoq muddatli yondashuvni taklif qiladilar. Birinchisida tender va kontrakt bajarilishining har bir bosqichida maxsus tekshiruvlar o'tkazilishi, shubhali holatlar aniqlanganda ularni tezlik bilan ko'rib chiqish, nojo'ya xatti-harakatlar aniqlanganda darhol kerakli organlar tomonidan tergov boshlanishi, qonuniy javobgarlik choralari qo'llanishi, masalan, shartnomalar bekor qilinishi, jinoiy javobgarlik, maqsad tizimning darhol javob bera olish salohiyatini kuchaytirish zarur [17].

Uzoq muddatli yondashuvda esa mahalliy sharoitga mos nazorat tizimlarini mustahkamlash nazarda tutilib, kadrlar, menejment va ichki auditoriya ishtirokida tashkilot ichida nazorat va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish, qarorlarni markazdan tortib mahalla darajasiga yetkazadigan nazorat zanjirini yaratish strategiyasini joriy etish taklif etiladi.

Shuningdek, muallif *Integrity Pacts*ni (Halollik paktlari) korrupsiyani aniqlash va oldini olish uchun vosita sifatida ko'rsatgan. Bu davlat idorasi, pudratchilar va mustaqil kuzatuvchi (odatda fuqarolik jamiyati tashkiloti) o'rtasida imzolangan bitim bo'lib, tender va shartnoma jarayonlarida halollik, shaffoflik va hisobdorlikka rioya etishni majburiy qiladi [18]. *Integrity Pacts* yordamida har bir tomon o'z majburiyatlariga rioya qilishni yozma ravishda qo'llab-quvvatlaydi va mustaqil tashkilotlar nazorati orqali noqo-

nuniy xatti-harakatlar tez aniqlanadi. Mazkur tajriba dunyo bo'ylab (Latviya, Vengriya, Pokiston, Meksika, Hindiston) daromadlarni tejash (masalan, Pokiston misolida shartnoma qiymatining 20 foizini tejash) va shaffoflikni oshirishda aniq natijalar ko'rsatgan.

Shu kabi fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratini jalb qilish, axborot ochiqqligi va ochiq ma'lumotlar, barcha hujjatlar, baholash mezonlari va qarorlar jamoatchilikka taqdim etilishi, tender jarayonlarining texnologik raqamlashtirilishi va protsedura soddalashtirilishi shaffoflik va raqobatni kuchaytiradi.

Cui va boshqalar o'z tadqiqotida katta hajmli va murakkab loyihalar korrupsiyaga yo'l ochishini, infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda poraxo'rlik, oldindan kelishilgan noqonuniy foiz (*kickbacks*), tenderni manipulyatsiya qilish, firibgarlik, talon-toroj qilish (*embezzlement*), nepotizm (tanishbilishi yordamida o'rin olish), majburiy pul yig'ish (*extortion*) kabi korrupsiya sxemalari mavjudligini ko'rsatgan. U mavjud qonunchilik, nazorat mexanizmlari, mustaqil audit, jamoatchilik tizimlari korrupsiyani yo'qotishga yordam berishini taklif qilib, tender natijalaridagi keskin narxlar, past ishtirokchilik, avvalgi tenderlar bilan solishtirib tahlil qilish orqali korrupsion holatlarni aniqlash mumkinligini bildirgan [19].

Lokatelli, Mariani, Sainati va Greco (2017) fikriga ko'ra, loyihani tanlashda korrupsiyaga moyilligini hisobga olish, shaffof tanlovlar o'tkazish, mustaqil audit, ichki nazorat organlari va shaffof boshqaruv tizimlarini joriy etish, *Integrity Pacts*, jamoatchilik nazorati, ochiq ma'lumotlar portallari, mustaqil auditlar va moliyaviy tekshiruvlarni muntazam ravishda o'tkazish, korrupsiya aniqlanganda shartnomalarni bekor qilish, kompaniyalarni qora ro'yxatga kiritish, jinoiy ish ochish kabi jazo qo'llanishi hamda ilgari amalga oshirilgan loyihalarining tajribasi asosida nazorat tizimlari tuzilib, korrupsiyaga moyil vaziyatlarga prognozlar va yechimlar ishlab chiqilishi lozimligi aytilgan.

Global Infrastructure Anti-Corruption Centre (GIACC) tomonidan yaratilgan amaliy yo'riqnomalar va *"Preventing Corruption on Infrastructure Projects"* deb nomlangan kurs orqali infratuzilma sektori uchun korrupsiyani aniqlash va oldini olish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash zarur. Kurs 36 soatdan iborat, shu jumladan, 12 soat dars va 24 soat mustaqil o'qish orqali tashkil etiladi [20].

Bundan tashqari, yengil shakldagi seminar materiali – *"The Silent Killer: Corruption on Infrastructure Projects"* talabalarga 3 soatlik o'qish va muhokama orqali asosiy konseptlar bilan tanishish imkonini beradi.

Tibbiyot, muhandislik, arxitektura, loyiha boshqaruvi va boshqa infratuzilmalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar uchun bu materiallar nol to'lov asosida taqdim etilishi inobatga olinib, universitetlar tomonidan o'quv dasturiga integratsiya qilinishi mumkin [21].

GIACC tomonidan ishlab chiqilgan PACS (*Project Anti-Corruption System*)ga ko'ra, jazo chorasi va *"debarment"* mexanizmlari taklif etilgan bo'lib, moliyaviy va texnik auditlar muntazam o'tkazilishi, bu orqali to'g'ri to'lovlar, qurilish sifati va shaffoflik baholanishi, korrupsiya aniqlanganda qatnashuvchilarni tenderlarda qatnashishdan cheklash, shartnomalarni bekor qilish, moliyaviy kompensatsiya yoki jinoiy javobgarlikka tortish tavsiya etiladi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, yo'l-transport infratuzilmasi sohasida korrupsiyaning tarqalishi asosan quyidagi omillar bilan bog'liq:

- manfaatlar to'qnashuvi va zaif nazorat tizimlari;
- axborot ochiqqligining yo'qligi;
- elektron tender tizimining cheklanganligi;
- tashqi audit va mustaqil monitoring yo'qligi.

Bunday korrupsiyaviy holatlar infratuzilmaviy loyihalarning muddatidan kechikishi, sifati past bo'lishi va aholining davlat organlariga nisbatan ishonchi pasayishiga olib

keladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, tender jarayonlarini raqamlashtirish va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish bunday holatlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi [22].

Xulosa

Yuqoridagilarga asosan quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Loyihalar tanlash jarayonida *"korruptiv kontekst"* (*corrupt project context*) tahlili o'tkazilishi zarur: loyiha hajmi, murakkablik darajasi, jamoat sektorining ishtiroki, manfaatlar ziddiyati oshkor qilinishi kerak.

"Korruptiv kontekst" (*corrupt project context*) tahlili quyidagicha amalga oshiriladi. Ya'ni loyihalar tanlanayotganda quyidagi xususiyatlarga e'tibor qaratilishi lozim:

- loyiha hajmi: juda katta moliyaviy hajm pora va korrupsiya uchun keng imkoniyat yaratadi;
- murakkablik (ko'p pudratchilar, murakkab texnik talablar) – nazorat real jihatdan qiyinlashadi;
- jamoat sektori roli: davlat mijoz yoki pudratchi bo'lsa, korrupsion sharoitlar kuchayadi;
- manfaatlar ziddiyati: qaror qabul qiluvchi shaxslar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi aniqlanishi zarur.

Ushbu omillar asosida loyiha profilaktik baholanadi – *"korrupsiyaviy daraja"* aniqlanadi va ehtiyot choralari belgilanadi. Shuningdek, tender va loyihalarni rejalashtirishga alohida e'tibor qaratilishi, barcha variantlar ochiq baholanib, shaffof tender platformalari va mustaqil ekspertlar maslahatidan foydalanish tavsiya etiladi.

Loyihalarni amalga oshirishda har bir bosqichda maxsus nazorat yondashuvlari o'rnatilishi lozim: tayyorlov, ijro etish, nizoni hal qilish – har bosqichda rasmiy audit, monitoring, nazorat bo'lishi shart.

Shaffof tender platformalari orqali barcha hujjatlar (spetsifikatsiya, mezonlar, baholash natijalari) ochiq e'lon qilinishi va jamoatchilik tomonidan kuzatilishi ta'minlanishi zarur.

Mustaqil ekspertlar – mahalliy yoki xalqaro ekspertlar jalb etilib, tender hujjatlarini tayyorlash va baholashda qatnashishi kerak, bu manfaatlar ziddiyati kamayishiga olib keladi.

Jiddiy xavflarga qarshi “xavf indikatorlari” (shubhali holatlar belgisi) joriy etiladi:

- takroriy tender g’oliblari → raqobat pasayishi va nepotizm ehtimoli;

- nomutanosib narxlar → qiymat haddan ziyod ko’tarilishi, tender narxlari manipulyatsiyasi;

- hujjatlarda format, matnlar va grafikalar bir xilda bo’lishi → bir shaxs tomonidan tayyorlanganligi va manipulyatsiya ehtimoli.

Har chorakda maxsus audit va nazorat o’tkazilishi tavsiya etiladi.

Integrity Pacts, ochiq tender platformalari, jamoatchilik ishtirokidagi monitoring tizimlari joriy etish – korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari davlat tenderlari va infratuzilma loyihalarida doimiy monitoring orqali ishtirok etishi kerak. Ular ijtimoiy nazorat roliga korrupsion xatti-harakatlarni aniqlab, tegishli organlarga xabar berishlari mumkin (masalan, Indoneziyada *Indonesia Corruption Watch (ICW)* tomonidan ishlab chiqilgan *Opentender.net* platformasi orqali jamoatchilik 1,8 milliontadan ortiq tenderni tahlil qilgan).

Korrupsiyani fosh etishda xabar beruvchi shaxslar, ya’ni ichki manbalar muhim o’ringa ega. Ularning firibgarlik yoki korrupsion ho-

latlarni ishora qilish imkoniyati bo’lishi va bu harakatlar uchun rag’batlantirish chora-tadbirlari ko’rilishi zarur (mamlakat misolida, Nigeriyada 2016-yilda joriy qilingan “Korrupsiya va huquqbuzarliklar haqida xabar berish siyosati” (*Whistle-blowing policy*), fuqarolarga o’z ma’lumotlaridan foydalanish evaziga 2,5–5 foiz qaytib olinadigan mablag’ taqdim etadi, ushbu siyosat 178 mln dollar qaytarilishini ta’minlagan).

Shuningdek, GIACC tomonidan yaratilgan amaliy yo’riqnomalar va kurslar universitetlar uchun bepul tarzda ajratilgan bo’lib, akademik o’quv dasturlariga integratsiya qilinishi mumkin. Ular talabalar va kasbiy mutaxassislar hamda boshqa professional guruhlar uchun mo’ljallangan. Bu yo’riqnoma va kurslarda korrupsiya ta’rifi va qonuniy asoslar, infratuzilma loyihalardagi tender va qurilish bosqichida yuzaga keladigan korrupsiya turlari, profilaktik choralar, *case-study* misollari kabi modullar mavjud.

Ushbu kurs va seminar materiallarini loyihaning yo’l-transport infratuzilma yo’nalishida mutaxassislar malakasini oshirish bazasi sifatida tatbiq etish tavsiya etiladi. Shunga ko’ra, har bir loyiha uchun mustaqil nazorat va audit tizimi joriy etilishi, anti-korrupsiya sertifikatli mutaxassislar (GIACC kurslarini tugatganlar) auditor sifatida jalb qilinishi, *debarment* va jazo choralari oid qonuniy mexanizmlarni rasmiy ravishda ta’minlashi hamda tatbiq etishi zarur.

REFERENCES

1. O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar: natija va ko’rsatkichlar [Anti-Corruption Agency of the Republic of Uzbekistan. Work carried out in 2024: results and indicators]. Available at: <https://aca.uz/oz/article/2024-yilda-amalga-osirilgan-ishlar-natija-va-krsatkichlar>

2. 2024-yilda yo’l qurilish sohasida 17 milliard so’mlik sifatsiz ishlar bajarilganligi aniqlandi [It was revealed that 17 billion soums worth of poor-quality work was carried out in the road construction sector in 2024]. Available at: <https://daryo.uz/2025/03/10/2024-yilda-yol-qurilish-sohasida-17-milliard-somlik-sifatsiz-ishlar-bajarilganligi-aniqlandi>

3. United Nations Office on Drugs and Crime (UNODC), United Nations Convention against Corruption, 2004, art. 9, para. 2(d), p. 13.
4. Sustainable Development Goals (SDGs) Cities Challenge. Available at: <https://sdgs.un.org/ru/goals>
5. Brookes N.J., Locatelli G. Power plants as megaprojects: using empirics to shape policy, planning, and construction management. *Utilities Policy*, 2015, vol. 36, pp. 57–66.
6. Miller R., Lessard D.R. The Strategic Management of Large Engineering Projects. MIT Publ., 2000.
7. GIACC. Examples of Corruption in Infrastructure Projects. 2008. Available at: <http://www.giacentre.org/documents/GIACC.CORRUPTIONEXAMPLES.pdf>
8. Anti-Corruption Resource Centre. Glossary of Anti-Corruption Terms. 2015. Available at: <http://www.u4.no/glossary>
9. Bowen P., Akintoye A., Pearl R., Edwards P.J. Ethical behaviour in the South African construction industry. *Construction Management and Economics*, 2007, vol. 25(6), pp. 631–648.
10. O'zbekistonda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar. 2025. Available at: <https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/27/official-crimes>
11. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. Jinoyat ishlari bo'yicha yillik hisobotlar. 2022–2024.
12. Transparency International. Bribe Payers Index 2011. Available at: <http://www.transparency.org/bpi2011>
13. IACRC – International Anti-Corruption Resource Center. Summary of Fraud and Corruption Cases in International Development Projects. Available at: <https://iacrc.org/fraud-and-corruption/summary-of-fraud-and-corruption-cases-in-international-development-projects/>
14. Graf L.J., Taube M., Schramm M. The New Institutional Economics of Corruption. Routledge Publ., 2004.
15. Benner H., de Haan I. SAINT: A tool to assess the integrity of public sector organizations. *International Journal of Government Auditing*, 2008, vol. 35(2), pp. 16–21.
16. Singh N., Bussen T. Compliance Management: A How-to Guide. Praeger Publ., 2015.
17. Paterson W.D.O., Chaudhuri P. Making Inroads on Corruption in the Transport Sector through Control and Prevention. 2007.
18. Transparency International. Integrity Pacts: A Tool for Clean Contracting. Available at: <https://www.transparency.org/en/tool-integrity-pacts>
19. Cui Z., Wang D., Casady C.B., Yin H., Dong A. Assessing the Institutional- and Project-Level Determinants of Corruption in Infrastructure Projects: Evidence from World Bank-Funded Projects. *Multidisciplinary Journal of Civil Engineering*, 2024, vol. 2(1). DOI:10.1061/ASCE/CO.1943-7862.0001991
20. GIACC. University Course on Preventing Corruption in Infrastructure Projects. Available at: <https://giacentre.org/university-course/>
21. GIACC. University Seminar: Preventing Corruption in Infrastructure Projects. Available at: <https://giacentre.org/university-seminar/>
22. Professional Ethics and Countering Corruption. PDF-dokument. Available at: <file:///C:/Users/>

SHARAFLI YO'L SOHIBI, SUDYALARNING USTOZI, ODIL VA FIDOYI RAHBAR



Har qanday ma'naviy boyluk jamiyat hayoti va taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Zehn-u zakovatda, aql-u idrokda, ilm-fanda tengi yo'q, buyuk kashfiyotlari bilan dunyoni lol qoldirgan mutafakkirlar, mashhur kishilari borligi bilan o'zbek xalqi har qancha faxrlansa, iftixor qilsa arziydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda, "Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak..." Yangi O'zbekistonning dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, ayniqsa, bu boradagi xalqaro reyting va indekslardagi mavqeyini yaxshilash, o'z navbatida, nafaqat ilm-fan sohasini, balki sud va huquqni qo'llash amaliyotini ham zamonaviy talablarga muvofiq jadal rivojlantirishga bog'liq. Har bir insonni o'zining mehnat va ilmiy faoliyati tufayli yaxshi bilish, kuyunchak rahbar va sohasining yetuk mutaxassisi sifatida uni hurmat qilish, eng avvalo, uning ish uslublariga va rahbarlik salohiyatiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Boshqaruv mahorati, yetakchilik

qobiliyatini rahbar shaxsdan o'rganish va o'zining faoliyatida undan ibrat olish, kasbiy sohada muvaffaqiyatlarga erishishning muhim omilidir.

Zamonamizning yetuk huquqshunoslari haqida fikr yuritganda ko'z o'ngimizda ana shunday fidoyi rahbarlardan biri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlar nomzodi Mirzo-Ulug'bek Elchiyevich Abdusalomov namoyon bo'ladi. Bunday insonlarning rahbarlik salohiyatini, ibratli hayot yo'lini kuzatsangiz yoki muayyan soha va tizimda birgalikda faoliyat yuritsangiz, ularni o'zingizga eng yaqin maslakdosh sifatida qabul qilasiz.

M.Abdusalomov 1952-yil 14-fevralda Sirdaryo viloyatida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetini huquqshunos va Toshkent oliy partiya maktabini siyosatshunos mutaxassisliklari bo'yicha tamomlagan. Yuridik fanlar nomzodi, 2-darajali davlat adliya maslahatchisi, sudyalik "Oliy malaka darajasi"ga ega.

Mehnat faoliyatini 1969-yil Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar o't o'chirish qismida katta yo'riqchilikdan boshlagan. So'ng

Respublika huquqni muhofaza qiluvchi idoralarida, dastlab Sirdaryo viloyati prokuraturasida ish o'rganuvchi, 1976–1982-yillarda esa bir qator mas'ul, jumladan, tergov bo'limining prokurori, viloyat prokurorining voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha, keyinchalik kadrlar bo'yicha katta yordamchisi, Sirdaryo viloyati Mehnatobod tuman sudining raisi, o'sha paytdagi O'zbekiston Kommunistik partiyasi Sirdaryo viloyat qo'mitasi ma'muriy, savdo va moliya organlari bo'limi yo'riqchisi, bo'lim mudiri, O'zbekiston KP MQ ma'muriy organlar bo'limi mudirining o'rinbosari, 1989–2005-yillarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining o'rinbosari, vazir vazifasini bajaruvchi, vazirning birinchi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi raisi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi lavozimlarida ishlagan.

2005-yildan 2021-yilgacha Markaziy saylov komissiyasining Raisi lavozimida samarali faoliyat yuritib, 2021-yil 5-fevraldan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi lavozimiga qayta saylandi. Mamlakatimiz sudyalarning ustozlari va taniqli murabbiysi o'zining ko'pyillik mehnat faoliyati davomida, qaysi vazifada ishlamasin, hamisha teran fikri, mehnatsevarligi bilan hamkasblari va jamoa o'rtasida obro'-e'tibor qozondi.

Respublika Oliy xo'jalik sudining raisi lavozimidagi faoliyati davomida mamlakatimizda odil sudlovni amalga oshirish, mustaqil sud hokimiyatining mustahkamlanishi va sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishi, davlat va jamiyatning, yuridik shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shish bilan birga, xo'jalik nizolarining qonuniy va adolatli hal etilishiga erishish borasidagi sudlar mavqeyining oshishi, xo'jalik sudlari moddiy-texnik bazasining sezilarli darajada yaxshilanishi hamda zamonaviy jihozlangan binolar va tegishli texnika vositalari bilan ta'minlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Yaqinda iqtidorli jurnalist Arslon Eshmurodovning "Sharaflı yo'l sohibi: Mirzo-Ulug'bek Abdusalomov portretiga chizgilar" kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi. Darhaqiqat, Vatanini sevuvchi har bir inson hayoti davomida yurti, xalqi uchun manfaat keltirish yo'lida bor kuch-g'ayrati bilan mehnat qiladi. Uning yuksalishi, rivoji yo'lida tinim bilmaydi. Bunday kishilarning zalvorli umr yo'li barchaga o'rnak, ona-Vatan oldidagi xizmatlari hech qachon unutilmaydi.

Mazkur kitobda Mirzo-Ulug'bek Abdusalomovning bolalik xotiralari, katta hayot ostonasiga qo'yilgan dastlabki qadamlar, huquqshunos-olimlar va ustozlar hayoti, davlat idoralaridagi faoliyat, shuningdek, inson falsafasi, zamonaviy boshqarish usullari, shaxsning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rne, xususan, ustozning hayotiy kechinmalari va davlat boshqaruvi hamda yuridik faoliyatning turli jabhalarida amalga oshirgan ezgu va oliyjanob ishlari yoritilgan. Ayniqsa, "Bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas", "Otaga tortgan o'g'il", "Kamtarlik cho'qqisidagi inson" kabi ruknlarda berilgan hayotiy tahlillarni o'qigan har bir shaxs kitob qahramonining bosib o'tgan sharaflı hayot yo'lidan saboq chiqaradi va ibrat oladi. Qolaversa, boshqaruv va rahbarlik sohasida muayyan maqsadga erishish yo'lida insoniy salohiyatni ro'yobga chiqarishga qaratilgan tasavvurlarini kengaytiradi.

Kitobni o'qigan har bir inson zamon va makon qonuniyatlari asosida nafaqat uning qahramoni haqidagi, balki o'zining shu kunlarga yetishishiga katta hissa qo'shgan atrofida insonlarning umr bitiklari va zarvaraqalaridan ham muayyan darajada xabardor bo'ladi. Eng muhimi, ko'plab yoshlarning huquqshunoslik kasbining, ayniqsa, sudyalik kasbiga sadoqat va ibrat namunasi bo'lgan zamondoshimizning bosib o'tgan sharaflı hayot yo'lidan voqif bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy va huquqiy fanlarning muayyan sohalarida amalga oshirilgan ishlar va unda rahbar shaxs omili haqida bilimlarni olish

va uning mazmunini chuqur idrok etishga undaydi.

Zamonamiz qahramonlarini ulug'lash, ko'p millatli xalqimizning faxri bo'lgan insonlar hayot faoliyatini chuqur o'rganish, qaysi sohada fidokorona mehnat faoliyatini amalga oshirishidan qat'i nazar, ularni izzat-hurmat qilish ham farz, ham qarzdir. Inson qadri ulug'lanayotgan jamiyatimizda uch avlod uchrashuvlarini haqiqatan ma'naviy tarbiya maktabi bo'lishida bunday yozilgan kitoblar, hujjatli filmlar, badiiy ocherklar va boshqa turli janrdagi ilmiy-ommabop va publitsistik nashr va elektron ko'rsatuvlarning ahamiyati katta.

Darhaqiqat, rahbarlik, yetakchilik va sardorlik atamaları ishning ko'zini puxta biladigan, boshqalarni o'z ortidan ergashtira oladigan, kasbiga qalb qo'ri va butun mehrini berib, o'zi, oilasi va el-yurtini o'ylab mehnat qiladigan, boshqaruv faoliyatini jon dildan seva olgan kishiga nisbatan ishlatilishi mumkin. Boshqaruvda tajriba, ko'nikma, mahorat, bilim, aql va idrokning roli g'oyatda katta. Ammo eng avvalo, boshqaruv – san'at, ochiq-roq aytganda, bu kreativ yondashuv, ijoddir. Rahbarga ham xuddi san'atkor uchun zarur bo'lganidek, talant va iste'dod lozim. Har kimdan san'atkor chiqmaganidek, istagan odamdan ham yaxshi rahbar chiqavermaydi. Rahbar o'z qobiliyati, iste'dodini ishga solib izlanadi, toblanadi, shu maqsadda hayotni, odamlarni chuqur o'rganadi. Natijada to'plagan bilimlari, tajribalarini davlat va jamiyat boshqaruvining umumiy qonuniyatlari asosida shakllantirib, o'zining rahbarlik usulini yaratadi. U o'zida tegishli davlat va jamoat boshqaruvining shakl va usullarini shakllantirishda mutlaqo erkin shaxsdir, ammo uning rahbarlik usuli ijobiy natija bergan taqdirda yetakchi degan nomga sazovor bo'ladi. Ayniqsa, konstitutsiyaviy boshqaruv maqomiga ega bo'lgan jamoalarga rahbarlik qilish juda katta san'at va mahoratdir. Rahbarning mashaqqatli mehnati natijasi o'laroq kelajagimiz vorislari kamol topib

boradi. Demak, rahbarlarga qaratilgan e'tibor Vatan taqdiriga qaratilgan e'tibordir.

Mirzo-Ulug'bek Abdusalomov sudyalarga shunday deb uqtirardi: "Sudyalik har kimga ham nasib etavermaydigan lavozim, uning mas'uliyati juda og'ir. Siz doim kasbingizga sodiq, halol va obyektiv bo'ling. Chunki faqat to'g'ri odamgina xotirjam yashaydi. Egri ish qilsangiz, agar jazodan qutulib qolsangiz ham hayotingizda halovat hech qachon bo'lmaydi. Odamlarning yuziga tik qaray olmaysiz, yaqinlaringiz ham sizdan xijolat tortadi... G'irrom bo'lmang, bu yomon illat, oqibati juda ayanchli... Tajribamdan kelib chiqib aytaman, bugun sudyalalar uchun yaratilgan shart-sharoitning qadriga yeting. Sudyalikning yuki qancha og'ir bo'lsa, to'g'ri sudya uchun sudyalik sharafi ham cheksizdir". Bu purma'no, kasbiy odob va axloqqa chorlaydigan hikmatli so'zlarni har bir sudya teran anglashi lozim.

M. Abdusalomovning o'z kasbiga sadoqat va matonat bilan xizmat qilishi va har qanday faoliyatni oqilona tashkil etish qobiliyati, amaliy muammolarni yechish borasidagi iqtidori va jamoani bir maqsad sari yo'naltirishdagi roli g'oyatda beqiyosdir. Uning jamoadagi har bir xodim haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi, ularga hayotiy maslahat berishi va amaliy yordam ko'rsata olishini alohida e'tirof etish joiz. Uning sa'y-harakati bilan bir qator sud amaliyotiga oid o'quv qo'llanmalari nashrdan chiqarildi.

Ustozning yillar davomida Oliy xo'jalik sudining Ilmiy maslahat kengashi, Oliy xo'jalik sudi Plenumi va Rayosatida amaliyot uchun muhim bo'lgan qarorlarni ishlab chiqishda rahbar sifatida tashabbuskorlik ko'rsatganligi sudga himoya istab murojaat qilgan manfaatdor shaxslarning, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, o'tgan yillar mobaynida Oliy xo'jalik sudining nashrlarida sud amaliyotini umumlashtirish, qonun hujjatlari normalarini amaliyotda qo'llash samaradorli-

gini oshirish, xususan, sudda ko'rilgan ishlar misolida normativ-huquqiy hujjatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni takomillashtirishga qaratilgan takliflarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish orqali ularning sifatini oshirishda norma ijodkorligi faoliyati sohasida yuksak salohiyatga hamda chuqur kasbiy bilim va malakaga ega bo'lgan rahbar ekanligini namoyon qildi. Ayniqsa, bir tizimda ishlab yurgan paytimdan juda yaxshi bilamanki, tadbirkorlik subyektlari, dehqon va fermer xo'jaliklari ishtirokida sud amaliyoti tahlillari asosida o'tkazilgan huquqiy targ'ibot ishlari va sayyor sud majlislari huquqbuzarliklarning oldini olish va ular huquqiy madaniyatini oshirishning zaruriyatini oldindan ko'ra bilgan rahbar sifatida amaliy ishlarni tashkil etishga bevosita boshchilik qildi. Bir necha yillar bu borada amalga oshirilgan tashkiliy-huquqiy ishlar tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yuksaltirishga amaliy yordam berdi. O'sha davrdagi mamlakatimiz miqyosida o'tkazilgan bunday keng qamrovli tashkiliy-huquqiy tadbirlar jamoatchilik tomonidan hanuzgacha e'tirof etiladi.

M. Abdusalomov huquqiy ilm-fan yutuqlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor berganligi bois sud amaliyotini samarali o'rganish maqsadida o'quv mashg'ulotlarini olib borish tashkil etildi va bu sudyalarning korpusini shakllantirishga, eng muhimi, huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu asnda, o'tgan yillarda Oliy xo'jalik sudining raisi sifatida sud tizimiga malakali sudya va sud xodimlarini tayyorlash maqsadida O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlikda maxsus kafedrani tashkil etish, talaba va magistrning bevosita sudda o'z bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga munosib hissa qo'shdi.

M. Abdusalomov, shuningdek, qonun ijodkorligi faoliyati bo'yicha milliy dastur doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qator kodekslar, jumladan, Fuqarolik kodeksi, Xo'jalik protsessual kodeksi, Saylov kodeksi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi, "Bankrotlik to'g'risida"gi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi va saylov qonunchiligini takomillashtirishga oid boshqa o'nlab qonunlar va qonunosti hujjatlari loyihalarining ishlab chiqilishida faol ishtirok etgan. Qolaversa, sud amaliyoti tahlillari asosida bir qator takliflar ishlab chiqilib tegishli idoralarga taqdim etilganligi huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

U 2003-yilda "Tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning fuqarolik huquqiy usullari va muammolari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, mamlakatimizda tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish, turli tazyiq va sun'iy to'siqlardan huquqni qo'llash yo'li bilan himoyalash mexanizmlarining ishlab chiqilishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan.

M. Abdusalomov yuzdan ortiq ilmiy maqolalar va kitoblarning muallifidir. Jumladan, uning "O'zbekistonda adliya idoralarning shakllanishi va rivojlanishi" (1996), "O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlari" (1998), "Mustaqillik bilan hamnafas" (2001), "Saylovlar haqida suhbatlar" (2019), shuningdek, hammualliflikda tayyorlangan "O'zbekiston qonunlari: savollar va javoblar" (2001), "Mustaqillik huquq demakdir: qonun ustuvorligini ta'minlashda jamoatchilik fikri

nazorati va sud huquqiy islohotlar istiqbollari” (2001), “O‘zbekiston qonunlari: savollar va javoblar” (2001), “Qishloq xo‘jaligi sohasida tadbirkorlik shartnomalari” (2002), “Xalqaro saylov standartlari va O‘zbekiston qonunchiligi” (2014) kabi kitoblari, shu bilan birga, monografiya va sharhlari jamoatchilik, xususan, ilmiy jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan. Uning tahriri ostida Respublika Oliy xo‘jalik sudi Plenumi va Rayosatining qarorlari to‘plami, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining axborotnomalari nashr etilgan.

Uzoq yillik mehnat faoliyati davomida M. Abdusalomov bir qator yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 24-noyabrdagi Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig‘i va 1999-yil 25-avgustdagi Farmoni bilan “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist” unvoni, 2006-yilda “Mehnat shuhrati” va 2012-yilda “Do‘stlik” ordenlari, 2022-yilda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 28-avgustdagi PF-3303-son Farmoniga ko‘ra sudyalik “Oliy malaka darajasi” berilgan.

Mirzo-Ulug‘bek Abdusalomov boy ilmiy va amaliy tajribasini o‘rganish va yuridik fan va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishda tutgan o‘rni va rolini bir necha omillarga ko‘ra tavsiflash mumkin.

Birinchidan, uning adliya, xo‘jalik, tadbirkorlik va saylov faoliyatini ilmiy ta‘minlashga oid boy fundamental va metodologik asarlari O‘zbekistonda zamonaviy davlat boshqaruvi, sud hokimiyatini mustahkamlash va xususiy huquq fanining, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining ilmiy-amaliy ta‘limotini shakllantirish va rivojlantirishda mustahkam ilmiy-nazariy asosdir.

Ikkinchidan, atoqli yuridik fan va huquqni qo‘llash amaliyoti namoyandasi noyob davlat va sud boshqaruvchilik qo-

biliyati va tizimga rahbarlik qilishda o‘ziga xos kreativ va zamonaviy tafakkur egasi-ning hayotiy tajribasini o‘rganish, Yangi O‘zbekistonda konstitutsiyaviy qonuniylikning ijtimoiy va raqamli hayotning barcha sohalarida ayniqsa, transformatsiyalashgan sud-huquq doktrinasini shakllantirish va rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo‘lmoqda.

Uchinchidan, davlat va sud boshqaruvi, konstitutsiyaviy qonuniylikning buguni va kelajagini haqqoniy ilmiy bashorat qilishga qodir bo‘lgan sudyalarning raisining milliy qonun hujjatlarini takomillashtirishga oid ilmiy xulosa va takliflari raqamli reallik sharoitida sohaga oid ko‘plab qonun hujjatlarini qabul qilishda o‘ziga xos konsepsiyadir.

To‘rtinchidan, iqtisodiy sudlarning qonunchilikni amaliyotda qo‘llash tajribasini har tomonlama tadqiq etib o‘rganish maqsadida “Iqtisodiy sudlar faoliyatida moddiy va protsessual qonunchilikni qo‘llash: muammolar va uni hal qilish”ga oid ustuvor ahamiyatga molik tadqiqot yo‘nalishlarini belgilash zaruriyati mavjud. Bu esa o‘z navbatida, nafaqat iqtisodiy sudlar faoliyatini ilmiy ta‘minlashga, balki huquqni qo‘llash amaliyoti tahlillari asosida sud qonunchiligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston ravnaqi va kelajagi uchun sadoqat, fidoyilik bilan xizmat qilishdagi o‘rni va qo‘shgan salmoqli hissasi orqali O‘zbekiston yuridik hamjamiyatida o‘zining sud amaliy maktabini yaratgan tajribali yurist, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, millatimiz faxrlanadigan sudyalarning korpusining namoyandasi M. Abdusalomovning hayot yo‘li barchamiz uchun ibrat va haqiqiy fidoyilik namunasi bo‘lib qoladi.

Ruzinazarov Shuxrat Nuraliyevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi kafedrasining professori,
Turon Fanlar akademiyasining
akademigi, yuridik fanlar doktori

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 4-SON

VOLUME 5 / ISSUE 4 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.4.